


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



*“Fizika” kafedrasи*

*Muallif: L.I.Ochilov, M.S.Mirzayev*

**BIOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHLARDA**

**FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI**

*Uslubiy qo'llanma*



***BUXORO- 2019***

Ushbu uslubiy qo'llanma Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashining \_\_\_\_\_ 201\_ yilda bo'lib o'tgan №\_\_ sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy qo'llanma fizika fanining barcha bo'limlari, ya'ni mexanika,molekulyar fizika, elektr va magnetizm, optika, atom va yadro bo'limlari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan laboratoriya ishlari va ularga doir uslubiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan.

Bu qo'llanma fizika fani bo'yicha "Biologiya" bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari dasturiga mos ravishda tayyorlangan. Ushbu uslubiy qo'llanmada har bir ishda ishning maqsadi, kerakli asbob va uskunalar, qisqacha nazariy ma'lumotlar, ishni bajarish va hisoblash tartibi va olingan natijalarni kiritish uchun kerakli jadvallar, nazorat savollari, fizikaviy kattaliklar jadvali hamda zaruriy adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Qo'llanma talabalarni mustaqil ravishda o'qituvchi rahbarligida laboratoriya ishlarini bajarishi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

L.Ochilov – BuxDU fizika kafedrasi o'qituvchisi,  
M.S.Mirzayev – BuxDU fizika kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar: BMTI tabiiy fanlar katta o'qituvchisi D.E.Hayitov,  
BuxDU "Fizika" kafedrasi dosenti: tex.f.n.dos. I.I.Raxmatov.

**FIZIKA O'QUV LABORATORIYASIDA ISHLASHDA TEXNIKA  
XAVFSIZLIGI**

Labaratoriya ishlarini bajarishga kirishishdan oldin hamma talabalar texnika xavfsizligibidan tanishib, ishni bajarayotganda ushbu qoidalarga amal qilishlari shart.

1. Laboratoriya jihozlari bilan ishlaganda uni oldin ishga yaroqli ekanligini tekshiring
2. Elektr toki bilan ishlaydigan asbobning xavfli ekanligini esdan chiqarmang! Ehtiyoj bo'ling.
3. Yig'lgan elektr zanjiri o'qituvchi tomonidan tekshirilgandan so'ng oqituvchining ruxsati bilan manbara ulanadi.
4. Elektr asboblarning birida nosozlik kuzatilsa u darhol manbadan uzilishi kerak.
5. Izolyatsiyalangan elementlar bilan elektr zanjiriga tegish man etiladi.
6. Elektr zanjirdagi har qanday o'zgarishlar faqat elektr zanjir kuchlanish manbaidan uzilganidan so'ng kiritilishi kerak.
7. Ish bajarilib bo'lingandan so'ng hamma manbalar o'chirilishi va elektr zanjiri uzilishi kerak.
8. O'lchov natijalari olingandan so'ng tok manbai o'chirilishini unutmang.
9. Laboratoriyada 50V dan yuqori kuchlanish bilan ishlaganda o'qituvchi nazorati ostida tajribani bajaring.
10. Tok manbaini o'qituvchining ruxsatisiz o'chirmang va yoqmang.

## **1. LABORATORIYA MASHG`ULOTLARI VA ULARNI TASHKIL QILISH USULLARI**

Laboratoriya mashg`ulotlari nazariya va amaliyotni bog`lovchi, ularning birligini ta'minlovchi asosiy omil bo`lib, talabalarning bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda o`lchov asboblari bilan ishlash va tajriba o`tkaza bilish ko`nikmalarini shakllantirishda va rirojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Oliy o`quv yurtlarida o`tkaziladigan laboratoriya mashg`ulotlarini uch usulda tashkil qilish mumkin: umumiy, aralash va tsiklli.

Umumiy usul. Har bir talaba darsda o`tilgan mavzuga taalluqli muayyan bir ishni bajarish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ushbu usul darsni tashkil qilish va o`tkazishni, dars davomida talabalarning faoliyatini boshqarib borishni engillashtiradi. Umumiy usul laboratoriyalarda bir xil qurilmalardan bir nechta bo`lganda laboratoriya xonalarining kengaytirilishi va barcha talabalarning bir xil mazmunli va bir tarkibdagi vazifalarni bajara olishiga sharoit tug`dirilishini talab qiladi. Bundan tashqari laboratoriya ishlarining bir xilligi, qiyin o`zlashtiradigan talabalarning fikrlash qobiliyatini chegaralaydi.

Laboratoriya mashg`ulotlarining aralash bajarish usuli. Har bir talaba darsda o`tilgan yoki o`tilmaganidan qat'iy nazar alohida-alohida laboratoriya ishlarini bajaradi. Bu ishlarning mazmuni ham, bajarish usuli ham turlichcha. Laboratoriya va dars mavzularining bir-biri bilan mos kelmasligi talabalarning tegishli adabiyot bilan mustaqil ishslashga o`rgatadi, fikrlash jarayonlarini aktivlashtiradi.

Tsiklli usul. Bu usulda esa amaliyotga kiritilgan laboratoriya ishlari, umumiy fizika kursining ma'lum bilimlari asosida yoki biron-bir fizik kattalikning turli o`lchash usullarini umumlashtirish yo`li bilan birlashtirilib tashkil qilinadi. Laboratoriya ishlarining yoki dars mashg`ulotining matnini moslashtirish laboratoriya ishlarini birlashtirishda unumli variantlarni qo`llash imkonini beradi. Yuqorida bayon etilgan usullarni tahlil qilish texnika oliy o`quv yurtlarida fizikadan o`tkazilgan laboratoriya mashg`ulotlarini tsiklli usulda olib borish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi.

## 2. O'LCHASH XATOLIKLARI HAQIDA TUSHUNCHА

Biz qo'llayotgan o'lchov asboblarini va sezgi organlarimizning uncha yaxshi takomillashmagani tufayli har qanday o'lchash natijalari ma'lum bir darajadagina aniqlikka ega bo'ladi. Shuning uchun ham, o'lchash natijalari bizga o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatini emas, taqrifiy qiymatinigina beradi. O'lchashni o'lchov birligining qanday eng kichik ulushigacha ishonchli bajarish mumkin bo'lsa, ana shu o'lchash natijasining aniqlik darjasи bo'ladi. O'lchash aniqligining darjasи bu o'lchashda ishlatilayotgan asboblarga, o'lchashning umumiyl usullariga bog'liq bo'ladi: biron muayyan sharoitda erishilishi mumkin bo'lgan aniqlikdan ham aniqroq natijalar olish uchun urinish vaqtini bekorga sarflash demakdir. Odatda, o'lchanayotgan kattalikning 0,1 protsentigacha aniqlik bilan kifoyalansa bo'ladi. Eng oxirgi natijaning aniqligini oshirish uchun har qanday fizik o'lchashni bir martagina emas, balki tajriba o'tkazayotgan sharoitini o'zgartirmay turib, bir necha marta takrorlash lozim. Haqiqatdan ham biz o'lchashda va sanoqda hamma vaqt ozmi, ko'pmi xato qilamiz. Bu xatolar ikki sababga ko'ra yuz berishi mumkinligidan, ular ikki guruhga: hamma vaqt bo'ladi (sistemali) va tasodifiy xatolarga bo'linadi.

Sistemali xatolar o'lchov asboblarining buzuqligi, o'lchash usulining noto`g'rilagini yoki kuzatuvchining biror xato qilib qo'yishi natijasida yuz beradi. Ravshanki, o'lchashni bir necha marta takrorlash, baribir bu xatolar ta'sirini kamaytirmaydi. Bu xatolarni yo'qotish uchun, o'lchashusuliga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish, asboblarga aniq qarab turish va ish bajarishni amalda yaratilgan qoidalarga qattiq rioya qilish kerak.

Tasodifiy xatolar esa tajriba o'tkazuvchi har qandaykishining sanoq vaqtida mutlaqo ixtiyorsiz qilib qo'yishi mumkin bo'lgan xatosi natijasida vujudga keladi. Bu xatolarga sezgi organlarimizning uncha yaxshi takomillashmaganligini va o'lchash vaqtida yuz beradigan (oldindan e'tiborga olinishi mumkin bo'limgan) boshqa ko'pgina hollar sabab bo'ladi. Tasodifiy xatolar ehtimollar nazariyasining qonunlariga bo'ysinadi, Demak, biror kattalikni bir martao'lchanganda olingan natija shu kattalikni haqiqiy qiymatidan katta bo'lib qolsa, u holda bu kattalikni keyingi o'lhashlardan birining natijasi, ehtimol haqiqiy qiymatda kichik bo'lib chiqishi mumkin. Bunday holda ayni bir kattalikni bir necha marta o'lchash natijasida tasodifiy xatolarning kamayishi mutlaqo ravshan, chunki haqiqiy qiymatdan bir tomoniga chetlanishlardan ko'proq bo'lishining ehtimoli ortiq emas. Shuning uchun ham, juda ko'p o'lchash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati, o'lchash natijalarining har qaysisidan ko'ra, o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga yaqinroq bo'ladi. Faraz qilaylik, ayrim kattaliklarni o'lchash talab etilsin:

Ayrim o'lhashlarning natijalari  $N_1, N_2, N_3, \dots, N_n$  bo'lsin, n- alohida o'lhashlar soni. U holda bu natjalarning o'rtacha arifmetik qiymati:

$$\bar{N} = \frac{N_1 + N_2 + N_3 + \dots + N_n}{n} = \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^n N_i \quad (1)$$

Bu miqdor o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga eng yaqin bo'ladi. Har bir alohida o'lhashlarning bu o'rtacha qiymatidan farqi, ya'ni:

$$\begin{aligned} |\bar{N} - N_1| &= \Delta N_1 \\ |\bar{N} - N_2| &= \Delta N_2 \\ |\bar{N} - N_3| &= \Delta N_3 \\ &\vdots \\ |\bar{N} - N_n| &= \Delta N_n \end{aligned}$$

alohida o'lhashlarning absolyut xatosi deyiladi. Bu xatolarning ishorasi har xil bo'ladi. Ular musbat, hamda manfiy bo'lishlari mumkin. O'rtacha absolyut xatoni hisoblash uchun, ayrim xatolar son qiymatlarining o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

$$\Delta N = \frac{\Delta N_1 + \Delta N_2 + \Delta N_3 + \dots + \Delta N_n}{n}$$

$\frac{\Delta N_1}{N_1}, \frac{\Delta N_2}{N_2} \dots$  nisbatlarga ayrim o'lchashlarning nisbiy xatolari deyiladi. O'rtacha absolyut xato ( $\Delta \bar{N}$ ) ning o'lchanayotgan kattalikni o'rtacha arifmetik qiymati ( $\bar{N}$ ) ga nisbati o'lchashning o'rtacha nisbiy xatosi ( $E$ ) deyiladi.

$$E = \frac{\Delta \bar{N}}{\bar{N}}$$

Nisbiy xatolar foizlarda ifodalanadi:

$$E = \frac{\Delta \bar{N}}{\bar{N}} \cdot 100\%$$

O'lchash kattaliklarni haqiqiy qiymati:

$$N_x = \bar{N} \pm \Delta \bar{N}$$

Bundan  $N_x$  - ikki qiymat  $\bar{N} + \Delta \bar{N}$  va  $\bar{N} - \Delta \bar{N}$  ga ega deb tushunish yaramaydi.  $N_x$  faqat bir qiymatga egadir (-) va (Q) ishoralar o'lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymati:

$$\bar{N} + \Delta \bar{N} \text{ va } \bar{N} - \Delta \bar{N}$$

intervalida ekanligini ko'rsatadi, ya'ni

$$\bar{N} + \Delta \bar{N} \leq N_x \leq \bar{N} - \Delta \bar{N}$$

Ehtimollik nazariyasi absolyut xato  $N$  topishlikni yanada aniqroq formulasini berib, natijaning  $\Delta N_m$ -ehtimolligi katta deb ataluvchi xatollik tushunchasini beradi.

$$\Delta N_m = \pm 0,6743 \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\Delta N_i)^2}{n(n-1)}}$$

Bu holda o'lchanayotgan kattalikning natijalovchi qiymati:

$$N_x = \bar{N} \pm \Delta N_m$$

Agar asbobning aniqligi shunday bo'lsaki, har qanday o'lchash sonida ham, asbob bir xil qiymatni ko'rsatsa, u holda xatolikni hisoblashning yuqorida keltirilgan usuli qo'llanilmaydi. Bu holda o'lchash bir marta o'tkazilib, uning natijasi quyidagicha yoziladi:

$$N_x = \bar{N} \pm \Delta N_{mex}$$

bunda  $N_x$  - izlanayotgan o'lchash natijasi,  $\bar{N}'$  - ikki o'lchashning o'rtacha arifmetik qiymati,  $\Delta N_{mex}$  - asbob shkalasi bo'limlarini o'rniغا teng bo'lgan chegaraviy xatolik. To'g'ridan-to'g'ri o'lchash xatoliklarini quyidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

O'lchashlar soni	$N_i$	$\Delta N_i$	$\frac{\Delta \bar{N}}{\bar{N}} \cdot 100\%$	$N_x = \bar{N}' \pm \Delta N_{mex}$
1.	$N_1$	$\Delta N_1$		
2.	$N_2$	$\Delta N_2$		
3. ...	$N_3$	$\Delta N_3$		
$N$	$N_n$	$\Delta N_n$		

## **I-LABORATORIYA ISHI**

### **MATEMATIK MAYATNIKNING TEBRANISH QONUNLARINI O'RGANISH VA OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** matematik mayatnikning tebranish davrini tebranish amplitudasiga va mayatnik uzunligiga bog'liqligini tekshirish va u vositasida yer tortish kuchi tezlanishini aniqlash.

**Kerakli asbob va materiallar:** matematik mayatnik, millimetr, lineyka, shtangentsirkul, sekundomer, transportir

#### **NAZARIY QISM**

Jismning mexanikaviy harakati turlaridan uning muvozanat vaziyati atrofidan goh chapga, goh o'ngga siljishidan iborat bo'lgan tebranma harakatdir. Tebranma harakatni vaqtga bog'lanishiga qarab, davriy va nodavriy tebranma harakatga, jismga (yoki sistemaga) ta'sir etuvchi kuchlar harakteriga qarab erkin va majburiy tebranma harakatga va energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra so'nuvchi va so'nmas tebranma harakatga ajratish mumkin.

Agar jismning harakati davomida uning harakatini harakterlovchi u yoki bu fizikaviy kattalik (chastota , davr, siljish, energiya va h.k.) ning qiymatlari bir me'yorda takrorlanib tursa, u holda bunday harakat davriy tebranma harakat deyiladi. Bunday harakatga misol qilib, matematikaviy mayatnikning kichik amplitudali tebranishlarini ko'rsatish mumkin. Matematikaviy mayatnik deb, vaznsiz, cho'zilmas va ingichka ipga osilgan m massali, shakli va o'lchamini hisobga olmasa ham bo'ladigan jismga aytildi. Faraz qilaylik, biror m massali jism  $l_0$  uzunlikdagi ipga O nuqtadan osilgan bo'lib, u muvozanat vaziyatdan  $\varphi$  burchakka og'dirilgan bo'lsin. U holda jismga 17.1-rasmida ko'rsatilganidek kuchlar ta'sir qiladi. Bu yerda  $R$  – og'irlik kuchi ,  $\vec{F}_\tau$  va  $\vec{F}_n$  – mos ravishda og'irlik kuchining tangensial va normal tashkil etuvchilari ,  $\vec{T}$  - ipning taranglik kuchi,  $\vec{F}_n$  va  $\vec{T}$  kuch vektorlari o'zaro teng va bir to'g'ri chiziqda yotganligidan  $(\vec{F}_n) + (\vec{T}) = 0$ . Shuning uchun jismni muvozanat vaziyati tomon qaytaruvchi kvazielastic ichki kuch vazifasini  $\vec{F}_\tau$  kuch o'taydi. Jism A muvozanat vaziyati nuqtasidan V nuqtaga siljitinganda h balandlikka ko'tarilib,  $W_n = mgh$  potensial energiyaga ega bo'ladi.

Shuningdek , uning  $\varphi$  burchakka muvozanat vaziyatidan og'dirilishiga  $h = l(1-\cos\varphi)$  balandlik ,  $W_0 = mgl(1-\cos\varphi)$  energiya mos keladi. Bu holda jismning kinetik energiyasi

$$W_{kin} = \frac{1}{2} m \vartheta^2 = \frac{1}{2} ml^2 \varphi^2 \quad (1)$$

ga teng bo'ladi. Bu yerda  $\vartheta = l\varphi = l\omega$  ( $\omega$  - burchak tezlik ). Demak, jismning to'liq energiyasi

$$W = W_{kin} + W_{pot} = \frac{1}{2} ml^2 \varphi^2 + mgl_0(1-\cos\varphi) \quad (2)$$

tenglik bilan aniqlanadi. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, muhitning qarshiliqi  $z = 0$  va osilish nuqtasida ishqalanish koeffitsienti  $f=0$  desak ,  $\varphi$  ning har qanday qiymatida ham (2) tenglik o'rinci bo'lishi kerak.  $\cos\varphi$  ni qatorga yoyib ,  $\varphi$  burchakni kichkinaligini hisobga olsak,

$$\cos\varphi = 1 - \varphi^2 \quad (3)$$

ni hosil qilamiz. U holda (3) ga asosan (2) dan

$$W = \frac{1}{2} ml^2 \varphi^2 + mgl_0 \varphi^2 \quad (4)$$

yoki

$$\varphi = \frac{d\varphi}{dt} = \sqrt{\frac{2W - mgl_0\varphi^2}{ml^2}} = \sqrt{\frac{g}{l}} \left( \frac{2W}{mgl_0^2} - \varphi^2 \right)^{\frac{1}{2}} \quad (5)$$

tenglikka ega bo'lamiz.  $\varphi = \varphi_{max}$  da  $W_{kin} = 0$  bo'lib, (4) dan


$$\varphi_{max}^2 = \frac{2W}{mgl}$$

demak, (5) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d\varphi}{dt} = \sqrt{\frac{g}{6}} \cdot \sqrt{(\varphi_{max}^2 - \varphi^2)} \quad (6)$$

yoki

$$\frac{d\varphi}{\sqrt{\varphi_{max}^2 - \varphi^2}} = \sqrt{\frac{g}{l}} \cdot dt \quad (7)$$



Oxirgi tenglikning o'ng tomonini  $\varphi_1$  dan  $\varphi$  gacha va chap tomonini esa 0 dan  $t$  gacha integrallasaki,

$$\varphi = \varphi_0 \sin \left[ \left( \frac{g}{l} \right)^{\frac{1}{2}} t + ark \sin \frac{\varphi_1}{\varphi_0} \right] \quad (8)$$

hosil bo'ladi. (8) ni (1) bilan solishtirib,

$$\omega_0 = \sqrt{\frac{g}{l_0}} \quad \varphi_1 = ark \sin \frac{\varphi_1}{\varphi_0} \quad (9)$$

ekanligini aniqlaymiz. Shunday qilib,  $T = 2\pi/\omega_0$  munosabatga asosan, oxirgi tenglikdan

$$g = \frac{4\pi^2}{T^2} \cdot l_0 \quad (10)$$

Bu tenglik jismning T tebranish davrini va tebranish markazidan og'irlilik markazigacha bo'lgan  $l$  masofani bilgan holda  $R$  og'irlilik kuchining bergan  $g$  tezlanishini aniqlash imkonini beradi.

### Ishni bajarish tartibi

1. Mashtabli chizg`ich ba shtangensirkul yordamida mayatnikning tebranish markazidan sharchaning og`irlik markazigacha bo`lgan  $l_0$  masofa aniqlanadi,  $l_0=l_1+h$  ekanligidan  $l_1$  chizg`ich yordamida o`lchanib, sharchaning radiusi  $R$  esa shtangensirkul bilan o`lchanadi va natijalar hisobot daftarida qayd qilinadi.
2. Mayatnikni muvozanat vaziyatidan taxminan  $3 - 4^{\circ}\text{C}$  ga og`dirib qo`yib yuboriladi.  $3 - 4$  marta uning to`la tebranishi sodir bo`lguncha kutiladi, so`ngra mayatnik muvozanat vaziyatidan maksimal masofaga siljigach, to`la tebranishlar hisoblana boshlanadi va shu paytda sekundomer yurgizib yuboriladi.
3. To`la tebranishlar soni  $n$  qancha ko`p olinsa, bir marta to`la tebranish uchun ketgan vaqt (tebranish davri –  $T$ ) ni  $t/n$  nisbatdan ( $t - n$  marta tebranish uchun ketgan vaqt) shuncha aniqroq topiladi. Shuning uchun mayatnikning  $n_1 = 100$ ,  $n_2 = 150$ ,  $n_3 = 300$  va  $n_4 = 500$  marta tebranishlari uchun ketgan vaqtlardan  $T_1$ ,  $T_2$ ,  $T_3$  va  $T_4$  lar aniqlanadi.
4. Tebranish davrining har bir qiymatida va uning o`rtacha qiymatida (10) tenglik bo`yicha  $g$  og`irlik kuchi tezlanishi hisoblaniadi.
5. Absolyut va nisbiy xatoliklar aniqlanadi.
6. Barcha hisoblash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi:

Tartib raqami	$l_1, m$	$R, m$	$l_0, m$	$n$	$t, sek$	$T, sek$	$g, m/s^2$	$\Delta g, m/s^2$	$E = \frac{\Delta g}{g} \cdot 100\%$
1									
2									
3									
O`rtacha									

### Sinov savollari

1. Tebranma harakat deb nimaga aytildi?
2. Tebranma harakatlar qaysi kuchlar ta'sirida ro'y beradi?
3. Matematik mayatnik deb nimaga aytildi?
4. Matematik mayatnik tebranish davri ifodasini yozing va tahlil eting.
5. Matematik mayatnikning tebranish davri bilan uning tebranish amplitudasi orasida qanday bog'lanish mavjud?
6. Matematik mayatnikning tebranish davri uning uzunligiga qanday bog'langan?
7. Matematik mayatnik yordamida yerning og`irlik kuchi tezlanishini aniqlash usulini tahlil eting.
8. Fuko mayatnigi nima va u yordamida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi qanday qilib aniqlanadi?

### Adabiyotlar

1. S.P. Strelkov. Mexanika, T., 1977. § 123, 126
2. D. V. Sivuxin. Umumiy fizika kursi. Mexanika, T., 1981.
3. V.I. Iveronova tahriridagi "Fizikadan praktikum", T., 1960.
4. Q. G'. Parpiyev, U.A. Abduboqiyev, U.Sh. Shukurov, Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum, T., «O'qituvchi», 1978, 52 – 62 betlar.

## 2-LABORATORIYA ISHI

### SUYUQLIK VA QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI GIDROSTATIK TORTISH USULI BILAN ANIQLASH

**Kerakli asbob va anjomlar:** analitik tarozi, tarozi toshlari, tekshiriladigan qattiq jismlar, toza suv, uch oyoqli taglik, termometr, toza suv quyilgan idish, tekshiriladigan suyuqlik, (osh tuzi eritmasi), silindr shaklidagi qattiq jismlar, ingichka ip va sim.

**Ishning maqsadi:** suyuqlik va qattiq jism zichligini gidrostatik tortish usuli bilan aniqlash malakasini hosil qilish.


#### Ish to'g'risida nazariy tuchuncha

Biror bir jinsli jismning zichligini aniqlash uchun bu jismning  $M$  massasi va  $V$  hajmi o'lchanadi va biror birliklar sistemasini tanlab,  $\rho$  ning qiymati shu sistemada

$$\rho = \frac{M}{V} \quad (1)$$

formula yordamida aniqlanadi.

Qattiq jismning zichligi (1) bilan to'la aniqlanmaydi, chunki jismni havoda va suvgaga botirib turib tortganda, Arximed qonuniga muvofiq har ikkala holda ham uning og'irligi kamayadi. Shuning uchun buni hisobga olib (1) formulaga tuzatma kiritiladi.  $\rho$  jism zichligini haqiqiy qiymatini topish uchun muayyan paytdagi  $T$  temperatura va shu temperaturaga mos keluvchi toza suvning zichligi  $\sigma$ , havoning zichligi  $\lambda$ , jismni havoda tortganda uni muvozanatlovchi toshlar massasi  $M$  va tarozi toshlari zichligi  $\Delta$  berilgan deb faraz qilaylik. Jismlarning massasi richagli tarozi yordamida tortib topiladi (4.1. rasm).



4.1. rasm

Jismning havoda tortgandagi muvozanatlik sharti quyidagicha yoziladi:

$$\rho V - \lambda V = M - \frac{M}{\Delta} \lambda \quad (2)$$

Shuningdek, jismni suvga botirib tortilgandagi muvozanatlik sharti

$$\rho V - \lambda V = M_1 - \frac{M}{\Delta} \lambda \quad (3)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda  $M_1$  suvga botirilgan jismni muvozanatlovchi tarozi toshlarining massasi.

(2) tenglikni (3) tenglikka bo'lib, qisman matematikaviy almashtirishlardan so'ng, qattiq jismning zichligini aniqlashga imkon beradigan

$$\rho = \frac{M\sigma - M_1\lambda}{M - M_1} \quad (4)$$

formula hosil qilinadi.

$\rho$  suyuqlik zichligini gidrostatik usul bilan aniqlash uchun ham yuqoridagidek mulohaza yuritamiz. Ya'ni, hajmi o'zgarmas bo'lgan qattiq quyma jismni avval toza suvga botirib, so'ngra zichligi aniqlanadigan suyuqlikka botirib tortiladi va jismni bu ikkala holatiga tegishli  $M_1$  va  $M_2$  massalari aniqlanadi. U holda jismni toza suvga botirib tortgandagi tarozining muvozanatlik sharti

$$\sigma V - \lambda V = M_1 - \frac{M}{\Delta} \lambda \quad (5)$$

yoki  $V(\sigma - \lambda) = M_1(1 - \frac{\lambda}{\Delta})$

bo'ladi. Shuningdek, qattiq jismni zichligi aniqlanadigan suyuqlikka botirib tortgandagi tarozining muvozanatlik sharti

$$\rho V - \lambda V = M_2 - \frac{M}{\Delta} \lambda \quad (6)$$

yoki  $V(\rho - \lambda) = M_2(1 - \frac{\lambda}{\Delta})$  (6)

(6) ni (5) ga bo'lib quyidagi ifodani olamiz

$$\rho = \frac{M_2}{M_1} (\sigma - \lambda) + \lambda \quad (7)$$

### **1-mashq. Qattiq jismning zichligini aniqlash**

1. Tarozi ishga sozlanadi va qattiq jismning havodagi massasi ( $M_1$ ) tortib olinadi (bir necha marta).

2. Tarozi joylashgan qutiga uch oyoqli taglik kiritiladi va tarozining pallasiga ta'sir qilmaydigan qilib joylashtiriladi.
3. Uch oyoqli taglik ustiga toza suv quyilgan idish qo'yiladi.
4. Qattiq jismni ingichka ip yoki simga bog'lab tarozi ilmagiga ilinadi va suvga botirilib uning suvdagi massasi  $M_2$  tortiladi (bunda suvga botirilgan jism idish devorlariga va tubiga tegmasligi kerak).
5. Muayyan temperaturaga mos keluvchi toza suvning zichligi  $\sigma$ , havo zichligi  $\lambda$  ning qiymatlari qo'llanma oxiridagi jadvaldan olinadi.
6. O'lhash natijalarini (4) formulaga qo'yib,  $\rho$  ning qiymati hisoblanadi.
7. O'lhash va hisoblash turli jismlar bilan bir necha marta o'tkazilib natijalari 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

Tartib raqami	$M_1$ <i>Kg</i>	$M_2$ <i>Kg</i>	$\sigma$ $kg/m^3$	$\lambda$ $kg/m^3$	$\rho$ $kg/m^3$	$\Delta\rho$ $kg/m^3$	$E = \frac{\Delta\rho}{\rho} \cdot 100\%$
1							
2							
3							
O'rtacha							

### 2-mashq. Suyuqlikning zichligini aniqlash

1. Analitik tarozi ishga sozlanadi va uning chap pallasi ilgagiga qattiq jismni osib, uni taglikka qo'yilgan toza suvga botirib tortib olinadi va uning massasini  $M_1$  bilan belgilanadi yoki  $M_1$  ning qiymatlarini 1-mashqdan olsa ham bo'laveradi (u yerda  $M_2$  bilan belgilangan).
2. Taglikka qo'yilgan toza suvli idish olinib, uning o'rniiga tekshiriladigan suyuqlik quyilgan idish keltiriladi.
3. Qattiq jismni suyuqlikka botirib, uning shu holatga tegishli  $M_2$  massasi bir necha marta tortib olinadi.
4.  $\sigma, \lambda$  larning qiymatlari tegishli jadvallardan olinadi, so'ngra (7) formulaga barcha kattaliklarning qiymatlarini qo'yib suyuqlikning zichligi hisoblanadi.
5. O'lhash va hisoblash turli suyuqliklar bilan bir necha marta o'tkazilib natijalari 2- jadvalga yoziladi.

2-jadval

Tartib raqami	$M_1$ <i>Kg</i>	$M_2$ <i>Kg</i>	$\sigma$ $kg/m^3$	$\lambda$ $kg/m^3$	$\rho$ $kg/m^3$	$\Delta\rho$ $kg/m^3$	$E = \frac{\Delta\rho}{\rho} \cdot 100\%$
1							
2							
3							
O'rtacha							

## Sinov savollari

1. Moddalar zichligini aniqlashda gidrostatik tortish usulining mohiyatini bayon eting.
2. Arximed qonuni ifodasini yozing, ta'riflang va mohiyatini tahlil eting.
3. Qattiq jismni suyuqlikka botirganimizda uning nimasi o'zgaradi — massasimi yoki og'irligimi?
4. Jismning zichligi va solishtirma og'irligi geografik kenglik bo'yicha qanday o'zgaradi?
5. A.Beruniy tomonidan minerallarning zichligi qanday topilgan?
6. Jismlar zichligini aniqlashning gidrostatik usuldan boshqa qanday usullarini bilasiz?

## Adabiyotlar

1. S.P. Strelkov. Mexanika. T., 1977, § 98, 99
2. I.V. Savelyev. Umumiy fizika kursi I-jild. T., 1973, § 14,15,16
3. K.F. Parpiev, U.A. Abduboqiyev, U.Sh.Shukurov. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum, T., 1978, 48-52 betlar.

## 3-LABORATORIYA ISHI


### MODDA ZICHLIGINI PIKNOMETR VOSITASIDA ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** suyuq va qattiq jismlarning zichligini piknometr vositasida aniqlashni o'rghanish.

**Kerakli asbob va anjomlar:** analitik tarozi, tarozi toshlari, piknometrlar, zichligi topiladigan suyuqliklar va qattiq jismlar, distillangan suv, uy haroratiidagi toza suv qo'yilgan idish, termometr, filtr qog'ozи.

## NAZARIY QISM

Analitik tarozining tuzilishini va unda tortishni 2-ish tavсifidan o'qib o'rganing. Piknometr muayyan temperaturadagi hajmi sirtiga  $\text{sm}^3$  yoki  $\text{mm}^3$  larda yozib qo'yilgan, temperatura o'zgarishi bilan hajmi deyarli o'zgarmaydigan shishadan yasalgan, turli shakldagi idishlardir (3.1 rasm).



1. rasm

Har qanday piknometrning bo'ynida uning sirtida yozilgan hajmining chegarasini anglatuvchi chiziqcha bo'lib, tekshiriladigan modda shu chiziqqa qadar to'ldiriladi. Umuman har qanday hajmi va massasi aniq bo'lган jismning zichligini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin :

$$\rho = \frac{m}{V} \quad (1)$$

Bu yerda - moddaning zichligi, m - massasi , V - hajmi.

(1) dan ko'riniб turibdiki, zichlik hajm birligidagi massa ekan. Jismning massasi uning inersiya o'lchovi bo'lib, u Galileyning nisbiylik prinsipiiga ko'ra inersial sistemalarda, ya'ni tezlanishsiz sistemalarda o'zgarmas kattalikdir. Shuning uchun jismning zichligi geografik kenglik va balandlik bo'yicha o'zgarmaydi. Ammo hajm birligidagi jism og'irligini xarakterlovchi solishtirma og'irlik esa geografik kenglik va balandlik bo'yicha o'zgaradi. Chunki jism og'irligini o'zi Yer sathidan balandlik ortgan sari kamayib boradi va shuningdek, ekvatorda boshqa, qutbda boshqa qiymatlarga ega bo'ladi. Buning sababi - Yerning geometrik shakli va uning o'z o'qi atrofida aylanishidir.

Zichlik ( $\rho$ ) va solishtirma og'irlik (D) orasidagi bog'lanishni keltirib chiqarish uchun (1) va  $P = mg$  munosabatlardan foydalanamiz. (1) dan  $m= V$ , shuningdek,  $P= Vg$ . U holda yuqoridagi tengliklardan

$$DV = \rho \frac{m}{D} = mg$$

yoki

$$\rho = Dg \quad (2)$$

ekanligi ma'lum bo'ladi.

Jismning zichligini piknometr yordamida topishda (1) dan to'g'ridan - to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Chunki 2-ishda ko'rganimizdek, jismni analitik tarozida havoda tortganimizda bu jism og'irligining kamayishini hisobga olinmasa, hisoblangan natija izlanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatidan farq qiladi. Shuning uchun (1) ifodaga tuzatma kiritib izlanayotgan kattalik qiymatini tajribada aniqlashga imkon beradigan ishchi formulani keltirib chiqaramiz.

### **1-mashq. Suyuqlikning zichligini piknometr yordamida aniqlash.**

Aytaylik, bo'sh piknometrning massasi  $m$  va piknometrning toza suv bilan birgalikdagi massasi  $M$  bo'lsin, u holda piknometrdagi toza suvning massasi  $M - m$  ga teng bo'ladi. Temperaturani e'tiborga olmasak, toza suvning grammlar hisobidagi massasi o'sha toza suvning  $sm^3$  hisobidagi hajmiga teng bo'ladi. Shuning uchun piknometrning V ichki hajmi son jihatidan  $\frac{M - m}{\sigma}$  ga teng; demak,  $\sigma V = M - m$ . Shuningdek, tekshiriladigan suyuqlik to'g'risida ham yuqoridagidek fikr yuritib, bu suyuqlik uchun ham ushbu munosabatni hosil qilamiz: suyuqlik bilan

piknometrning birgalikdagi massasi,  $\rho V = \Delta M_1$  esa suyuqlikning massasi. Bu suyuqlikning zichligini deb belgilasak, yuqorida mulohazalardan foydalanib (1) ni quyidagicha yoz\*amiz:

$$\rho = \frac{M_1 - m}{M - m} \quad (3)$$

Bu formula yordamida hisoblangan  $\rho$  ning qiymati yana taqribiy bo'ladi.

Endi jismlar havoda tortilganda ularning og'irligi kamayishini e'tiborga olib, muhokamani davom ettiramiz.

Agar piknometrning ichki hajmi  $V$ , tajriba vaqtida bosim va temperaturaga mos keluvchi havoning zichligi  $\lambda$ , suvning zichligi  $\sigma$  deb olinsa, u holda  $V\lambda$  siqib chiqarilgan havoning massasi  $V\rho$  esa piknometrdagi suyuqlikning haqiqiy massasi,  $V\sigma$  shu piknometrga quyib tortilgan toza suvning haqiqiy massasi bo'ladi. Suyuqlikni muvozanatlovchi tarozi toshlarining zichligini  $\Delta$  deb olsak, suyuqlikni (toza suvni) muvozanatlovchi tarozi toshlari siqib chiqargan havo massasi  $\frac{M_1 - m}{\Delta} \lambda$ , ( $\frac{M - m}{\Delta} \lambda$ ) yoki taqriban  $V\lambda$  bo'ladi. Endi toza suv bilan tarozi toshlari muvozanatda bo'lgani uchun

$$V\sigma - V\lambda = M - m - \frac{M - m}{\Delta} \lambda$$

yoki

$$V(\sigma - \lambda) = (M - m)(1 - \frac{\lambda}{\Delta}) \lambda \quad (4)$$

deb yoza olamiz. Shunga o'xshash, suyuqlik uchun ham

$$VD - V\lambda = M_1 - m - \frac{M_1 - m}{\Delta}$$

yoki

$$V(D - \lambda) = (M_1 - m)(1 - \frac{\lambda}{\Delta}) \quad (5)$$

shartni yoza olamiz. (4) va (5) tengliklarni hadma - had bo'lib, quyidagi

$$\frac{\sigma - \lambda}{D - \lambda} = \frac{M - m}{M_1 - m}$$

ifodadan

$$D = \frac{M_1 - m}{M - m} (\sigma - \lambda) + \lambda \quad (6)$$

ni hosil qilamiz.

Shunday qilib, (6) formula yordamida suyuqlikning zichligini hisoblash mumkin.

*Ishni bajarish tartibi*

1. Dastlab xonadagi bosim va temperatura aniqlanadi va yozib olinadi.
2. Yaxshi quritilgan piknometrning  $m$  massasi tarozida tortib olinadi (10 marta).
3. Shu piknometrning bo'ynidagi chiziqqa qadar toza suv quyilib, tarozida tortiladi va uni  $M$  bilan belgilanadi (10 marta).
4. Piknometrdagi toza suv idishga quyib qo'yiladi, so'ngra unga tekshiriladigan suyuqlik quyiladi. Uning ham piknometr bilan birgalikdagi massasini tarozida tortib olinadi va  $M_1$  bilan belgilanadi.
5. Jadvallardan muayyan temperaturaga mos  $\sigma$  va  $\lambda$  larning qiymatlarini topib yozib olinadi.
6. (6) formuladagi barcha kattaliklarning qiymatlarini o'rniga qo'yib,  $D$  ning qiymati hisoblanadi.
7. Barcha kattaliklarning qiymatlari 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

Tartib raqami	$M$ , $kg$	$M_1$ $kg$	$m$ $kg$	$\sigma$ $kg/m^3$	$\lambda$ $kg/m^3$	$\rho$ $kg/m^3$	$\Delta\rho$ $kg/m^3$	$E = \frac{\Delta\rho}{\rho} \cdot 100\%$
1								
2								
3								
O'rtacha								

**2-mashq. Qattiq jismlarning zichligini piknometr yordamida aniqlash**

Qattiq jismning zichligini topishda ishning nazariy qismida keltirilgan piknometrlarning hammasidan foydalilanadi. Bunda yana shunga e'tibor berish kerakki, piknometrga suyuqlik quyib, jism solinganda suyuqlik piknometr bo'ynidagi chiziqdandan yuqori ko'tarilmasligi kerak.

Jismning tuzatma kiritilmagan zichligi quyidagiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\rho = \frac{m}{M - M_0 + m} \sigma \quad (7)$$

Qattiq jismning (7) formula yordamida hisoblangan zichligi taqrifiy bo'ladi. Shuning uchun jismni havoda tortganda uning massasi kamayishini ham hisobga olib,  $\rho$  ning haqiqiy qiymatini topishga imkon beradigan formulani keltirib chiqaramiz.

Aytaylik,  $V\rho$  — tekshirilayotgan qattiq jismning haqiqiy massasi,  $V\lambda$  — qattiq jism siqib chiqqargan havoning massasi,  $\frac{m}{\Delta} \lambda$  — qattiq jismni muvozanatlovchi tarozi toshlari siqib chiqqargan havoning massasi,  $\frac{M - M_0 + m}{\Delta} \lambda$  — toza suvni muvozanatlovchi toshlar siqib chiqqargan havoning massasi bo'lsin. Qattiq jism havoda tarozida tortilganda quyidagi muvozanatlik sharti bajarilishi kerak:

$$V\rho - V\lambda = m - \frac{m}{\Delta} \lambda \quad (8)$$

dan

$$V(\rho - \lambda) = m(1 - \frac{1}{\Delta} \lambda) \quad (9)$$

Bu formulani suv uchun yozamiz:

$$V(\rho - \lambda) = (M - M_0 + m)(1 - \lambda)$$

(8) va (9) tengliklarni hadma-had bo'lib,

$$\frac{\rho - \lambda}{\sigma - \lambda} = \frac{m}{M - M_0 + m}$$

ni hosil qilamiz. Bundan

$$\rho = \frac{m}{M - M_0 + m} (\sigma - \lambda) + \lambda \quad (10)$$

ishchi formula hosil bo'ladi.

#### *Ishni bajarish tartibi*

1. Qattiq jismning massasini ( $m$ ) tarozida tortib oling.
2. Piknometrga toza suv quyib, toza suv bilan piknometrning birgalikdagi massasini ( $M$ ) tarozida tortib oling.
3. Toza suv quylgan piknometrga qattiq jismni soling va jism suvning bir qismini siqib chiqqargach, piknometrning toza suv va qattiq jism bilan birgalikdagi massasini ( $M_0$ ) tarozida tortib oling.
4.  $\sigma$  va  $\lambda$  larning muayyan temperaturaga mos keluvchi qiymatlarini kullanmadagi jadvaldan oling.
5. Kattaliklarning jadvaldan olingan qiymatlarini (10) formulaga qo'yib  $\rho$  ning qiymatini aniqlang.
6. Kattaliklarning topilgan qiymatlarini 2-jadvalga joylashtiring.  
2-jadval

Tartib raqami	$m,$ $kg$	$M,$ $kg$	$M_0,$ $kg$	$\sigma,$ $kg/m^3$	$\lambda,$ $kg/m^3$	$\rho,$ $kg/m^3$	$\Delta\rho,$ $kg/m^3$	$E = \frac{\Delta\rho}{\rho} 100\%$
1.								
2.								
3.								
O'rtacha								

### SINOV SAVOLLARI

1. Moddalarni zichligini aniqlash usulini dunyoda kim birinchi aniqlagan?
2. Moddaning zichligi deganda nimani tushuniladi?
3. Moddaning solishtirma og'irligi deb nimaga aytildi, uning zichlikdan farqi nimada?
4. Moddaning zichligi va solishtirma og'irligi haroratga qanday bog'langan va ular qanday o'lchamlikka ega ?
5. Piknometr nima va uning vositasida suyuqliklarning zichligi qanday aniqlanadi?
6. Piknometr yordamida qattiq jismlar zichligi va solishtirma og'irligi qanday aniqlanadi?
7. Nima uchun jism zichligini piknometr yordamida aniqlashda  $\rho = m/v$  ifodadan to'g'ridan to'g'ri foydalanib bo'lmaydi? Tuzatmalarining mohiyatini tushuntiring.
8. Nima uchun qattiq jismning (7) ifoda yordamida hisoblangan zichligi taqribiy bo'ladi? Tuzatmaning mohiyatini tushuntiring.

### ADABIYOTLAR

1. K.F. Parpiyev. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. T., 1978, 42-48 betlar.
2. I.V. Savylyev. Umumiy fizika kursi I-jild. T., "O'qituvchi", 1973.
3. S. P. Strelkov. Mexanika. T., 1977
4. V.I. Iveronova tahriri ostida Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulyar fizika., T., "O'qituvchi", 1973.

## **4 - LABORATORIYA ISHI**


### **AYLANAYOTGAN JISM UCHUN DINAMIKANING ASOSIY QONUNINI TEKSHIRISH (OBERBEK MAYATNIGI)**

**Ishning maqsadi:** Oberbek mayatnigida aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini eksperimental tekshirish.

- Kerakli asbob va materiallar:**
1. Oberbek mayatnigi
  2. Elektr sekundomer
  3. Shtangensirkul
  4. Chizg'ich
  5. Massasi ma'lum yuklar to'plami

#### **NAZARIY QISM**

Aylanish o'qiga mahkamlanib, aylanma harakatlanayotgan qattiq jism tezligi, aylanish o'qiga nisbatan tik joylashgan tekislikdagi kuchning tangensial tashkil etuvchisi, jismga ta'sir etishi tufayli o'zgaradi (1-rasm).



1-rasm. Aylanayotgan qattiq jism

$$M = F \cdot l \quad (1)$$

Kuch momentining vektor yo'naliishi o'ng parma qoidasi yordamida aniqlanadi. Kuch momenti vektori  $\bar{M} = [\bar{F} \cdot \bar{l}]$  formula bilan ifodalanadi. Aylanma harakatlanayotgan jism burchakli tezlanishi faqat uning massasiga emas, balki aylanish o'qiga nisbatan massaning taqsimlanishiga ham bog'liq. Shuning uchun aylanma harakat dinamikasida massa o'rnida jism inersiya momenti ishlataladi. Qattiq jismni moddiy nuqtalar to'plamidan iborat deb qaralsa bo'ladi. Moddiy nuqta massasini undan aylanish o'qigacha bo'lgan masofa kvadratiga ko'paytmasini skalyar qiymati moddiy nuqtaning o'sha o'qqa nisbatan inersiya momenti deyiladi.

$$J_{\text{mod.nuqta}} = \Delta m_i r_i^2 \quad (2)$$

Qattiq jismni tashkil etuvchi moddiy nuqtalarni aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentlarining yig'indisiga jismning shu o'qqa nisbatan inersiya momenti deyiladi.


$$J_j = \sum_{i=1}^n J_{\text{nuqta}} = \sum_{i=1}^n \Delta m_i \bar{r}_i^2 \quad (3)$$

Aylanayotgan jism burchakli tezlanishi jismga tasir etuvchi kuch momenti va jism inersiya momentiga (aylanish ro'y berayotgan o'qqa nisbatan) bog'liqligi aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi bilan aniqlanadi.

$$M = J \cdot \varepsilon \quad (4)$$

## QURILMANING TUZILISHI

Ushbu ishning asosiy maqsadi - aylanma harakat dinamikasi asosiy qonunining Oberbek mayatnigida bajarish va uni tekshirishdir (2-rasm). Ikkilanma shkivga mahkamlangan ikkita sterjen qurilmaning aylanuvchi qismini tashkil etadi (shkiv radiuslari  $R, r$ ). Gorizontal joylashtirilgan shkif o'qiga podshipnik biriktirilgan. Shkivga o'ralgan ipning taranglik kuchi tasirida asbob aylanadi. Bu aylanuvchi moment hosil etadi.



2-rasm. Qurilma tuzilishi

Qurilmaaylanuvchiqismininginersiyamomentinio'zgarmashisoblab  
aylanfiruvchimomentini  $(M)$   
aylanmaharakatdinamikasiningasosiyqonunigamuvofig,  
burchaklitezlanishaylanfiruvchimomentgaproporsionalbo'lshikerak:  $(M \sim \varepsilon)$ ,

$(J=\text{const})$   
o'zgartirganvaqtda,

Ipning bo'sh uchiga osilgan har xil massali yuklar yordamida ipning taranglik kuchini o'zgartirish mumkin.

Aylanish o'qiga nisbatan sistema inersial momentini sterjenga mahkamlangan yuklarni siljitim yordamida o'zgartirish mumkin. Aylanayotgan jismlar uchun dinamikaning asosiy qonunini quyidagicha tekshirish mumkin.

$$\frac{\mathbf{M}_1}{\varepsilon_1} = \frac{\mathbf{M}_2}{\varepsilon_2} = \frac{\mathbf{M}_3}{\varepsilon_3} = J \quad (5) \text{ bo'ladi.}$$

Aylantiruvchikuchmomentiniiptarangligikuchinishkivradiusigako'paytirish  
orqalaniqlanadi, chunkiushbuholdaipo'ralganshkivradiusikuchyelkasidir.  
Yuk tekis tezlanuvchan tushgan ( $P=mg$ ) vaqtidagi ipning taranglik kuchi

$$F=mg-ma \quad (6)$$

tenglamadan aniqlanadi.

Bu yerda  $a$  - yuk tushishdagi tezlanishi  
 $m$  - ipga osilgan yuk massasi

Shunday qilib kuch momenti

$$M=m(g-a)R \quad (7)$$

Tushayotgan yuk tezlanishini shkala bo'yicha yuk bosib o'tgan masofa ( $h$ ) dan va uning tushish vaqtidan (elektr sekundomer bilan o'lchab) osongina aniqlash mumkin:

$$h=\frac{at^2}{2} \quad \text{dan} \quad a=\frac{2h}{t^2} \quad (8)$$

ni topamiz.

Mayatnik aylanishidagi burchakli tezlanishini

$$\varepsilon=\frac{a}{R} \quad (9)$$

dan foydalanib hisoblash mumkin.

Shunday qilib, (3) qonunni tekshirish uchun (6) tenglama to'g'rilingini isbotlash, yani mayatnik inersiya momentini hisoblash kerak:  $J=\frac{m}{\varepsilon}$

Bu yerda  $M = m(g - \alpha)R = m(g - \frac{2h}{t^2})R$  (10)

$$\varepsilon = \frac{\alpha}{R} = \frac{2h}{t^2 R}$$
 (11)

ni etiborga olinsa:

$$J = \frac{M}{\varepsilon} = \frac{mR(g - \frac{2h}{t^2})}{2h/t^2 R} = mR^2(\frac{gt^2}{2h} - 1)$$
 (12)

formulada  $m$  - ipga osilgan yuk massasi

$R$  - shkiv radiusi

$h$  - yuk bosib o'tgan masofa

$t$  - yuk tushish vaqtি

$g$  - erkin tushish tezlanishi

Hamma hisoblar xalqaro birliklar sistemasi "SI" da olib boriladi.

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

- Mayatnikni farqsiz muvozanat holatiga keltiriladi.
- Shkiv diametrining uch xil yo'nalishida ipsiz va ip o'ralganda o'lchanadi. Olinadian qiyatlardan diametrning o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi.
- Shkivga ipni o'rang va krestovinani ushlab turib ip uchiga yuk osiladi.
- Yuk osilgan tekislik pastki qismini poldan ma'lum balandlikka ( $h$ ) joylashtiriladi va sterjenni erkin holda harakatga keltirib tushiriladi, shu vaqtida sekundomer yurgiziladi.
- Yuk polga urilgan vaqtida sekundomer to'xtatiladi va uni tushish vaqtি hisobi olinadi.
- Yukni o'zgartirmay tajriba uch marta takrorlanadi va o'lchanadian balandliklar, vaqlarni o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi.
- Shu usulda  $m_2$  va  $m_3$  massali yuklar uchun tushish vaqtি ( $t$ ) topiladi.
- Olinadigan natijalar jadvalga yoziladi.
- Olinadigan o'lchovlar yordamida (10) tenglamadan kuch momenti, (11) tenglamadan burchakli tezlanish va (12) tenglamadan inersiya momentlari hisoblanadi va natija jadvalga yoziladi.

#### KUZATISH JADVALI

Nº	$R_{o'rt}$	$m$	$h$	$T$	$\varepsilon$	$M$	$J$	$\Delta J$	$E_J$
1									
2									
3									

#### SINOV SAVOLLAR

- Aylanish o'qiga nisbatan kuch momenti deb nimaga aytilati?
- Jism inersiya momenti nimalarga bog'liq, aylanma harakatda u qanday vazifani bajaradi?
- Ushbu ishda yuk ilgarilanma harakatidagi tezlanishi qanday aniqlanadi?
- Ushbu ishda asbob o'qiga nisbatan ip taranglik kuchi momenti va burchakli tezlanishi qanday hisoblanadi?
- Qattiq jism aylanma harakatlanganda burchakli tezlanishi, inersiya momenti, kuch momentlari orasida qanday bog'lanish bor?

6. Oberbek mayatnigida yuk qaysi holatda tursa inersiya momenti maksimal va uning qaysi holatida inersiya momenti minimal qiymatlarga erishadi?

## 5 - LABORATORIYA ISHI

### AG'DARMA MAYATNIK YORDAMIDA OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Ag'darma mayatnik yordamida og'irlilik kuchi tezlanishini o'lchash.

**Kerakli asbob va materiallar:** 1. Ag'darma mayatnik

2. Sekundomer

3. Chizg'ich

#### NAZARIY QISM

Og'irlilik kuchi maydonida kichik amplituda bilan tebranayotgan matematik mayatnik

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}} \quad (1)$$


tenglikdan aniqlanadigan davrga egadir. Bu yerda

$l$  - matematik mayatnik uzunligi

$T$  - tebranish davri, ya'ni bir marta to'liq tebranishga ketgan vaqt

$g$  - og'irlilik kuchi tezlanishi

$F_t$  - ipning taranglik kuchi.



1-rasmdan ko'rinishicha og'irlilik kuchining ( $R$ ) tashkil etuvchisi

$$F_t = P \sin \alpha \quad (2)$$

ga teng bo'lib, mayatnikni muvozanat holatiga qaytaradi.

Og'irlilik maydonida tebranayotgan fizik mayatnik tebranish davri

1-rasm. Mayatnik

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{J}{mgd}} \quad (3)$$

tenglama bo'yicha aniqlanadi.

Bu yerda  $d$  - aylanish o'qidan og'irlilik markazigacha ( $S$ ) bo'lgan masofa


$m$  - mayatnik massasi

$J$  - mayatnik inersiya momenti

Mayatnik inersiya momenti ( $J$ ), tebranish davri ( $T$ ) aylanish o'qidan og'irlilik markazigacha bo'lgan masofani ( $d$ ) o'lchanadiandan so'ng (3) tenglama yordamida og'irlilik kuchi tezlanishini hisoblash mumkin. Murakkab shakldagi jism inersiya momentini aniq hisoblash ancha qiyin. Fizik

mayatnik tebranish davri kabi davr bilan tebranayotgan matematik mayatnik uzunligi, ya'ni mayatnikning keltirilgan uzunligi tushunchasini kirtsak, u holda (1) formula

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad (4)$$



2-rasm. Tebranayotgan jism


Mayatnik davri ( $T$ ) va keltirilgan uzunligi ( $L$ ) o'lchansa (4) formuladan og'irlilik kuchi tezlanishini topish mumkin . Ushbu ishda ag'darma mayatnikdan foydalaniladi. Oddiy ag'darma mayatnik (3-rasm) ikkita posangi va ikkita tayanch prizmali (mayatnik osiladigan nuqtalar) sterjendan iborat.

Mayatnikni birinchi va ikkinchi tayanchlarga osib uni ikkala holda ham bir xil davr bilan tebranishini o'lhash jarayonidagi prizma va posangilarni holatini belgilab olish kerak.

Agarda mayatnik keltirilgan uzunligi uni prizma qirralari orasidagi masofasiga teng bo'lib, uni haqiqiy tebranish davri ( $T$ ) bo'lsa ham, mayatnikning ikkita tayanchiga qo'yib (ya'ni ikkala o'q bo'ylab ) tebratilganda davrlari turlicha ( $T_1$  va  $T_2$ ) ga teng bo'lib, ularga  $L$  dan farqli  $L_1$  va  $L_2$  keltirilgan uzunliklar mos keladi. Ularga mos tengliklarni qo'yidagicha yoza olamiz:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} ; \quad T_1 = 2\pi \sqrt{\frac{L_1}{g}} ; \quad T_2 = 2\pi \sqrt{\frac{L_2}{g}}$$

Yuqoridaqgi qiymatlarni kvadratga oshirib so'ngra birinchi tenglikni keyingilariga alohida-alohida bo'lsak,



3- rasm. Ag'darma mayatnik

$$LT_1^2=L_1T^2, \quad LT_2^2=L_2T^2 \quad (5)$$

ga erishamiz. Shteyner teoremasini  $L_1, L_2$  uchun qo'llab

$$L_1 = \frac{J_1}{ml_1} = \frac{J_0 + ml_1^2}{ml_1} = \frac{J_0}{ml_1} + l_1$$

$$L_2 = \frac{J_2}{ml_2} = \frac{J_0 + ml_2^2}{ml_2} = \frac{J_0}{ml_2} + l_2$$

nisbatlarni yoza olamiz.

$$L = l_1 + l_2 - \text{prizmalar orasidagi masofa}$$

Bu qiymatlarni (5) tenglikdagi  $L_1$ ,  $L_2$  va  $L$  o'rniga qo'yib

$$(l_1 + l_2)T_1^2 = (l_1 + \frac{J_0}{ml_1})T^2$$

$$(l_1 + l_2)T_2^2 = (l_2 + \frac{J_0}{ml_2})T^2$$

ga ega bo'lamiz

$$\frac{J_0}{m} \text{ ga qisqartirsak}$$

$$l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2 = (l_1 - l_2)T \quad \text{ko'inishga ega bo'ladi va}$$

$$\text{undan} \quad T = \frac{l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2}{l_1 - l_2} \quad (6)$$

(4) tenglikni ( $g$ ) ga nisbatan yechib va unga topilgan  $T$  ni qiymatini qo'ysak, ya'ni

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad \text{dan} \quad g = \frac{4\pi^2 L}{T^2} \quad \text{yoki}$$


$$g = \frac{4\pi^2 L(l_1 - l_2)}{l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2} \quad (7)$$

Ag'darma mayatnik tebranish davrining taqribiyligi qiymati uchun (7) tenglama bilan oson va katta aniqlikda ( $g$ ) ni hisoblash mumkin.

#### **QURILMANING TUZILISHI**

Ag'darma mayatnik – sterjenga (A) mustahkam mahkamlangan ikkita prizma (D) va ikkita porsangilardan iborat. (C) porsangi prizmalar orasida joylashgan, ikkinchi porsangi (B) esa sterjen uchiga joylashhib, noniusli shkala bo'yicha siljiydi va vint orqali kerakli holatda mahkamlanadi. Prizmalar orasidagi masofa mayatnik tebranishida uni amplitudasi  $5^\circ$  dan oshmasligi kerak, mayatnikning birinchi va ikkinchi prizmalarga osib 50-100 ta tebranish uchun  $T_1$  va


$$T_2 \text{ tebranish davrlari topiladi: } T_1 = \frac{t_1}{n_1} \quad T_2 = \frac{t_2}{n_2} \quad (8)$$



#### 4-rasm. Qurilma tuzilishi

bu yerda  $t_1$ - birinchi prizmaga nisbatan  $n_1$  ta tebranishlar uchun ketgan vaqt,  $t_2$ - ikkinchi prizmaga nisbatan  $n_2$  ta tebranishlar uchun ketgan vaqt.

$l_1$  va  $l_2$  masofalarni aniqlash uchun mayatnikni asta olib qirrali taglik ustiga qo'yiladi va muvozanat holatiga erishiladi. Muvozanat holatidagi qirra bilan tayanch prizmalargacha bo'lgan masofalar  $l_1$  va  $l_2$  ni beradi (5-rasm). Masofalar chizg'ich bilan 1 mm aniqlikkacha o'lchanadi.



5-rasm.

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Mayatnikni qirrali tayanchga gorizontal joylashtirib muvozanat holatiga keltiriladi,  $l_1$  va  $l_2$  masofalar o'lchanadi hamda  $L = l_1 + l_2$  jadvalga yoziladi.
2. Mayatnikni ( $D_1$ ) prizmaga osib, kichik amplitudali tebranma harakatga keltiriladi.  $n_1$  ta tebranishga ketgan  $t_1$  vaqt o'lchanadi va  $T_1 = \frac{t_1}{n_1}$  ni hisoblab jadvalga yoziladi.
3. Mayatnikni ( $D_2$ ) prizmaga osib yuqoridagi tajriba takrorlanadi va  $T_2 = \frac{t_2}{n_2}$  hisoblab jadvalga yoziladi.
4. (7) formula bo'yicha og'irlilik kuchi tezlanishi hisoblanadi va jadvalga yoziladi.

#### KUZATISH JADVALI

Nº	$l_1$	$l_2$	$L$	$T_1$	$T_2$	$g$	$\Delta g$	$E_g$

#### SINOV SAVOLLAR

1. Fizik mayatnik deb nimaga aytildi?
2. Fizik mayatnik keltirilgan uzunligi deb nimaga aytildi?
3. Shteyner teoremasini aytib bering va formulasini yoziladi?
4. Og'irlilik kuchi tezlanishini ag'darma mayatnik bilan o'lhashda qanday afzalligi bor?
5. Fizik va matematik mayatnikning tebranish davrlari formulalarini yozib bering.


**6-LABORATORIYA ISHI**  
**SUYUQLIKLARNING SIRT TARANGLIK KOEFFISIENTINI TOMCHI USULI**  
**YORDAMIDA ANIQLASH.**

**Ishdan maqsad:** Suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini turli xil usullar bilan laboratoriya sharoitida aniqlab, suyuqlikning tuzilishi, uning sirtida sodir bo'luvchi hodisalar haqidagi bilimlarni mustaxkamlash.

**Kerakli asboblar:** Jumrakli byuretka – 2 ta, stakancha 2 ta, tekshiriladigan suyuqlik: gilitserin va suv.

**NAZARIY QISM.**

Suyuqliklarning tuzilishi shuni ko`rsatadiki, molekulalar orasidagi o`rtacha masofa



3,1-rasm

$3 \cdot 10^{-10} - 8 \cdot 10^{-10}$  m orasida bo`lib, ularning molekulyar ta'sir radiusi  $\sim 10^{-10}$  m ga teng. Suyuqlik ichidagi molekula hamma tomondan boshqa molekulalar bilan o`ralgan bo`lib chekli vaqt oralig`ini olib qaralganda, u xolda yo`nalishlar bo`ylab deyarli bir xil ta'sirga uchraydi. Suyuqlik sirtidagi molekulalarga esa o`zidan chuqurroqda va yon tomonlarida yotgan molekulalargina ta'sir qiladi. Shuning uchun bunday molekulalarga ularni ichkariga normal yo`nalgan kuch ta'sir qilib turadi. Bundan ko`rinadiki, suyuqlikning taxminan  $10^{-9}$  m qalinlikdagi sirt qatlami alohida xolatda turar ekan. Molekulalar bu qatlama qattiq jismdagiga o`xshab ma'lum tartib bilan joylashgan bo`lib, xuddi shu qatlama sirt tarangligi vujudga keladi. Sirt taranglik kuchi xamma vaqt suyuqlik yuzasiga urinma bo`lgan tekislikda yotadi va uning erkin yuzasini chegaralovchi chiziqqa tik yo`nalgan bo`lib, suyuqlik yuzasini qisqartirishga majbur etadi. Suyuqlik sirtini chegaralovchi chiziqning uzunlik birligiga ta'sir etuvchi kuch sirt taranglik koeffitsiyenti deyiladi. Agar sirt taranglik kuchini F, suykliq yuzasini chegaralovchi chiziqning uzunligini desak, sirt taranglik koeffitsiyenti

$$\alpha = \frac{F}{l} \quad (1)$$

formula bilan ifodalanadi. (1) bilan chegaralangan sirtni molekulalar orasidagi bog`lanish energiyasi tarang xolda saqlab turadi. Bu sirtning yuza birligiga mos kelgan energiya son jihatdan sirt taranglik koeffitsiyentiga tengdir. Turli suyukliklarning tuzilishi bir-biridan farqli ekanligidan ularning sirt taranglik koeffitsiyentlari xam turlicha bo`ladi. Sirt taranglik suyuqlik va uning to`yingan bug`ning zichliklari ayirmasining to`rtinchi darajasiga proporsional ekanligi aniqlangan,

$$\alpha = c(\rho_s - \rho_{bug})^4 \quad (2)$$

bu yerda  $c$  – proporsionallik koeffitsiyenti. Turli suyukliklarning sirt tarangligi temperatura ortganda quyidagi qonun buyicha kamayadi:

$$\alpha = \frac{\kappa}{V^{\frac{2}{3}}} (T_{kr} - T) \quad (3)$$

bu yerda  $V$  – suyuqlikning molekulyar hajmi.  $T_{kr}$  – kritik temperatura,  $k$  – doimiy kattalik bo`lib belgilanadi.

### **Asbobning tuzilishi va o'lchash usuli.**

Tajribada tomchi ajralib tushish vaqtida uni ajralib tushishga majbur etgan kuchni aniqlashdan iboratdir. Bu kuch tomchini ushlab turgan kuch bilan qarama – qarshi yo`nalishda bo`lib son jihatidan unga teng bo`ladi. Tomchi ushlab turgan va uni uzilib tushishga majbur etgan kuchlarni bilgan xolda suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlasa bo`ladi.

$$\mathbf{R} = \mathbf{F} \quad (4)$$

Bunda:  $\alpha$ - sirt taranglik koeffitsiyenti,  $r$ - tomchini uzilish joyidagi bo`yining radiusi.

Amalda 40 – 50 tomchining og`irligini tarozida tortib, so`ng bitta tomchi uchun  $P_0$ ning qiymatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buni barcha tomchining og`irligidan  $P=mg=nP_0$ aniqlaymiz.

$$P_0 = m_0 g = \frac{m}{n} g = \frac{\rho V g}{n} \quad (5)$$

$n$  – tomchilar soni,  $m$  – barcha tomchining massasi,  $V$  – 1 ta tomchining hajmi.

Tomchida hosil bo`lgan sirt taranglik kuchi  $F=2\pi r \alpha b o`l shini$  hisobga olib, 4- shartga asosan quyidagi munosabatni olamiz.  $2\pi r \alpha = \frac{\rho V g}{n} \quad (6)$

Yuqoridagi ifodadan ko`rinadiki, tomchi bo`yining radiusini aniqlash qiyin bo`lganligi uchun uni o`lchamasdan ham suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini hisoblash mumkin. Bu xolda taqqoslash metodidan foydalaniladi. Buning uchun ikki xil suyuqlik olamiz. Ulardan birining zichligi  $\rho_1$ sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha$ , ikkinchi suyuqlikning zichligi  $\rho_1$ va sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha_1$ bo`lsin, Ikkala suyuqlikdan bir xil hajmda  $V$  suyuqlik olib, ulardagи tomchilar soni  $n$ va  $n_1$  lar sanaladi.

U xolda birinchi suyuqlik uchun,  $2\pi r \alpha = \frac{\rho V g}{n}$  (6)

Ikkinci suyuqlik uchun esa,  $2\pi r \alpha_1 = \frac{\rho_1 V g}{n_1}$  (7) tenglik o`rinli.

Xadma-xad (6) va (7) ni bo`lsak  $\frac{\alpha}{\alpha_1} = \frac{n_1}{n} \cdot \frac{\rho}{\rho_1}$  nisbatini hosil qilamiz.

Bundan sirt taranglik koeffitsiyenti noma'lum bo'lgan suyuqlik uchun  $\alpha$ ni topamiz:

$$\alpha = \alpha_1 \frac{n_1}{n} \cdot \frac{\rho}{\rho_1} \quad (8)$$

bu tengliklardan ko`rinadiki, suyuqliklarning zichligi va suyuqliklardan birining sirt taranglik koeffitsiyenti ma'lum bo`lsa, ikkinchi suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlash mumkin bo`ladi.

### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Tekshiriladigan suyuqliklar sifatida sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha$  noma'lum bo'lgan suyuqlik glitserin ( $\rho=1200 \text{ kg/m}^3$ ) va sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha_1$  ma'lum bo'lgan suyuqlik svnvi ( $\rho_1=1000 \text{ kg/m}^3$ ,  $\alpha_1=0,073 \text{ N/m}$ ) olish mumkin.

2. Byuretkalardan biriga sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha$  noma'lum bo'lgan suyuqlikdan ma'lum  $V$  hajmda qo`yiladi. Jumrakni ochib, suyuqlikda nechta tomchi  $n$  bo`lishi sanaladi.

3. Byuretkalardan ikkinchisiga sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha_1$  ma'lum bo'lgan suyuqlikdan o'shancha  $V$  hajm qo`yiladi. Jumrakni ochib, suyuqlikda nechta tomchi  $n_1$  bo`lishi sanaladi.

4. Olingan natijalardan foydalanib, (8) formula yordamida suyuqlikning noma'lum sirt taranglik koeffitsiyenti  $\alpha$  hisoblanadi.

5. Tajribadagi  $\Delta\alpha = \alpha - \alpha_j$  - absolyut xatolik va  $\varepsilon = \frac{\alpha - \alpha_j}{\alpha_j} 100\%$  - nisbiy xatoliklar aniqlanadi. Bu yerda  $\alpha$  - tajriba atijasida aniqlangan o'rtacha qiymat,  $\alpha_j$  - sirt taranglik koeffitsiyentining jadvaldan olingan qiymati.

6. O'lchash va hisoblash natijalari jadvalga yoziladi.

Nº	n	$\Delta n$	$n_1$	$\Delta n_1$	$\alpha$ (N/m)	$\Delta\alpha$ (N/m)	$\varepsilon = \frac{\Delta\alpha}{\alpha} \cdot 100\%$
1							
2							
3							

o'rt.q							
--------	--	--	--	--	--	--	--

### **Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.**

- 1.Suyuqlikda molekulalarning harakati qanday bo`ladi?
- 2.Tashqi kuchlar bo`lmasganda suyuqlikning shakli qanday bo`ladi?
- 3.Sirt taranglikni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushuntiring?
- 4.Sirt taranglik koeffitsiyenti nima? Uning birligi.
- 5.Xalqaning suyuqlik yuziga tegib turgan sirtiga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Savelyev I.V. “Umumiy fizika kursi”, tom 1-3 , M, Nauka 1989-92 g.
2. Detlaf A.A, Yavorskiy B.M “Kurs fiziki”, Moskva, Vissaya shkola, 1989 g.
3. Trofimova T.I “Kurs fiziki”, Moskva, Vissaya shkola, 1999 g.
4. Sivuxin D.V “Umumiy fizika” Mexanika, Toshkent. O'qituvchi, 1981 y.
4. Haydarova M.Sh, Nazarov U.Q “Fizikadan laboratoriya ishlari”, O'qituvchi, 1989 y.
5. Maysova N. N “Praktikum po kursu obshey fiziki”, Moskva, Vissaya shkola, 1970 g.

### **7-LABORATORIYA ISHI**

#### **HAVONING NISBIY NAMLIGINI AVGUST PSIXOMETRI BILAN ANIQLASH.**

Ishning maqsadi: Psixometr yordamida havodagi nisbiy namlikni aniqlash.

Karakli asbob va materiallar : 1. Avgust psixometri,

2. Barometr.

### **NAZARIY QISM.**

Er atmosferasi tarkibiga suv buglari xam kiradi. Xavodagi suv buglarining mikdori bilan tavsiflanadigan fizik kattalik xavoning namligi deyiladi.

$1\text{m}^3$  xavodagi suv bugining massasi ***absolyut namlik deyiladi***. Absolyut namlikni bilgan xolda shu sharoitda suv bugining tuyinish darajasidan kanchalik uzok ekanligini binobarin suvning buglanishi

yoki kondensatsiyalanishi intensivligi tugrisida biror fikr aytib bulmaydi. Buning uchun nisbiy namlik degan kattalikni bilish kerak.

Muayyan bir temperaturada xavo absolyut namligining shu temperaturada  $1\text{m}^3$  xavoni tuyintirish uchun zarur bulgan suv bugi massasiga nisbati bilan aniklanadigan  $f$  kattalik nisbiy namlik deyiladi. Ukuyidagicha ifodalanadi, ya'ni:

$$f = \frac{\rho}{\rho_0}$$

## YOki foizlarda

$$f = \frac{\rho}{\rho_0} \cdot 100\% \quad (1)$$

Xavodagi suv bugi elastikligi deyilganda, xavodagi suv bugining parsial bosimi tushuniladi.

Tirik organizmlarning tuproknинг namlikni yukotishi nisbiy namlikka boglik. Inson uzini yaxshi xis kilishi uchun nisbiy namlik 60 – 70% atrofida bulishi kerak. Namlikni aniklash uchun Avgust psixrometridan foydalilanadi. Psixrometr ikkita bir xil termometrdan iborat bulib ulardan birining uchiga rezervuardagi suvga botirib kuyilgan mato uralgan. Xavo suv buglari bilan tuyinmagan bulsa matodagi suv buglanadi. Va termometr rezervuari soviydi. Natijada termometr past temperaturani kursatadi. CHunki nisbiy namlik kichik bulganda suv bugi tuyinishdan uzok bulgani uchun xul termometr xam past temperaturani kursatadi.

Nisbiy namlik oshib borgani sari buglanish kamayadi. Va xul termometrning kursatishi kuruk termometrnika yakinlashadi. Nisbiy namlik 100% bulganda, suv umuman buglanmaydi. Va xul termometrni bilan bir xil buladi. Ikkala termometr kursatishlarining ayirmasiga karab psixrometrik jadval yordamida xavoning nisbiy namligini aniklash mumkin.

(1) ifodaga kura absolyut namlik kuyidagicha aniklanadi, ya'ni

$$\rho = f\rho_0 \frac{1}{100\%} \quad (2)$$

Bu erda  $\rho_0$  – ma'lum temperaturadagi xavoning  $1\text{m}^3$  xajmdagi tuyintirish uchun zarur bulgan suv bugining massasi

Biz idish kuyilgan suyuklik sirtining suyuklik bilan idishning kattik devorlari orasidagi chegara yakinida ya'ni suyuklik molekulalari bilan kattik jism molekulalari orasidagi Uzaro ta'sir kuchlari sezilarla rol uynaydigan joyda biror egrilikka ega bulishini kurdik. Sirtning kolgan kismlari yassi buladi, chunki bu kismida ogirlilik kuchi molekulyar uzaro ta'sir kuchlarini engadi. Birok sirtning umumiyligi kattaligi uncha katta bulmasa, masalan, suyuklik tor idishga kuyilgan bulsa, devorlarning ta'siri suyuklikning butun yuziga yoyiladi va suyuklik uzining butun sirti buylab egrilanadi. Agar suyuklik kuyilgan idishning ulchamlari, yoki yanada umumiyrok xolda suyuklikni chegaralovchi sirtlar orasidagi masofa suyuklik sirtining egrilik radiusi bilan takkoslanarli bulsa u xolda bunday idishlar kapillyar idishlar deyiladi. Bunday idishlarda buladigan xodisalar **kapillyar xodisalar deyiladi**.

Kapillyarlik bilan boglik bulgan eng xarakterli xodisalarni kuraylik. Kapillyar idishlar uchun avvalo ularda suyuklik sirtining egri bulishi xarakterli bulgani uchun, tabiiyki, bu erda sirtning egriligi tufayli xosil bulgan kushimcha bosimning ta'siri katta buladi. Bunday kushimcha bosimning bevosita

natijasi kapillyiar kutarilish deb nomlangan xodisadir. 1- rasmida suyuklikli keng idishga tushurilgan ingichka naycha tasvirlangan . Naychaning devorlari suyuklik bilan xullanadi deb faraz kilaylik . U xolda naychaga kirgan suyuklik botik menisk xosil kiladi. Naycha shunchalik ingichkaki uning r radiusi meniskning  $r_0$  radiusiga teng bulsin. Sirtning egriligidan xosil bulgan bosim tufayli naychani tuldirgan suyuklik meniskning egrilik markaziga ya’ni yukoriga karab yunalgan p bosim ta’sirida duch keladi. Bu bosim  $2\sigma/r_0$  ga teng buladi. Bu erda  $r_0$  – menisk radiusi  $\sigma$  suyuklikning sirt taranglik koeffitsienti. Bu bosim ta’sirida suyuklik nay buylab h satxga kutariladi, bu satxda shu balandlikdagi suyuklik ustunining pgh gidrostatik bosimi p bosimni muvozanatlaydi. Binobarin , kuyidagi

$$\frac{2\sigma}{r} = \rho gh \quad (1)$$

Tenglik muvozanat sharti buladi. Bu erda  $\rho$  – suyuklikning zichligi ,  $g$  – ogirlik kuchining tezlanishi. Bu tenglik kapillyarda suyuklikning kutarilish balandligini ifodalaydi.

Kutarilish balandligi h bilan naychaning radiusi r orasidagi boglanishni aniklash kiyin emas. Buning uchun 2 – rasmga murojaat kilaylik. Bu rasmida menisk va kapillyar yirik masshtabda tasvirlangan. Menisk bir kismini tashkil kilgan sferaning markazi O nuktada buladi . suyuklikning kapillyar devorlari Bilan tegishuvchi chegaraviy burchagi  $\theta$  ga teng. CHizmadan

$$r_0 = r/\cos \theta \quad \text{ekanligi bevosita kelib chikadi. SHuning uchun } \frac{2\sigma}{r} = \rho gh \quad \text{tenglik}$$

$$\text{kuyidagi kurinishda kayta yoziladi. } \frac{2\sigma \cos \theta}{r} = \rho gh \quad \text{bundan} \quad h = \frac{2\sigma \cos \theta}{\rho gr}$$

Jumladan, kapillyar devorini batamom xullaydigan binobarin  $\theta = 0$  va  $\cos\theta = 1$  bulgan suyuklik uchun kuyidagiga ega bulamiz:

$$h = \frac{2\sigma}{\rho gr} \quad (2)$$

Kutilganidek , kapillyarda suyuklikning kutarilish balandligi , kapillyar radiusining kamayishi va sirt taranglik koeffitsientining kattalashtirishi Bilan ortib boradi.

Agar suyuklik , kapillyarni xullamasa manzara aksincha buladi. CHunki endi menisk kavarik buladi. Egrilik radiusi esa tashkarida emas, balki suyuklik ichida buladi .

Xammaga ma'lum bulgan bir kator xodisalar ingichka egri bugri shakldagi govaklari bulgan bosma kogazning suyuklikni shimb olishi .

Kapillyar kutarilishni, albatta silindrsimon , kapillyarlardan boshka kurinishda xam kuzatish mumkin. Suyuklik bir – biriga juda yakin keltirilgan ikkita plastinka orasida xam yukori kutariladi. Agar plstinkalar bir – biriga parallel bulsa u xolda menisk silindrsimon shaklda buladi. Bu xolda , kapillyar kutarilishning balandligi kuyidagi formula orkali aniklanadi.

$$h = \frac{2\sigma \cos \theta}{\rho g d} \quad (3)$$

Bu erda  $d$  – plastinkalar orasidagi masofa. (3) formula (1) ning uzi bulib chikadi. Fakat silindrik sirt ostida suyuklikning  $\sigma/R$  ga teng bosim ta'sirida bulishini nazarda tutish kerak. Bu erda  $R$  menisk radiusi bulib plastinkalar orasidagi  $d$  masofa bilan shunday munosabat orkali boglangan:

$$R = \frac{d}{2 \cos \theta} \quad (4)$$

(3) formula kuyidagi oddiy demonstratsion tajriba bilan kursatiladi. Ikkita tozalab yuvilgan shisha plastinkani ponasimon shaklda xosil kiladigan kilib joylashtiriladi va uni suvgaga tushiriladi. Suv toza shishani xullaydigan bulgani uchun yukoriga kutariladi. Birok kutarilish balandligi (3) formulaga muvofik plastinkalar orasidagi masofa ortgan sari kamayib boradi. Pona kirrasidan xisoblangan  $x$  masofa ortgan sari bu masofa xam ortib boradi. Agar  $\varphi$  – plastinkalar orasidagi burchak bulsa u xolda plastinkalar orasidagi masofa  $d = \varphi x$  ga teng buladi. SHuning uchun suyuklik satxining  $h$  balandligi  $x$  uzgarish bilan kuyidagicha boglik:

$$h = \frac{2 \cos \theta}{\rho g \varphi x} = \frac{c}{x} \quad (5)$$

formulaga muvofik uzgaradi.

*Asbob uskunalar.* Kulda yasalgan avgust psixrometri , stakan , suv , pilik .

#### ***Ishni bajarish tartibi.***

1. Laboratoriya ishining yuriknomasini ukib urganing.
2. Psixrometr stakanchasiga suv soling va 5- 10 minut kuting.
3. Kuruk va xul termometrlarning  $t$  va  $t_x$  kursatishlarini yozib oling.
4. Kuruk va xul termometrlar kursatishlar farkini xisoblang.
5. Psixrometrik jadvaldan  $t$  ga va xavoning  $t_x$  temperaturasiga mos kelgan nisbiy namlikni xisoblang.
6. (2) ifodadan foydalanim xavoning absolyut namligini xisoblang.
7. Xavoning nisbiy namligi va absolyut namligini temperaturaga boglanish grafigini millimetrik kogozda chizing.
8. Xavoning nisbiy va absolyut namligini kunning vaktiga boglanish grafigini chizing.
9. Asbobning ulchash anikligini xisobga olib xatolikni baxolang.
10. Tajribada aniklangan natijalarni 1- jadvalga kiritning.

Tajriba nomeri	$t_1$	$t_x$						

1.								
2.								
3.								
4.								
Urtacha kiymatlar								

*Nazorat savollari.*

1. Xavoning namligi deb nimaga aytildi.
2. Xavo namligining kanday axamiyati bor.
3. Absolyut va nisbiy namlik tushunchasini ta’riflang.
4. Xavoning namligini aniklash usullari xakida gapirib bering.

**Adabiyotlar .**

1. I.K . Kikoin.A.K.Kikoin. fizika . 8-sinf uchun darslik.M.,1979.
2. Nurmatov va boshkalar. Fizika laboratoriya ishlari – T.,2002.

**8- LABORATORIYA ISHI**

**EGILISH BO’YICHA YUNG MODULINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Egilish elastik deformatsiyasini o’rganish va Yung modulini aniqlash.

- Kerakli asbob va materiallar:**
- 1.Egilish bo’yicha maxsus asbob
  2. Tekshiriladigan nusxalar
  3. Yuklar
  4. Shtangensirkul
  5. Chizg’ich

**NAZARIY QISM**

Jismga tashqi kuch ta’sirida o’z shaklini yoki o’lchamlarini o’zgartirishga deformatsiya deyiladi. Deformatsiya vaqtida jismni tashkil etgan zarralar boshlang’ich muvozanat xolatidan siljib yangi xolatga o’tadi. Bu siljishga zarralar orasidagi o’zaro tortishish kuchlari qarshilik ko’rsatadi. Natijada deformatsiyalanayotgan jismda ichki elastik kuchlar paydo bo’ladi.

Tashqi kuch ta’siri tugagandan keyin jism o’zining avvalgi holatiga qaytsa bu elastik deformatsiya deyiladi. Qattiq jismlar noelastik deformatsiyalanganda, uni kristallik panjaralari o’z holiga qaytib kelmasligi bilan ajraladi. Bu hol qoldiq yoki plastik deformatsiya deyiladi.

Elastik deformatsiyada, tashqi kuchlar hosil bo’lgan ichki kuchlarni natijalovchi jismni istalgan kesimida jismga ta’sir etayotgan tashqi kuch bilan muvozanatlashadi. Shu sababli elastik

deformatsiyada ichki elastik kuchlarni jismga qo'yiladigan tashqi kuch qiymatiga orqali aniqlash mumkin.

Ichki elastik kuch qiymati kuchlanish bilan xarakterlanadi. Yuza birligiga ( $S$ ) ta'sir etayotgan natijaviy elastik kuchga ( $F$ ) kuchlanish deyiladi.

$$\sigma = \frac{F}{S} \quad (1)$$

$N/m^2$  larda o'lchanadi.

Kuch ( $S$ ) yuzaga normal bo'ylab yo'nalgandagi kuchlanishi normal, shu yuzaga urinma bo'ylab yo'nalgandagini tangensial kuchlanish deyiladi. Bir birlik boshlang'ich uzunligi yoki xajmiga to'g'ri kelgan absolyut uzayishiga ( $\Delta x$ ) nisbiy deformatsiya deyiladi.

$$\epsilon = \frac{\Delta x}{x} \quad (2)$$

bu yerda  $\Delta x = |x_1 - x_0|$  jism o'lchami o'zgarishning absolyut qiymati.

Guk tajriba orqali elastik deformatsiyalanganda jismdagi kuchlanish nisbiy deformatsiyaga to'g'ri proporsianalligini aniqlanadi.

$$\sigma = E \cdot \epsilon \quad (3)$$


bu yerda  $E$  – proporsionallik koefitsiyenti bo'lib elastiklik moduli yoki Yung moduli deyiladi.

(3) - formula istalgan ko'rinishdagi elastik deformatsiya uchun Guk qonuni ifodalaydi.

Yung moduli ( $E$ ) har bir modda uchun o'zgarmas bo'lib, uni qiymati faqat deformatsiyalayotgan jism materialiga bog'liq.

Agar  $\epsilon=1$  ga teng bo'lsa, u vaqtida  $\sigma=E$  bo'ladi, ya'ni Yung moduli bir birlik nisbiy deformatsiya hosil etuvchi mexanik kuchlanish son qiymatiga teng.

Deformatsiya kuchlanishiga proporsional bo'lgandagi kuchlanish chegarasi proporsionallik chegarasi deyiladi (A nuqta 1-rasm).



1-rasm. Deformatsiyani kuchlanishga bog'liqligi grafigi

Deformatsiya orttirilganda elastik xarakteri saqlanadi ammo  $\sigma$  va  $E$  orasidagi bog'lanishni ifodalovchi grafik to'g'ri chiziqliligi buziladi. Plastik deformatsiya boshlanguncha bo'lgan eng katta kuchlanish elastiklik chegarasi deyiladi (B nuqta). Elastiklik chegarasi-dan kuchlanish chekli qiymatdan ortsa, jismda qoldiq deformatsiya paydo bo'ladi, ya'ni jismdan deformatsiyalovchi kuch olinadiach, u o'zining dastlabki holiga qaytmaydi.

Plastik deformatsiya oquvchanlik chegarasi bilan xarakterlanadi (D- nuqta). Oquvchanlik chegarasidagi kuchlanishlarda tashqi kuch oshirilmasa ham deformatsiya orta boradi.


Jismning yemirilishigacha (sinishi, uzulishi) bo'lgan eng katta kuchlanishga mustahkamlik chegarasi deyiladi (E – nuqta).

Qattiq jismlar uchun Yung moduli muhim elastik o'zgarmas kattalik bo'lib, uni aniqlash ushbu ishning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu ishda Yung moduli egilish bo'yicha aniqlanadi.

### STERJENNI EGILISHI BO'YICHA YUNG MODULINI ANIQLASH

Jism egilishi yoki siqilishi uni shakli deformatsiyalanganini ifodalaydi. Agar ko'ndalang kesimi to'gri to'rtburchak bo'lgan AB sterjenni ikkita (m va n) prizmalar ustiga qo'yib uning o'rtafiga R kuch bilan ta'sir qilsak, sterjen egiladi (2-rasm, a).

Bu egilishda sterjenning ustki qatlamlari siqilib (2-rasm, v) ostki qatlamlari cho'ziladi. Buning natijasida sterjenni dastlabki holiga qaytaradi-gan elastiklik kuchi ham shuncha katta bo'ladi. O'rtafigagi neytral qatlamdan uzoqlashgan (NN) sari, elastiklik kuchlari ko'paya boradi.




2- rasm. Egilish deformatsiyasi

Egilish masofasi ( $\lambda$ ) egilish deformatsiyasini o'lchami bo'lib, Guk qonuni bo'yicha

$$\lambda = \alpha F \quad (5)$$

bu yerda  $\alpha$  - proporsionallik koeffitsiyentni bo'lib, moddaning elastik xossalariiga, jism o'lchami va ko'ndalang kesimi shakliga bog'liq.



3-rasm. Egilish masofasi.

F – deformatsiyalovchi kuch

$F=mg$   
kattaligi yuk og'irlik kuchi bilan aniqlanadi.  
Bunda  $m$  – yuk massasi,  $g$  – erkin tushish tezlanishi.

Nazariy tomondan

$$\alpha = \frac{l^3}{4Eab^3} \quad (6)$$

l - sterjenning tayanch nuqtalari orasidagi masofa,

$a$  - sterjenning eni

b - sterjenning qalinligi

E - Yung moduli

(6) dagi  $\alpha$  ning qiymatini (5) ga qo'ysak:

$$\lambda = \frac{mgl^3}{4Eab^3} \quad (7)$$

bundan

$$E = \frac{mg l^3}{4ab^3\lambda} \quad (8)$$

bu ishda Yung moduli (8) formula bo'yicha hisoblanadi. Bu kattalikni hisoblash egilish masofasi, sterjen o'lchamlari ( $a, b, l$ ) metrlarda, yuk og'irligi Nlarda olinadi.

Eslatma: (8) formula hisobini osonlashtirish uchun quyidagi ko'rinishda olinadi:

$$E = K \frac{mg}{\lambda} \quad \delta y \quad ep\partial a \quad K = \frac{l^3}{4ab^3}$$


bir marta hisoblanadi.

Hisoblar «SI» birliklar sistemasida olinadi.

### ASBOB TAVSIFI

#### 1—Qurilma.

Bu asbob mustahkam to'g'ri burchakli yog'och ramkadan iborat (4- rasm).



4-rasm. Asbob tuzilishi

Ramkaning (1) vertikal ustunchalariga bir – biriga parallel va bir xil balandlikda uch qirrali ikkita metall prizmalar (2) tik o'rnatilgan, bu prizmalar ustiga tekshiriladigan nusxa qo'yiladi (to'g'ri burchakli kesimga ega bo'lgan sterjen 3).

Ramkaning gorizontal yuqori tomoni o'rtaligida (3) qismiga metalldan yasalgan kesma va noniusga ega mufta (4) o'rnatilgan. Mufta bo'ylab millimetrik bo'linmalarga ega bo'lgan kichik sterjen bemalol harakatlana oladi. Sterjen ustki qismiga yuklar qo'yish uchun metall stolcha pastki uchiga uch qirrali metall prizma (6) o'rnatilgan.

Tayanch prizmalar (2) parallel qilib o'rnatilgan. Bu prizma qirrasi tekshiriladigan jismga (3) tegib turadi. Nonius har bir yuk (F) qo'yilgandagi egilish masofasi ( $\lambda$ ) o'lchash uchun ishlatiladi.

### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Shtangensirkul bilan «a» va «b» larni kamida 5 marta har xil joyidan o'lchanadi va ularning o'rtachasini jadvalga yoziladi.
2. Prizma qirralari orasidagi masofa ( $l$ ) o'lchanadi va jadvalga yoziladi.
3. Tekshiriladigan sterjenni tayanch prizmalar ustiga qo'yiladi va uni o'rtaligida qismiga tayanch prizmalarga parallel (yuk quyiladigan metall sterjen bilan yog'och sterjen orasiga) alyumin prizmani qo'yib nonius bo'yicha nolinchi hisobni olinadi. Boshlang'ich egilish ( $\lambda$ ) masofasini unga ta'sir etuvchi sterjen va yog'och og'irligi hosil etadi.
4. Asta sekin metall sterjen stolchasiga yuklar qo'ya borib, nonius bo'yicha birinchi hisoblar olinadi ( $n_0, n_1, n_2 \dots$ ). Nonius ko'rsatkichi farqi ( $n_2 - n_1$ ) egilish masofa qiymatini beradi. ( $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ ).
5. Qo'yilgan yuklarni kamaytira borib yana nonius bo'yicha ikkilamchi hisoblar ( $n_1^1, n_2^1 \dots$ ) olinadi va egilish masofalari ( $\lambda_1^1, \lambda_2^1$ ) aniqlanadi.
6. Birlamchi va ikkilamchi egilish masofasini o'rtacha hisobi qiymati  $\lambda_{o'rt} = \frac{\lambda_1 + \lambda_2}{2}$  dan topib jadvalga yoziladi.
7. Sterjen ustidan hamma qo'shimcha yuklarni olib, yana asbobni nolinchi holati aniqlanadi.
8. Yung moduli qiymatini (8) formula yordamida har bir tajriba uchun alohida topiladi va ularni o'rtacha arifmetik qiymati

$$\bar{E} = \frac{E_1 + E_2 + \dots + E_n}{n}$$

formuladananiqlanadi.

9.  $E$  nitopilganqiyatlarinijadvaldagiqiyamatibilansolishtiriladivao'lchashnisbiyxatosianiqlanadi.

#### KUZATISH JADVALI

№	M	Yuk qo'yil-ganda		Yuk olinadianda		$\lambda_{o'rt}$	l	a	b	E	$\Delta E$	$E_E$
		$n_0$	$n_i$	$n_0^{-1}$	$n_1^{-1}$							
1												
2												
3												
4												

#### SINOV SAVOLLAR

1. Kuchlanish nima va u qanday birliklarda o'lchanadi?
2. Deformatsiya o'lchami deganda nimani tushunasiz?
3. Elastiklik chegarasi deb nimaga aytildi? Mustahkamlik chegarasi debchi?
4. Yung moduli nima va uning fizik ma'nosi qanday?
5. Egilishda sterjen tolalari qanday deformatsiyalanadi?
6. Egilishda yaxlit sterjen o'miga kavak sterjen ishlatish mumkinmi?
7. Hisoblash formulasini yozib bering va undagi cimvollarni aytib bering.
8. Asbob tuzilishi va ishlashini tushuntiring.

#### 9-LABORATORIYA ISHI

#### SHARCHANING ERKIN TUSHISHI USULIDA SUYUQLIKNING ICHKI ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH (STOKS USULIDA)

**Ishning maqsadi:** Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsiyentini tajriba yo'li bilan aniqlash.

**Kerakli asbob va materiallar:**


1. Suyuqlik solinadian silindrik idish
2. Sekundomer
3. Masshtabli chizg'ich
4. Okulyar mikrometrli mikroskop
5. Sharchalar

#### NAZARIY QISM

Tinch holatdagi suyuqlikka tashlangan jismning erkin tushishini kuzataylik.

Qattiq jism suyuqlikka tegishi bilanoq, suyuqlik molekulalarini jism sirtiga yopishgan monomolekulyar qatlama hosil bo'lib, jism bilan birga harakatlanadi. Jism sirtiga yopishgan bu qatlama jism bilan birgalikda bir xil tezlik bilan harakat etadi. Bu monomolekulyar qatlama suyuqlikdagi qo'shni molekulalarini ham o'ziga jalb etadi.

Suyuqlik qatlamlari orasidagi ichki ishqalanish mavjud bo'lgani uchun jismga yaqinroq bo'lgan qatlama nisbatan kichik tezlik bilan harakat etayotgan molekulalar orasida ichki ishqalanish kuchi hosil bo'ladi. Bu ichki ishqalanish kuchi jism harakatiga to'sqinlik qiladi. Bu kuch jism yo'naliishiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.



1-rasm.

$$f = 3\pi\eta d^2 \vartheta \quad (1)$$

Bu yerda  $\eta$  - suyuqlikning ishqalanish koeffitsiyenti

$d$  - sharcha diametri

$\vartheta$  - sharchaning harakat tezligi.

Suyuqlikdagi sharchaga og'irlik kuchi va Arximed qonuniga asosan ko'tarish kuchi ta'sir etadi (1-rasm. a). Bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi:

$$F = gV(\rho - \rho') \quad (2)$$

Bu yerda  $g = 9,8 \text{ m/c}^2$  og'irlik kuchi tezlanishi

$\rho$  - sharcha zichligi

$\rho'$  - suyuqlik zichligi

$V$  - sharcha hajmi

“ $f$ ” va “ $F$ ” kuchlar ta'siri ostida shar tezlanuvchan harakat etadi. Nyutonning ikkinchi qonuni bu hol uchun

$$F - f = m_a \quad (3)$$

ko'rinishda ifodalanadi. Bu yerda

$m$  - shar massasi.

$F$  - kuch sharcha tezligini oshira boradi.

Sharni harakat tezligi oshishi bilan muhitntng qarshilik kuchi ( $f$ ) ham orta boradi. Shar harakati davomida shunday holat bo'ladiki Arximed va STOKS kuchlarining absolyut qiymatlari bir xil bo'ladi. Bu holatdan keyin shar o'zgarmas “ $\vartheta$ ” tezlik bilan harakatlanadi, u holda:

$$gV = (\rho - \rho') = 3\pi\eta d^2 \vartheta \quad (4)$$

Bu formulaga sharcha hajmi  $V = \frac{4}{3}\pi r^3 = \frac{1}{6}\pi d^3$  ni qo'yib “ $\eta$ ”ni topamiz

$$\eta = \frac{g(\rho - \rho') \cdot d^2}{18\vartheta} \quad (5)$$

Tekis harakat tezligi “ $\vartheta$ ” ni sharcha o'tgan ma'lum masofa “ $l$ ” va bu yo'lni o'tish uchun ketgan vaqt “ $t$ ” orqali ifoda etish mumkin:


$$\eta = \frac{g(\rho - \rho') \cdot d^2}{18 \cdot l} t \quad (6)$$

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, qarshilik kuchi jismning harakat tezligiga, chiziqli o'lchamlari va geometrik formasiga va muhitning ichki ishqalanish koeffitsiyentiga bog'liq ekan.

Muhitning qarshilik kuchi sferik shakldagi jism (sharcha) uchun ancha sodda usulda aniqlanadi. Agar sharcha tinch holatdagi suyuqlikda, og'irlik kuchi ta'sirida harakatlanayotgan bo'lsa, STOKS tomonidan bajarilgan nazariy hisoblashlar ishqalanish kuchi uchun tubandagi ifodani hosil etadi.

Shunday qilib, sharchaning tekis harakatini kuzatgan holda ishqalanish koeffitsiyentini ( $\eta$ ) aniqlash mumkin. Shuni ham esda tutish kerakkii, ishqalanish koeffitsiyenti temperaturaga bog'liq bo'lib, temperatura ortishi bilan " $\eta$ " ning qiymati kamaya boradi.

#### **ASBOBNING TUZILISHI**



Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsiyentini ( $\eta$ ) ni o'lhash uchun ishlatiladigan asbob 2-rasmida ko'rsatilgan. U silindrik shisha idishdan iborat bo'lib, "A" bu idish taxtadan yasalgan "B" taglikka o'matilgan. Silindr tekshiriladigan suyuqlik (masalan: glitserin) bilan to'ldirilgan. Silindirning tashqi tomonida "a" va "b" belgilar halqasimon joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa "l" dir. "a" halqasimon belgi suyuqlik sirtidan pastroqda joylashgan "l" masofaning o'tishi uchun ketgan vaqt sekundomer bilan o'lchanadi. Sharcha diametr esa okulyar mikrometrli mikroskop orqali aniqlanadi.

2-rasm. Asbobning tuzilishi

Okulyarmikrometrshkalalarigabo'linganyupkashishaplastinkamikroskopokulyarningfokaltekisligiga o'rnatilgan.

Mikroskopdanqaralgandashkalavasharchatasviribirgalikdako'rindi.

Okulyarmikrometrdagiharbirbo'limningsonqiyatimikroskopdako'rsatilgan.

#### **ISHNI BAJARILISHI TARTIBI**

1. Mikroskop yordamida uchta sharcha diametrлari o'lchanadi va jadvalga yoziladi.
2. Har bir sharcha silindrining markaziga yaqin qilib tashlanadi hamda yuqoriga belgi ("a") dan o'tayotgan vaqtida sekundomer yurgaziladi: "B" belgidan o'tayotganida esa sekundomer to'xtatiladi. Sekundomerdan o'lchanadigan vaqt jadvalga yoziladi.
3. "a" va "b" belgilar orasidagi masofani 1 mm aniqlikda o'lchanadi va jadvalga yoziladi.
4. Fizikaviy kattaliklarning son qiymatlarini (6) formulaga qo'yib ichki ishqalanish koeffitsiyenti va o'lhash xatoliklari hisoblanadi.
5. O'lhash natijalari jadvalga kiritiladi.

#### **KUZATISH JADVALI**

Nº	d	L	T	$\rho$	$\rho'$	$\eta$	$\Delta\eta$	$E_\eta$
1								
2								
3								

#### **SINOV SAVOLLAR**

1. Ichki ishqalanish kuchlarining hosil bo'lish sabablari nimadan iborat va qaysi kattaliklarga bog'liq?
2. Yopishqoq suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga qanday kuchlar ta'sir etadi?
3. Suyuqlikda sharchani tekis tushish sharti nimalardan iborat?
4. Ichki ishqalanish koeffitsiyentining fizik ma'nosiva uni o'lchov birligi nima?

## 10 - LABORATORIYA ISHI


### PUAZEYL USULI BILAN ICHKI ISHQALANISH (YOPISHQOQLIK) KOEFFITSIYENTINI SUVNI KAPILLYAR NAYCHADAN OQIZISH YORDAMIDA ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Suvni ichki ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash.

- Kerakli asbob va materiallar:**
1. Kapillyar naychali maxsus qurilma (4-rasm)
  2. Menzurka
  3. Sekundomer

#### NAZARIY OISM

Biror rangsiz yopishqoq suyuqlik (masalan glitserin) solinadian naychaga rangli suyuqlik quyib kranni ochsak rangli suyuqliknинг о'rtasi cho'zinchoq (konussimon) shaklini egallaydi (1-rasm). Chunki suyuqliknинг qatlamlar tezliklari katta bo'lub idish devorlariga yaqinlashgan sari tezligi kamayadi va idish devorida nolga teng bo'ladi. Agarda suyuqliknинг idish devoriga nisbatan parallel bir necha qatlamlardan iborat deb qarasak qatlamlar tezliklari 2-rasmdagidek bo'ladi.



Idish devoriga yopishgan birinchi qatlamlar tezligi nolga teng bo'ladi, chunki yopiqoqlik kuchi katta. Ikkinci qatlamlar birinchiga qaraganda ma'lum tezlikda harakatlanib ishqalanish kuchi hosil bo'ladi. Uchinchi qatlamlar ikkinchi qatlamlardan kattaroq tezlik bilan harakatlanadi va hokozo. Shunday qilib bir biriga yopishib harakatlanayotgan qatlamlar orasida tangensial ichki ishqalanish kuchlari vujudga kelib, qatlamlar tezliklarini o'zgartiradi.

Ichki ishqalanishga ega bo'lgan suyuqlik yopishqoq suyuqlik deyiladi.

$\Delta X$  masofadagi qatlamlar tezliklarining o'zgarishi. Qatlamlari bir birini ustida harakatlanib yo'nalishini o'zgartirmasdan harakatlanadigan suyuqlik harakati qatlami yoki Laminar oqim deyiladi. Qatlamlar orasidagi bir-birlik masofada suyuqlik tezligi o'zgarishini xarakterlaydigan (masofa harakat tezligiga tik yo'nalgan bo'ladi) kattalikka tezlik gradiyenti deyiladi.

Faraz etaylik, qatlamlar tezliklari  $\vartheta_1$  va  $\vartheta_2$  bo'lub, ular orasidagi masofa  $\Delta X$  bo'lsa (3-rasm) tezlik gradiyenti

$$\frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{\Delta X} = - \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X}; \left[ \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right] = C^{-1} \quad (1)$$

Bunda  $\Delta \vartheta = \vartheta_1 - \vartheta_2$  esa  $\Delta X$  masofadagi tezlikning o'zgarishi. Agar  $\Delta X=1m$  bo'lsa  $\left[ \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right] = \frac{[\Delta \vartheta]}{M}$  bo'lghanda, tezlik gradiyenti bir-biridan bir birlik masofada joylashgan suyuqlik qatlamlar orasidagi tezlik o'zgarishiga tengdir. Nyuton qatlamlar orasidagi vujudga kelgan ichki ishqalanish kuchi "F", tezlik gradiyenti  $\left( \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right)$  va ishqalanuvchi qatlamlar yuzalariga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatadi: ya'ni tangensial ichki ishqalanish kuchlari

$$F = \eta \cdot \frac{\Delta \Theta}{\Delta X} \cdot \Delta S \quad (2)$$

Bunda suyuqlikning  $\eta$  fizik xususiyati va tabiatiga bog'liq bo'lган koeffitsiyenti bo'lib, unga ichki ishqalanish koeffitsiyenti yoki suyuqlik yopishqoqligi deyiladi. (2)- formuladan

$$\eta = \frac{F}{\frac{\Delta \Theta}{\Delta X} \cdot \Delta S} \quad (3)$$

Bu yerda  $\frac{\Delta \Theta}{\Delta X} = 1 \text{s}^{-1}$  va  $\Delta S = 1 \text{m}^2$  ga teng bo'lganda  $\eta$  son qiymati jihatdan ta'sir etuvchi kuch ( $F$ ) ga teng ekanligi kelib chiqadi. Demak, yopishqoqlik koeffitsiyenti tezlik gradiyenti bir birlikka o'zgarganda bir birlik yuzalar orasida vujudga kelgan ichki ishqalanish kuchiga teng ekan.

Ichki ishqalanish koeffitsentini teskari qiymatiga teng bo'lgan kattalik oquvchanlik koeffitsenti deyiladi, ya'ni

$$\varphi = \frac{1}{\eta}$$

Yopishqoqlik koeffitsiyentini SGS sistemasida "Puaz" (Fransuz fizigi Puazeyli sharafiga qo'yilgan) bilan o'lchanadi. Ishqalanuvchi qatlam yuzalari  $1 \text{cm}^2$ , bo'lib, tezlik gradiyenti bir birlikka o'zgarganda ichki ishqalanish kuchi bir dina bo'lgan vaqtidagi yopishqoqlik koeffitsiyenti bir Puazga teng bo'ladi.

Agar (3) formulaga

$$\left. \begin{array}{l} F = 1 \text{ dina} \\ \frac{\Delta \Theta}{\Delta X} = 1 \text{s}^{-1} \\ \Delta S = 1 \text{sm}^2 \end{array} \right\} \text{larni qo'ysak}$$

$$\eta = 1 \frac{\text{dina} \cdot \text{sek}}{\text{sm}^2} = 1 \text{ Puaz bo'ladi.}$$

SI sistemada yopishqoqlik  $\frac{\text{N} \cdot \text{s}}{\text{m}^2}$  da o'lchanadi.

$$1 \text{ Puaz} = 0,1 \frac{\text{N} \cdot \text{s}}{\text{m}^2}$$

$$0,01 \text{Puaz} = 1 \text{ santipuaz.}$$

$20,5^0 \text{S}$  dagi toza suvning yopishqoqligi 1 santipuazga,  $0^0 \text{S}$  da esa 1,792 santipuazga teng.

Suyuqlikning yopishqoqligi temperaturaga bog'liq bo'lib, temperatura oshgan sari yopishqoqlik kamaya boradi. Bu bog'lanish turli suyuqliklar uchun turlicha bo'lib, tajriba yo'lli bilan aniqlanadi.

Yopishqoqlik koeffitsiyenti ( $\eta$ ) ni aniqlash uchun ko'pincha kapillyar naychadan oqayotgan suyuqlikdan foydalaniladi. Faraz etaylik, balandligi "H" bo'lgan A idishdagi suyuqlik, radiusi "r" va uzunligi "l" bo'lgan kapillyar naychadan tekis harakatlanayotgan bo'lsin.

U holda, "t" sekundda oqib chiqqan suyuqlik hajmi (V) quyidagi Puazeyl formulasiga asosan aniqlanadi.

$$V = \frac{\pi r^4 (P_1 - P_2) \cdot t}{8 \cdot \eta \cdot l} \quad (5)$$

bundan

$$\eta = \frac{\pi r^4 (P_1 - P_2) \cdot t}{8 \cdot V \cdot l} \quad (6)$$

$\eta$  - yopishqoqlik koeffitsenti

$P_1 - P_2$  - suyuqlik oqib chiqqan vaqt dagi bosimlar farqi bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi:

$$P_1 - P_2 = \left( \frac{h_1 + h_2}{2} - h \right) \cdot \rho \cdot g \quad (7)$$

Bunda  $h_1$  - stol sirtidan A idishdagi suyuqlik sathigacha bo'lgan dastlabki balandlik.

$h_2$  - tajribadan keyingi suyuqlik sathigacha bo'lgan balandlik

$h$  - stol sirtidan kapillyar naycha o'rtasigacha bo'lgan balandlik

$\rho$  - tekshirilayotgan suyuklikning berilgan temperaturadagi zichligi

$g$  - og'irlilik kuchi tezlanishi.


Bu (7) ifodani (6) ga qo'yib yopishqoqlik koeffitsiyentini hisoblash formulasini hosil qilamiz

$$\eta = \frac{\pi \eta^4 \left[ \frac{h_1 + h_2}{2} - h \right] \cdot \rho g t}{8 \cdot l \cdot V} \quad (8)$$

#### ASBOB TUZILISHI

Suvning ichki ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash uchun qo'llaniladigan asbob 4-rasmda tasvirlangan. Bu asbob stolga mahkamlangan hajmi 5 litr bo'lgan A idishdan iborat bo'lib past tomoniga (B) naycha ulangandir. Tekshirilayotgan suyuqlik solinadian "A" idishlar 1 kapillyar shisha naycha bilan D qisqichli rezina naycha orqali o'zaro ulangan.

Kapillyar naychani ishchi va tinch holatlarda ushlab turish uchun "A" va "B" polkali shtativdan foydalananiladi. Kapillyar naycha - qalin devorli shisha naychadan iborat bo'lib. Uzunligi ( $l$ ) va ( $r$ ) radiusning qiymatlari berilgan.



4-rasm. Asbob tuzilishi

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Kapillyar naychani uzunligi  $l$  o'lchanadi.
2. A idishdagi suv sathining dastlabki balandligi " $h_1$ " o'lchanadi.
3. Kapillyar naychaning rezina qismini qiskich bilan qisib ishchi holatiga (polkaga) tushiriladi va stoldan naycha o'rtasigacha bo'lgan balandlik " $h$ " o'lchanadi.
4. Bo'sh menzurkani kapillyar naycha uchining tagiga qo'yiladi va naychani qisqichdan bo'shatib, vaqt belgilanadi 100-120 sek. davomida suv oqiziladi. Vaqt va oqqan suv hajmi yozib olinadi.
5. Berilgan vaqt ichida suvni oqizib bo'lgach yana naychani qisqich bilan qisiladi va uni yuqori ko'tarib shtativning "A" holatiga qo'yiladi.
6. Tajribadan so'ng stoldan suv sathigacha bo'lgan balandlik  $h_2$  o'lchanadi (suv uchun hajm jihatidan og'irligiga teng deb olsa bo'ladi).
7. Topilgan qiymatlarni (8) formulaga qo'yib suv uchun yopishqoqlik koeffitsiyentining qiymatini (SI) sistemada hisoblab jadvalga yoziladi.

8. A idishdagi suv temperaturasi  $t^0$  tajribani oxirida yozib olinadi.

#### KUZATISH JADVALI

Nº	$h_1$	$h_2$	H	V	T	$l$	r	$\eta$	$\Delta\eta$	$E_n$
1										
2										
3										

$$\rho = 10^3 \text{ kg/m}^3 = 1 \text{ g/sm}^3$$

#### SINOV SAVOLLAR

1. Tezlik gradiyenti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o'lchanadi?
2. Yopishqoqlik koeffitsiyenti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o'lchanadi?
3. Nima uchun temperatura oshganda suyuqlikning yopishqoqligi kamayadi, gazlarda esa aksincha?
4. Laminar oqim deb qanday oqim aytildi?
5. Bernulli tenglamasini yozib bering?

### 11-LABORATORIYA ISHI

#### HAVONING ISSIQLIK SIG'IMLARI NISBATI $S_p / S_v$ NI TOPISSH.

**Ishning maqsadi:** gaz solishtirma issiqlik sig`imlarining nisbatini aniqlash.

**Kerakli jihozlar:** shisha ballon, nasos, manometr.

#### NAZARIY QISM

Eksperimental qurilma A shisha ballon, nasos va V monometrdan iborat bo`lib, ballon va monometr rezina nay orqali nasosga ulangan (1-rasm). Shuningdek  $K_1$  kran orqali ballonni tashqi atmosfera bilan ulash mumkin. Agar  $K_1$  kranni ochib (berk bo`ladi) ballonga havo haydalsa, idish ichidagi havo bosimi va harorati ortadi. Havoning atrof muhit bilan issiqlik almashinishi tufayli ma'lum vaqtadan keyin ballondagi havo harorati tashqi muhit harorati  $t_1$  bilan tenglashadi. Bu vaqtida ballondagi bosim:


$$R = H + h_1 \quad (1)$$

bu yerda  $H$ -atmosfera bosimi,  $h_1$  -monometrdagi suyuqlik sathlaring farqi.

Shunday qilib, ballon ichidagi havoning holati, ya'ni gazning I holati quyidagi parametrlar bilan ifodalanadi:

$$R_I = H + h_1; \quad V_I \text{ va } t_I$$

Agar  $K_1$  kranni qisqa vaqtida ochib yopsak, unda ballondagi havo kengayadi. Bu kengayish jarayonini adiabatik kengayish deb hisoblash mumkin.



Idish ichidagi bosim esa tashqi atmosfera bosimiga tenglashadi, havoning harorati esa  $t_2$  gacha pasayadi. Hajmi esa  $V_2$  ga teng bo`ladi. Bu gazning II holati bo`lib, parametrlar quyidagicha bo`ladi,

$$H; \quad V_2 \text{ va } t_2 < t_1$$

I va II holatlar uchun Puasson tenglamasini

$$pV^\gamma = const \quad (2)$$

qo`llab quyidagini hosil qilamiz.

$$(H+h_1)V_1^\gamma = HV_2^\gamma$$

yoki

$$\left(\frac{V_1}{V_2}\right) = \frac{H}{H+h_1} \quad (3)$$

Ballondagi havo kengayishi natijasida sovib, malum vaqtidan keyin, issiqlik almashinishi tufayli tashqi muhit harorati  $t_1$  gacha isiydi, bosimi esa bir qadar ortadi:

$$P_2 = H + h_2$$

Bu yerda  $h_2$ -monometrdagi suyuqliklarning yangi farqi. Havo hajmi o`zgarmaydi, u  $V_2$  ra teng bo`ladi. Shunday qilib, havoning bu holatini III holat deb atab, quyidagi parametrlar bilan ifodalaymiz:

$$R_2 = H + h_2; \quad V_2 \text{ va } t_1$$

Ma'lumki, havoning I va III holatlaridagi haroratlari teng (izotermik prosess), shuning uchun Boyl-Mariott qonuni ( $PV=const$ )ni qo`llab, ushbuni:

$$(H + h_1)V_1 = (H + h_2)V_2$$

yoki

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{H + h_2}{H + h_1} \quad (4) \text{ ni hosil qilamiz.}$$

(4) tenglamaning ikkala tomonini darajaga ko`tarib

$$\left(\frac{V_1}{V_2}\right)^\gamma = \left(\frac{H + h_2}{H + h_1}\right)^\gamma \quad (5)$$

(3) va (5) ifodalardan foydalanib,

$$\frac{H}{H + h_1} = \left(\frac{H + h_2}{H + h_1}\right)^\gamma \quad \text{ni hosil qilamiz.}$$

Yuqoridagi ifodani logarifmlab, tajribada  $h_1$  ni topishga imkon beruvchi oxirgi ifodani hosil qilamiz:

$$\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2} \quad (6)$$

### O'LCHASH VA NATIJALARINI HISOBBLASH

1.  $K_1$  va  $K_2$  jo`mraklarni ochib manometrdagi suv ustunlarining sathlarini bir xil holatga keltiriladi.
2. Jo`mrak  $K_2$ ni berkitib nasos bilan havo haydaladi (bunda suv sathlarining farqi 60-100 mm dan oshmasliga kerak).
3.  $K_1$  jo`mrakni berkitib havo haydash to`xtatiladi va suv ustunining pastga tushishi to`xtaguncha (5 minutcha) kutiladi. So`ngra, manometrdagi suv sathlarining farqi o'lchanib jadvalga yoziladi.
4.  $K_2$  jo`mrakni juda tez ochib yopiladi (bunda suv sathlari tenglashishi kerak) va suv ustuni ko`tarila borib to`xtaguncha (5 minutcha) kutiladi. So`ngra manometrdagi suv sathlarining farqi jadvalga yoziladi.
5. Tajriba 5-10 marta takrorlanadi. Har bir olingen natija asosida (6) foydalanib  $\gamma$ -hisoblanadi.
6. O`lchashdagi nisbiy va absolyut xatoliklar topiladi.
7. Tajriba natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

Nº	$h_1$	$h_2$	$\gamma$	$\gamma_{o'r}$	$\Delta\gamma$	$\Delta\gamma_{o'r}$	$\varepsilon$

### SINOV SAVOLLARI

1. Solishtirma issiqlik sig`imi nima?
2. Molekulyar issiqlik sig`imi nima?
3. Nima uchun gazlarda ikki xil issiqlik sig`imi mavjud?
4. Qanday izoprotesslarni bilasiz?
5. Adiabatik jarayon nima ?

### 12-LABORATORIYA ISHI.

#### O'ZGARMAS TOK KO'PRIGI YORDAMIDA QARSHILIKLARNI O'LCHASH

**Ishning maqsadi** ko`prik sxema yordamida qarshiliklarni o'lchash mumtoz usuli bilan tanishtirishdir

**Kerakli asbob va anjomlar:** 1) o'lchanuvchi qarshiliklar, 2) galvanometr, 3) qarshiliklar magazini, 4) elektr yurituvchi kuch manbai (akkumulyator), 5) ko`prik sxema elkalarining kommutatori, 6) reoxord, 7) ikki yoqlama kalit.

**Asbob va anjomlar tavsifi.** Ko‘pincha qisqa qilib Uitston ko‘prigi deb ataluvchi o‘zgarmas tok ko‘prik sxemasi bir-biriga simlar bilan ulangan  $R$ ,  $X$ ,  $r_1$  va  $r_2$  (1-rasm) qarshiliklardan hosil qilingan yopiq to‘rtburchakdan iboratdir. Bu sxemaning diagonallaridan biriga elektr yurituvchi kuch manbai, ikkinchisiga esa sezgir galvanometr ulanadi. Sxemaning shu ikkinchi diagonali asl ma’noda **ko‘prik** deyiladi. Bu sxema yordamida bajariladigan butun o‘lchash protsessida ko‘prikan tok o‘tmasligi (ko‘prikda tok kuchining nolga teng bo‘lishi) shart. Butun sxemaning **ko‘prik** deb atalishi ham shundadir. Asl ma’noda **ko‘prik** sxema diagonallariga ulangan ikkita sim va galvanometrdangina iborat bo‘lishi shart emas. Ba’zi bir hollarda ko‘prik galvanometrdan tashqari, qarshiliklar ham ulangan murakkabroq sistemi tashkil etadi (masalan: **ikkilangan ko‘prik** deb ataluvchi ko‘prik qo‘llanilgan 2-vazifaning tavsifiga karang). Butun ko‘prik sxemani tashkil etuvchi qarshiliklarning nisbati ixtiyoriy bo‘lganda galvanometrdan, turgan gap, tok o‘tishi kerak. Ammo, soddagina hisoblash asosida shuni ko‘rsatish mumkinki (vazifa tafsifining oxiridagi adabiyotga qarang), sxemani tashkil etuvchi qarshiliklar orasida bitta muayyan munosabat mavjud bo‘lganda, sxemaning barcha boshqa qismlardan tok o‘tib turgani holda, galvanometrdan tok o‘tmaydi. **Ko‘prik elkalari** deb ataluvchi qarshiliklar orasidagi ayтиб o‘tilgan munosabat

$$\frac{X}{R} = \frac{r_1}{r_2}$$

ko‘rinishga ega. Bundan:

$$X = R \frac{r_1}{r_2}.$$

Bu munosabat **ko‘prik elkalariiga** ulangan to‘rtta qarshilikdan istalgan bittasini qolgan uchtasi ma’lum bo‘lgan holda topishga imkon beradi. SHuning uchun ham ko‘prik sxemada o‘lchash jarayonining mohiyati shu munosabatni qanoatlantiruvchi  $X_1, R, r_1$  va  $r_2$  kattaliklarni tajribada topishdir.

Ko‘prik sxemadan quyidagicha foydalilanadi. Ko‘prikning elkalardan biriga ma’lum  $R$  qarshilik (masalan, qarshiliklar magazini) ulanadi. Ikkinci elkasiga esa o‘lchanadigan  $X$  qarshilik ulanadi. Nihoyat, ko‘prik sxemaning uchinchi va to‘rtinchi elkalarda  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklar bo‘ladi.  $X$  hisoblanadigan oxirgi formulada  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklarning absolyut qiymatlari emas, balki ularning nisbati ishtirok qilinishini nazarga olib, ular odatda millimetrlı shkala bo‘ylab tortilgan metall o‘tkazgich (**reoxord**) ko‘rnishida yasaladi. Galvanometrdan bu qarshiliklarga tok reoxord bo‘ylab sirpana oladigan kontakt surilgich yordamida beriladi. SHunday qilib, surilgichning ikki tomonidagi sim bo‘laklari  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklardir. Ko‘prik uchinining qo‘zgaluvchan bo‘lishi  $l_1$  va  $l_2$  kesmalarga (1-rasm) mutannosib bo‘lgan  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklarning qiymatlarini va, demak,  $X$  ni hisoblash ifodasiga kiruvchi  $r_1 / r_2$  nisbatni oson o‘zgartira olish imkonini beradi.

Bu sharoitda ko‘prik sxemada o‘lchash jarayoni qarshiliklar magazinida (o‘lchanadigan qarshilikka yaqin bo‘lgan)  $R$  qarshilikni qo‘yishdan va ko‘prik-ning galvanometrdan tok o‘tmay qoladigandagi vaziyatni kontakt surilgich yordamida topishdan iborat bo‘ladi. Kontakt surilgichning bunday vaziyatini qidirish operatsiyasi **ko‘prikni muvozanatlash** deyiladi, galvanometridan tok o‘tmayotgan ko‘prik esa **muvozanatlangan kuprik** deyiladi.

Ko‘prik muvozanatlanganida reoxord bo‘yicha hisoblangan  $l_1$  va  $l_2$  kesmalarning nisbatini tuzib,  $R$  ning kattaligini bilgan holda, noma’lum  $X$  qarshilikni topish mumkin. Amalda

ishlatiladigan o'lhash sxemasi 2-rasmida ko'rsatilgan. Bu sxema 1- rasmida tasvirlangan sxemaning prinsipial tuzilishi to'la saqlangani holda, ya'ni bir muncha baoshqa qismlar bor. Bu sxemaga ko'priq elkalariga ulangan qarshiliklarning o'rinalarini sxemaning ulash simlarini qayta ulamasdanoq almashtirishga imkon beruvchi K kommutator kiritilgan.

**Kommutator** to'rt bo'lakka bo'lingan metall plastikdan iborat bo'lib, uning burchaklaridan simlar ulanadigan klemmalar bor. Simlarni ulashning ko'priq elkalaridagi qarshiliklarni qaytadan ulashda zarur bo'lgan turli kombinatsiyalari metall shtiryoklarni metall plastikining to'rt qismi oralaridagi kesiklarning turli juftiga tiqib ko'rish orqali hosil qilinadi.

Reoxord simi hech qachon boshdan-oyoq batamom bir jinsli bo'lma-ganligi va shuning uchun  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklar nisbati xam  $l_1$  va  $l_2$  kesmalar uzunliklarining nisbatiga rosa teng bo'lmanligi tufayli o'lhashlarda qarshiliklarning o'rnini almashtirish maqsadga muvofiqdir. Nomalum qarshilikni uzil-kesil hisoblanganda kommutatorning ikki holatida topilgan  $l_1$  va  $l_2$  kattaliklardan har birining o'rtacha arifmetik qiymati-dan foydalaniladi.

Amalda ishlatiladigan ko'priq sxemaning prinsipial sxemadan ikkinchi farqi shundaki, bunda tok manbai zanjirigina emas, balki **ko'prikkha** ulangan galvanometr zanjirini ham ulash va uzishga imkon beruvchi ikki yoklama kalit (2-rasm) ishlatiladi.

Kalitning shunday tuzilishi pastki plastinkalarga ulangan galva-nometr zanjirining tok manbai zanjiridan keyin ulanishiga va, aksincha uning tok manbai zanjiridan oldin uzilishiga imkon beradi. SHunday qilib, galvanometr zanjiri sxemaning ish rejimi barqarorlashgandan keyingina ulangan bo'ladi. Gap shundagi, elektr yurituvchi kuch zanjirini ulash va uzish paytida sxemada o'zinduksiya elektr yurituvchi kuchlari vujudga keladi. SHu elektr yurituvchi kuchlar ta'sirida, oquvchi ekstratoklar ancha kata bo'lishi va galvanometrni ishdan chiqarishi mumkin.

Nihoyat, galvanometrni o'zgaruvchan qarshilik bilan shuntlab, sxema-ning bevosita ko'priq qismini murakkablashtirish mumkin. Bu o'zgaruvchan shuntini ulashdan maqsad ko'prijni muvozanatlashni galvanometrdan kichik tok o'tayotganda boshlab, galvanometrning qo'zg'aluvchan tizimini kuchli turkilardan saqlashdir. Ko'priq muvozanati yaxshilana borgan sari o'zgaruvchan shuntning qarshilagini oshira borish mumkin. Ko'prijni uzil-kesil muvozanatlashda shunt uzib quyiladi.

Sxemada magnitoelektr sistemadagi strelkali galvanometrdan foydalaniladi; uning sezgirligi  $10^{-6}$  ( $A/shkala$ ) bo'lim tartibida bo'lib, nolinchi bo'limi shkalaning o'rtasida va strelkasi nolinchi bo'limdan har ikki tomonga og'a oladi. Galvanometr strelkasi ostida (shkaladan pastroqda) ensiz ko'zgu bor. Kuzatuvchining ko'zi shkalaga va strelkaga nisbattan to'g'ri vaziyatda bo'lganda strelkaning ko'zgudagi tasviri kuzatuvchiga ko'rinnmaydi. SHu vaziyatda kuzatuvchining strelkadan o'tuvchi kuzatish nuri shkala tekisligiga normal bo'ladi.



Ko'priq sxemalarda bajariladigan aniqroq o'lhashlarda ko'zguli galvonometrlar ishlatiladi,  $r_1$  va  $r_2$  qarshiliklar o'mida reoxord elkalari emas, balki sxemani muvozanatlashda qarshilikni sakratib bo'lsada, oz-ozdan o'zgartirib borishga imkon beruvchi qarshiliklar magazini qo'yiladi.

**O'lhashlar.** Sxema tuzilgandan keyin galvanometr shuntini eng kichik qarshilikka qo'yiladi va sxemaga magazinning bir necha o'n **om** qarshiligi qo'shiladi. Ko'priqning surilgichi shkalaning o'rtasiga qo'yiladi, so'ng qisqa muddatga tok manbai va galvanometr zanjiri ulanadi. Bunda galvonometr strelkasi nol vaziyatdan og'adi.

Magazinlar qarshiligi kattaligini asta-sekin o'zgartira borib, surilgich harakatsiz turganida galvanometr strelkasining og'ishi eng kichik bo'ladigan qilinadi. Magazindagi qarshilikning **1–2 om** qadar o'zgarishi galvanometr strelkasining og'ishini ortiq kichraytira olmay qolgach, surilgichni u yoq-bu yoqqa surib bu og'ishlarni kichraytirishga tirishiladi. Agar surilgichning shuntlangan galvanometr strelkasi kalit ulanganda og'maganidagi vaziyat topilgan bo'lsa, bunda galvanometr shunti asta-sekin oshira boriladi. Surilgich har safar shunday suriladiki, kalitni bosganda galvanometr strelkasining og'ishi sezilmaydigan bo'la borsin.

SHunt to'la uzilgan holga utilganda o'lhashlar to'xtatiladi.

Birinchi o'lhash tugaganidan so'ng kommutatordagi shtiryoklarning vaziyati ko'priklalaridagi R va X qarshiliklarning o'rnlari o'zaro almashinadigan qilib o'zgartiriladi va qarshilik yuqorida ko'rsatilgan tartibda yana o'lchanadi.



SHundan so'ng magazindagi qarshilik taxminan  $\pm 10\%$  qadar o'zgartiriladi va o'lhashlarning butun sikli qaytdan o'tkaziladi. Barcha o'lhashlar natijasida topilgan o'rtacha qiymat bir qarshilik bilan ishlashning uzil-kesil natijasi bo'ladi. Ishning hisobotiga reoxorddan topilgan natijalar, magazindagi qarshilikning qiymatlari, alohida o'lhash natijalari asosida X ning hisoblab topilgan qiymatlari, X ning o'rtacha qiymati va o'lhash xatoligining kattaligi yoziladi.

Vazifani bajarishda noma'lum (kamida) ikkita qarshilikning yakka-yakka holdagi qiymatlarini, o'sha ikkita qarshilik ketma-ket ulangan holdagi va nihoyat ular o'zaro parallel ulangan holdagi qarshiliklarni o'lhash zarur. Keyingi ikkita o'lhashning natijasini qarshiliklarni yakka-yakka o'lhashda olingan qiymatlaridan foydalananib, ketma-ket va parallel ulash formulalari bo'yicha hisoblab topilgan qarshilik qiymatlari bilan taqqoslab ko'rish kerak.

Uitsonning oddiy ko'prigida **0,1 om** gacha aniqlikda o'lhash mumkin. O'lhash simlarining nazoratsiz qarshiligining o'lchanadigan qarshilikka va magazin qarshiligiga qo'shilib qolishi sxemaning kamchiligidir. Bu kamchilik ikkilangan ko'priklar sxemasida (2-vazifa) asosan bartaraf qilingan, qarshiliklarni kompensatsiya usulida o'lhashda esa, prinsipial yo'qotiladi.

Ko‘prik sxemaning turli ish rejimidagi sezgirligi to‘g‘risidagi masala ancha murakkab bo‘lib, bu masala sxemaning ishi bilan dastlab tanishishda muhokama qilinmaydi. Ko‘prik sxemaning sezgirligi masalasi M.M.Popovning ushbu vazifaga oid maxsus adabiyot ro‘yxatida ko‘rsatilgan kitobida batafsil muhokama qilingan.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Kalashnikov S.G. Umumiy fizika kursi. Elektr. Oliy ukuv yurtlarining fizika ixtisosи buyicha darslik. Ukituvchi, Toshkent-1979, 615 bet.
2. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi. II kism. Oliy texnika ukuv yurtlari uchun kullanma. Ukituvchi, Toshkent-1976, 450 bet.
3. "Fizikadan praktikum". Elektr va optika. Iveronova taxriri ostida. T.1968 y
4. Buribaev I., Karimov R. Elektr va magnetizmdan fizpraktikum. Universitet. T. 2002y
5. Andreev I.S., Sultanova K.A. Fizikadan praktikum."Elektr va magnetizm".Uqituvchi, Toshkent - 1976 y.

## **13-LABORATORIYA ISHI**

### **O‘TKAZGICHNING SOLISHTIRMA QARSHILIGINI HISOBBLASH.**

*Ishning maqsadi:* Texnikaviy usul yordamida tok kuchi va kuchlanishni aniq o‘lchash orqali xronmonikel o‘tkazgichining solishtirma qarshiligini aniqlash,

*Kerakli jihozlar:* O‘tkazgichning solishtirma qarshiligini hisoblash uchun mo‘ljallangan FRM-01 qurilmasi va solishtirma qarshiliqi aniqlanadigan o‘tkazgich.

### **NAZARIY TUSHUNCHА**

Tajribalar o‘tkazgichning  $R$  qarshiligi uning  $L$  uzunligiga to‘g‘ri proporsional va  $S$  ko‘ndalang kesim yuzasiga teskari proporsional ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni

$$R = \rho \frac{l}{S} \quad (1)$$

bunda  $\rho$  - o‘tkazgichning solishtirma qarshiliqi bo‘lib, u o‘tkazgichning materialiga bog‘liq

$$\rho = \frac{RS}{l} \quad (2)$$

SI sistemasida o'tkazgich solishtirma qarshiligining birligi qilib uzunligi  $1\text{ m}$  ko'ndalang kesim yuzasi  $1\text{ i}^2$  va  $1\text{ N}$  qarshilikka ega bo'lgan o'tkazgichning solishtirma qarshiligi qabul qilingan. Uning birligi  $\hat{I} = \sqrt{i^2 + N}$  dir. O'tkazgichning solishtirma qarshiligini hisoblash uchun mo'ljallangan qurilma 1- va 2-rasmida tasvirlangan. Bunda  $1\text{ m}$  li shkala bo'lib yukoriga va pastki kronshteynlar orasida o'tkazgich (2) tortilgan. O'tkazgichning tarangligi (3) kubchalar burovchi vintlar yordamida sozlanishi mumkin. FPM-01 qurilmaning elektr sxemasi tarmoqdan kelayotgan o'zgaruvchan elektr toki transformator orkali diodlar asosida qurilgan to'g'rilovchi ko'prikkka beriladi.

Doimiy kuchlanish tokni chegaralovchi  $R$  qarshilik orqali  $R_x$  solishtirma qarshilikli o'tkazgichga beriladi. Bu o'tkazgichdagi kuchlanish tushishi V- voltmetr va tok kuchi mA - milliampermetr orqali o'lchanadi.  $W_3$  ulagich yordamida ish uslubi tanlansa,  $W_2$  - ulagich yordamida tok kuchining yoki kuchlanishning aniq qiymatini o'lchashga o'tish mumkin.

## **QURILMANING TUZILISHI**

Qurilmaning ko'rinishi 1 – rasmda ko'rsatilgan.

### **E s l a t m a.**

Elektr toki yoki elektr qurilmalari bilan ishlayyotganizda texnik xavfsizligiga e'tibor bering!

### **O'lchash va natijalarni hisoblash.**

1. Qurilmani ulovchi asboblar yordamida o'rnatilgan old qism 1-rasmida ko'rsatilgan.
2. Kronshteynda o'lchanayotgan o'tkazgichning uzunligini L tanlanadi.
3. W1 ulagich yordamida qurilma ishga tushiriladi.
4. W3 ulagichni ulang, bunda voltmetr va milliampermetrning strelkalari ma'lum bir qiymatni ko'rsatadi.
5. Tok kuchining ( $I_{ma}$ ) kuchlanishning UV aniq qiymatini o'lchash uchun ish uslubiga karab  $W_2$  ulagich ulanadi va tok kuchi milliampermetrdan kuchlanish voltmetrdan yozib olinadi. Bundan  $W_2$  ulagichning bosilmagan holati tok kuchining, bosilgan holati esa kuchlanishning aniq qiymatini o'lchash uchun xizmat qiladi.
6. Aktiv qarshilikni texnik metod bilan tok kuchining aniq qiymati orqali quyidagi formula yordamida hisoblanadi.



1-pacm


$$R_p = R_{p1} \left( 1 - \frac{R_a}{R_{p1}} \right) \quad (1)$$

bu erda  $R_{p1} = \frac{U}{I}$

$R_\alpha$  - milliampermetrning ichki qarshiligi bo‘lib  $R_\alpha = 0,15 \text{ } \hat{\text{m}}$ .

$V$  – voltmetrning ko‘rsatishi, V

$I$  – milliampermetrning ko‘rsatishi, mA.



7. Aktiv qarshilikni texnik usul bilan kuchlanishning aniq qiymati orqali quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R = R_{p2} \left( 1 + \frac{R_{p2}}{R_V} \right) \quad (2)$$

bu erda  $R_{p2} = \frac{U}{I}$

bundagi

$R_V$  – voltmetrning ichki qarshiligi bo‘lib,  $R_V = 2500 \text{ } \hat{\text{m}}$ .

$V$  – voltmetrning ko‘rsatishi, V

$I$  – milliampermetrning ko‘rsatishi, mA.

8. Potensiometrning R dastasini burab, milliampermetrdan I tok kuchi va voltmetrdan U kuchlanishning bir necha qiymati yoziladi. Tajriba bir necha marta takrorlanadi.
9. Har ikki usul bilan o'tkazgichning solishtirma qarshiligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\rho_1 = R_{p1} \frac{S}{l} \quad \rho_2 = R_{p2} \frac{S}{l}$$

8-o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi  $S = 2\pi r^2$ .  $d = 3,6 \cdot 10^{-4} \text{ m}$  – o'tkazgich uzunligi.

## 14-LABORATORIYA ISHI O'ZGARUVCHAN TOK KO'PRIGI YORDAMIDA KONDENSATOR SIG'IMINI ANIQLASH.

**Ishdan maqsad:** Kondensatorlar bilan tanishish va ularning elektr sig'im kattaligini o'lchash.

**Kerakli asbob va buyumlar:** reoxord, telefon yoki ostsillograf, sig'imlar magazini, noma'lum sig'imli ikkita kondensator, kalit, o'zgaruvchan tok manbai.

### Nazariy qism.

Boshqa o'tkazgich va zaryadlardan cheksiz uzoqda joylashgan, ya'ni yakkalangan bir o'tkazgichga q zaryad berilsa, unda qiymati shu zaryad miqdoriga proprotsional bo'lган potentsial yuzaga keladi.

Turli o'lchamga hamda turli shaklga ega bo'lган o'tkazgichlar bir xil miqdordagi elektr zaryad bilan zaryadlansa, ularning potentsiali turlicha bo'ladi.

O'tkazgichga berilgan zaryad bilan shu o'tkazgichda yuzaga keladigan potentsial orasidagi bog'lanish chiziqli xususiyatiga ega bo'lib, quyidagicha

ifodalanadi:

$$q = C \varphi \quad (1)$$

Bu yerda S-proprotsionallik koeffitsiyenti bo'lib, uni shu o'tkazgichning elektr sig'imi deyiladi, (1) ifodani

$$C = \frac{q}{\varphi} \quad (2)$$

ko'rinishda yozamiz. Bu ifodaga ko'ra, berilgan o'tkazgichning elektr sig'imi deb, shu o'tkazgich potentsialini bir birlikka orttirish uchun lozim bo'lган zaryad miqdoriga teng bo'lган fizik kattalikka aytildi.

Halqaro birliklar sistemasi (SI) da elektr sig'imi birligi qilib farada (F) olingan. Yakkalangan o'tkazgichga 1 Kl zaryad bYerilganda uning potentsiali 1 V ga ortsa, shu o'tkazgichning elektr sig'imi 1Farada ga teng bo'ladi, ya'ni

$$IF = I \text{ Kl} / 1 \text{ V}$$

Miqdoran 1 Farada ga teng sig'imi nihoyatda kattadir, shu sababli amalda faradaning juda kichik bo'laklari:  $1 \text{ mKl} = 10^{-6} \text{ F}$  (mikrofarada),  $1 \text{ pF} = 10^{-9} \text{ F}$  (nanofarada),  $1 \text{ pF} = 10^{-12} \text{ F}$  (pikofarada) qo'llaniladi.


Amaliy ishlarda o'lchami kichik bo'lsa ham ko'proq zaryadni o'zida to'play oladigan, ya'ni katta sig'imga ega bo'la oladigan o'tkazgichlar sistemasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunday o'tkazgichlar sistemasi kondensator deb ataladi. Masalan, bir-biridan dielektrik muhit bilan ajratilgan sirt yuzlari teng ikkita va undan ortiq yassi plastinkalardan iborat sistemaga yassi kondensator deyiladi. Dielektrik muhit bilan ajratilgan ikkita qoshni plastinka qarama-qarshi zaryadlangan bo'ladi.

Ikki plastinkadan iborat yassi kondensatorning elektr sig'imi har bir plastinkadagi zaryadning shu plastinkalar orasidagi potentsiallar ayirmasi (kuchlanish) ga nisbatiga tengdir:

$$C = \frac{q}{\varphi_1 - \varphi_2} \quad (3)$$

Plastinkalar odatda qoplama deb ataladi. Shunga ko'ra, shunday ta'rif berish mumkin: kondensatorning elektr sig'imi uning qoplamlalari orasidagi potentsiallar ayirmasini bir birlikka orttirish uchun zarur bo'lgan zaryad miqdori bilan o'lchanuvchi kattalikdir.

Qoplamlalari orasidagi masofa  $d$ , qoplamlar yuzi  $S$  va qoplamlalar orasiga qo'yilgan moddaning dielektrik singdiruvchanligi  $\epsilon$  bo'lgan yassi kondensatorning elektr sig'imi yuqoridagi kattaliklar orqali qanday ifodalanishini ko'rib chiqaylik (4.1-rasm).



4.1-rasm

Qoplamlar orasidagi potentsiallar ayirmasi  $\varphi_1 - \varphi_2$ , U-kuchlanish, E-kuchlanganlik, d-masofa o'zaro quyidagicha bog'langan:

$$\varphi_1 - \varphi_2 = U = Ed \quad (4)$$

O'z navbatida q zaryad bilan zaryadlangan ikki plastinka orasidagi maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{\epsilon_0 \epsilon} = \frac{q}{\epsilon_0 \epsilon S} \quad (5)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda  $\sigma$  - qoplamaadi zaryadning sirt zichligi  $\sigma = \frac{q}{S}$ . (4) ifodadagi maydon kuchlanganligi o'rniga (5) ni qo'ysak potentsiallar ayirmasi uchun quyidagi tenglikni olamiz:

$$\varphi_1 - \varphi_2 = \frac{qd}{\epsilon_0 \epsilon S} \quad (6)$$

Bu ifodani (2) tenglik bilan taqqoslasak, izlanayotgan yassi kondensator sig'imi quyidagi formula orqali ifodalanishini topish mumkin:

$$C = \frac{\epsilon_0 \epsilon S}{d} \quad (7)$$

Bundan kondensatorning elektr sig'imi orttirish uchun qoplamlar yuzasini kattalashtirish yoki ular orasidagi masofani kichiklashirish zarur ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo bu usul bilan lozim bo'lган sig'imni hosil qilish noqulaydir. Buning o'rniga bir necha kondensatorni bir-biriga maxsus usullarda ulab lozim bo'lган sig'imni hosil qilish mumkin.

Bu ulash usullarining ikki turi: 1) ketma-ket ulash; 2) parallel ulash orqali natijaviy sig'ilmarni hosil qilish bilan tanishaylik.


### **I. Kondensatorlarni ketma-ket ulash**

Ketma-ket ulashda (4.2-rasm) barcha plastinkalardagi zaryad miqdori bir xil bo'ladi, ya'ni  $q_1 = q_2 = q_3 = const$ . Qoplamlar orasidagi potentsiallar ayirmasi har xil bo'ladi. Bunda  $\varphi_3 - \varphi_1 = (\varphi_3 - \varphi_2) + (\varphi_2 - \varphi_1)$   $U = \varphi_3 - \varphi_1$ ,  $U_1 = \varphi_2 - \varphi_1$ ,  $U_2 = \varphi_3 - \varphi_2$  desak  $U = U_1 + U_2$  (8) ifodaga ega bo'lamiz.

$$U = \frac{q}{C} ; \quad U_1 = \frac{q}{C_1} ; \quad U_2 = \frac{q}{C_2} .$$

$$\frac{q}{C} = \frac{q}{C_1} + \frac{q}{C_2} \Rightarrow \frac{1}{C} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} \quad (9)$$

Demak, kondensatorlar ketma-ket ulansa, umumiy sig'im kichiklashadi. Ketma-ket ulash sxemasi 4.2-rasmda keltirilgan.



2-rasm

## 2.Kodensatorlarni parallel ulash

Parallel ulangan kondensatorlar qoplamasidagi potentsiallar ayirmasi barcha kondensatorlar uchun bir xil bo'lib,  $\varphi_1 - \varphi_2$  ga ( $\Delta\varphi$  ga) teng. Agar kondensatorlar sigimi  $C_1, C_2, C_3$  va hokazo bo'lسا, bu holda har bir kondensatordagi zaryadni

$$\begin{aligned} q_1 &= C_1(\varphi_1 - \varphi_2) \\ q_2 &= C_2(\varphi_1 - \varphi_2) \\ &\vdots \\ q_n &= C_n(\varphi_1 - \varphi_2) \end{aligned} \quad (10)$$

ifodalar bilan aniqlash mumkin. Barcha kondensatorlarning umumiylary zaryadi


$$q = q_1 + q_2 + q_3 + \dots \quad (11)$$

(10) va (11) ifodalarni birgalikda ishlab chiqsak  $C(\varphi_1 - \varphi_2) = C_1(\varphi_1 - \varphi_2) + C_2(\varphi_1 - \varphi_2) + \dots$  va umumiyligi sig'imi

$$C = \sum C_i = C_1 + C_2 + C_3 + \dots + C_n \quad (12)$$

bo'ladi.

Bundan ko'rindan, umumiyligi sig'imi ulangan kondensatorlar sig'implari qiymatlarining yig'indisiga teng bo'lar ekan. Kondensatorlarni parallel ulash sxemasi 4.3-rasmda keltirilgan.



### 3-rasm

Bu ishda kondensatorlarning sig'imgalari Uitson ko'prigi yordamida aniqlanadi. Ma'lumki, kondensator qoplamlari orasida bo'sh yoki dielektrik qatlam bo'lganligi sababli o'zgarmas tok kondensatordan o'tmaydi. Shu sababli, ishni bajarishda o'zgaruvchan tokdan foydalilanadi. Agar kondensatorning qoplamlari o'zgaruvchan tok manbaiga ulansa, u holda kondensator qoplamlari davriy ravishda zaryadlanib, zaryadsizlanib turadi. Shu sababli kondensatori o'zgaruvchan tok yo'lidagi o'tkazgich deb hisoblash mumkin.

Kuzatilayotgan zanjir sinuslar qonuni bo'yicha o'zgaruvchan elektr yurituvchi kuchi (E.YU.K.) bo'lган tok manbaiga ulangan bo'lsa

$$\varepsilon = \varepsilon_0 \sin \omega t \quad (13)$$

bu yerda  $\varepsilon$ -E.YU.K. ning ixtiyoriy t momentdagi qiymati,  $\varepsilon_0$  – E.YU.K. ning maksimal (amplitudaviy) qiymati,  $\omega$ -doiraviy chastota,  $\omega = \frac{2\pi}{T}$ . Kondensator qoplamasidagi zaryad miqdorini sig'im formulasiga ko'ra quyidagicha aniqlash mumkin:

$$q = C\varepsilon = C\varepsilon_0 \sin \omega t \quad (14)$$

Demak, qoplamaidagi zaryad ham sinuslar qoidasi bo'yicha o'zgaradi. (14) ifodani vaqt bo'yicha diffyerentsiallaymiz va bunda zaryadning vaqt bo'yicha o'zgarishi tok kuchiga teng ekanligini e'tiborga olamiz:

$$\frac{dq}{dt} = I = C\omega\varepsilon_0 \cos \omega t \quad (15)$$

Bundan ko'rinish turibdiki, tok kuchi ham davriy ravishda o'zgarar ekan. Uning qiymati maksimal ( $\cos \omega t = 1$ ) bo'lganda:


$$I_0 = C\omega\varepsilon_0 = \frac{\varepsilon_0}{\frac{1}{\omega C}} \quad (16)$$

ko'rinishga ega bo'ladi. (16) ifodani Om qonuni formulasiga ( $I = \frac{\varepsilon}{R}$ ) bilan taqqoslasak,  $\frac{1}{\omega C}$  kattalik qarshilik vazifasini o'tashini bilishimiz mumkin, uni  $R_c$  deb belgilab

$$R_c = \frac{1}{\omega C} \quad (17)$$

ifodani yozishimiz mumkin.  $R_c$  - kondensatorning sig'imiyligi deyiladi.

Kondensatorning sig’imini o’lchash uchun qo’llaniladigan elektr zanjir sxemasi ya’ni Uitson ko’prigi 4.4-rasmda tasvirlangan.



4-rasm

Bu sxemada  $\varepsilon$  o’zgaruvchan E.YU.K. manbai,  $C_0$ -sig’imi ma’llum bo’lgan kondensator,  $C_x$ -sig’imi o’lchanishi lozim bo’lgan kondensator, K-kalit, zanjirning MD qismidagi telefon (T) ko’prik vazifasini o’taydi. Zanjirning A va B nuqtalari reoxordga ulangan. Telefonga ulangan simning D uchi reoxord bo’ylab harakatga keltirilib telefonda tok o’tishi to’xtagan holat topiladi.

Bu telefonda tovush bo’lmasligiga ko’ra aniqlanadi. Bu holatni ko’prikning

muvozanat holati deyiladi, bunda M va D nuqtalardagi potentsiallar tenglashgan bo’ladi. Reoxord simning D nuqtaga nisbatan chap va o’ng qismlari uzunligi mos ravishda  $\ell_1$  va  $\ell_2$  deb belgilanadi va ular reoxord yelkalari deb ataladi. Ko’prikning muvozanat holati ( $I_g = 0$ ) da 4.4-rasmdagi elektr zanjiriga nisbatan quyidagi ayniyatlarni yozish mumkin:

$$I_0 = I_x \quad \text{va} \quad I_1 = I_2 \quad (18)$$

Shuningdek, M va D nuqtalarda potentsiallar qiymatlarining tengligi ( $\varphi_M = \varphi_D$ ) dan AMDA kontur uchun

$$\varphi_A - \varphi_M = \varphi_A - \varphi_D \quad (19)$$

yoki

$$I_0 R_{C_x} = I_1 R_1 \quad (20)$$

Shuningdek, MVDM kontur uchun

$$I_0 R_{C_0} = I_2 R_2 \quad (21)$$

ni yozish mumkin. (20) va (21) tengliklarning chap va o’ng tomonlarining nisbatini olamiz, hamda tok kuchlari uchun (18) ifodalardan foydalananib noma’llum qarshilik uchun

$$R_{C_x} = R_{C_0} \frac{R_1}{R_2} \quad (22)$$

tenglamaga kelish mumkin. Bu yerda  $R_{C_x} = \frac{1}{\omega C_x}$ ,  $R_0 = \frac{1}{\omega C_0}$  bundan,

$$C_x = C_0 \frac{\ell_2}{\ell_1} \quad (23)$$

ifoda kelib chiqadi

Bu ifoda noma'lum sig'imi  $C_x$  ni  $\ell_1$ ,  $\ell_2$  va  $C_0$  ma'lum ning qiymatlari orqali topishga imkon beradi.

### ***Ishni bajarish tartibi***

1. 4.4-rasm bo'yicha elektr zanjiri yig'iladi. Zanjirga sig'imi noma'lum bo'lgan kondensator ulanadi.

2. Dkontaktni reoxordning o'rtasiga qo'yiladi. Sig'implar magazinidan shunday  $C_1$  sig'imi tanlab olinadiki, bunda telefonning tovushi eng past (ostsillografagi signal minimal) bo'lsin. So'ngra D kontaktni reoxord bo'ylab surib telefondagi tovush (ostsillografagi signal) ning o'zgarishi qayd qilib boriladi. Telefonda tovush yo'qolishi (ostsillografagi signal0 ga teng bo'lishi) bilan kontaktni surish to'xtatiladi. Shu nuqtaga nisbatan reoxordning elkalari uzunliklari  $\ell_1$  va  $\ell_2$  jadvalga yozib olinadi. Bu tajribani 3 marta takrorlash lozim.

3. Sig'imi noma'lum birinchi kondensator o'miga ikkinchi noma'lum sig'implikondensator ulanadi. Bu kondensator uchun ham 2-bandda bajarilgan ishlar takrorlanadi.

4.  $C_{x_1}$  va  $C_{x_2}$  kondensatorlar ketma-ket ulanadi va yana 2-bandda bajarilgan ishlar takrorlanadi. So'ngra bu ikki noma'lum sig'impli kondensator parallel ulanib tajriba yana 3 marta takrorlanadi.

5. Tajribada topilgan  $\ell_1$  va  $\ell_2$  hamda  $C_0$  qiymatlarni (23) formulaga qo'yib har bir kondensatorning sig'imi hisoblab topiladi. Shuningdek, kondensatorlarning ketma-ket va parallel ulangandagi natijaviy sig'implari ham hisoblanadi. So'ngra, ikki noma'lum kondensatorni ketma-ket va parallel ularshda olinadigan natijaviy sig'im (9) va (12) nazariy formulalar bo'yicha hisoblanib, tajribada olingan natijalar bilan taqqoslanadi.

### ***Tajriba va hisoblash ma'lumotlari quyidagi jadvalga yozib boriladi***

Kondensatorlar	$\text{№}$	$C_0$ (f)	$\ell_1$ (m)	$\ell_2$ (m)	$C_x$ (f)	$\langle C_x \rangle$
$C_{x_1}$ - kondensator	1					
	2					
$C_{x_2}$ - kondensator	1					
	2					
$C_{x_1}$ va $C_{x_2}$ ketma-ket ulangan	1					
	2					
$C_{x_1}$ va $C_{x_2}$ parallel ulangan	1					
	2					

### *Nazorat savollari*

1. Elektr sig'imi deb qanday fizik kattalikka aytildi va u qanday birliklarda o'lchanadi?
2. Kondensator qanday asbob, uning vazifasi nimadan iborat?
3. Kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulanganda natijaviy sig'im qanday formulalarga ko'ra topiladi?
4. Kondensatorning o'zgaruvchan tokka nisbatan qarshiligi (sig'imiylar qarshilik) qanday aniqlanadi?
5. Yassi kondensatorning sig'imini aniqlash formulasini keltirib chiqaring.
6. Nima uchun sig'imi o'lchashda o'zgaruvchan tokdan foydalaniladi?
7. Kondensatorning noma'lum sig'imini ko'priq usulda aniqlash formulasini keltirib chiqaring.

### *Adabiyot*

1. Nazarov O'.Q. «Umumi fizika kursi» 2-qism (Elektr va elektromagnetizm)  
Toshkent, «O'zbekiston», 2002 yil.

2. Safarov A.S. «Umumi fizika kursi» (Elektromagnetizm va to'lqinlar),  
Toshkent, «O'qituvchi», 1992 yil.

3. M.Ismoilov, P.Xabibullayev, M.Xaliulin «Fizika kursi» «O'zbekiston»,  
Toshkent, 2000 yil.

4. Haydarova M.Sh., Nazarov O'.Q. «Fizikadan laboratoriya ishlari», Toshkent, «O'qituvchi» 1989 yil.

5. V.I. Kozlov. Obshiy fizicheskiy praktikum. Elektrichestvo i magnetizm. Moskva, 1987 g.

## 15- LABORATORIYA ISHI

### **MODDANING ELEKTROKIMYOVİY EKVİVALENTİ, FARADEY SONİ VA ELEKTRON ZARYADI MIQDORINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** moddaning elektrokimyoviy ekvivalentini, Faradey sonini va elektron zaryadini aniqlash va olingan natijalarni jadvaldagn qiymatlari bilan solishtirish.

**Kerakli asboblar va meteriallar:** 1. Mis kuperosi eritmasi, solingen elektrolitik vanna  
2. Doimiy tok manbai.

- 3 Ampermetr, reostat va utkazgichlar
- 4 Sekundomer yoki soat
- 5 Tarozi, toshlari bilan.

#### **NAZARIY QISM**


Eritmalarda molekulalari ionlarga parchalanadigan moddalarga elektrolitlar deyiladi. Elektrolitlarga tuzli, ishqorli va kislotali eritmalar kiradi. Molekularning ionlarga parchalanish prostessiga elektrolitik dissostiastiya deyiladi. Elektrolitlardagi tok tashqi elektr maydoni ta'sirida ionlarningtartibli xarakatidan iboratdir.

Elektrolitlardan o'zgarmas tok o'tishi tufayli elektrodlarda modda ajralib chiqish hodisasiga elektroliz deyiladi.

Misoltariqasida mis kuperosining ( $CuSO_4$ ) suvdagi eritmasida elektroliz hodisasi kuzatiladi. Mis kuperosini suvda eritganda uning molekulalarining bir kismi ionlarga dissostiastivalanadi, ya'ni



Agarda mis kuperosining eritmasiga ikkita mis plastinka (elektrodlar) botirilib, bir plastinkani tok manbainiig musbat qutbiga, ikkinchisini manfiy qutbiga ulansa, ya'ni o'zgarmas tashqi elektr maydoni hosil etilsa, plastinkalar o'rtaida tok o'ta boshlaydi. (1-rasm)



1-rasm Qurilmaning sxemasi

Bu holda eritmada musbat zaryadli  $Si$  ionlari ikkita elektronini yukotgan mis atomi bo'lgani uchun elektronlar bilan to'yingan katoddan kerakli elektronlar olib zaryadsiz metall atomiga aylanadi va katod sirtiniqoplaydi. Ortiqcha

elektronlari bo'lgan ionlari esa anodga elektronlarini berib, anod materiali (mis) bilan birikadi va atrofida anod mis kuporosini hosil etadi. Natijada katoda mis ajraladi, anod esa eriydi.

Faradeyning birinchi qonuni bo'yicha elektroliz vaqtida elektroda ajralib chiqqan modda miqdori elektrolit orqali o'tgan zaryad miqdoriga proporsionaldir, ya'ni

$$m = kq \quad (1) \text{ bu yerda}$$

$m$  - elektrodda ajralib chiqqan modda miqdori

$q$  - elektrolitdan o'tgan elektr miqdori (kulonda)

$k$  - moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti

$$k = \frac{m}{q}$$

$q$  dan ko'rindaniki, moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti son jihatdan elektrolit orqali bir birlik elektr zaryad miqdori ( $1C$ ) o'tgan, elektrodda ajralib chiqqan modda miqdoriga teng.

Elektrolit orqalit vaqtda, o'zgarmas  $I$  tok o'tsa, zaryad miqdori  $q = It$  ga teng bo'lgani uchun (1) formula quyidagi kurinishda eziladi:

$$m = kIt \quad (2)$$

$I$  - zanjirdagi tok kuchi

$t$  - tok o'tish vaqt

Modda atom og'irligining valentligiga nisbati bilan o'lchanadigan kattalikka moddaning kimyoviy ekvivalenti deyiladi:

$A$  - modda atom og'irligi

$Z$  - modda valentligi

$$\frac{A}{Z} \text{ kimyoviy ekvivalent}$$

Moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti kimyoviy ekvivalentlarga proporsionalligini Faradeyning 2-qonuni tasdiqlaydi.

$$\frac{A}{Z} = Fk \quad (3)$$

$F$ - proporsionallik koefitsienti bo'lib, universal konstanta, Faradey soni deyiladi.

formuladagi « $k$ » ni qiymatini (1) ga qo'ysak Faradeyning ikkala qonunini birlashtiruvchi formula hosil bo'ladi, ya'ni:

$$m = \frac{A}{ZF} q \quad (4)$$

(4) dan Faradey sonini topamiz va fizik ma'nosini tushunamiz

$$F = \frac{A}{Z} q$$

yoki

$$F = \frac{AIt}{Zm}$$

(5)

(5) dan ko'rindiki agarda katodda ajralib chiqqan modda massasini uniig kimyoviy ekvivalentiga teng bo'lsa, ya'ni:

$$m = \frac{A}{Z}$$

bo'lsa               $F = q$               kelib chiqadi

Demak Faradey soni elektroliz vaqtida moddaning bir kilogramm- ekvivalentini ajratib chiqarish uchun zarur bo'lган zaryad miqdoriga teng ekan, ya'ni:

$$F = 9,648 \cdot 10^4 \frac{C}{mol}$$

Har qanday moddaning bir kilogramm-atomidagi atomlar soni bir xil bo'lib, u Avagadro sonidir:  $N_A = 6,02 \cdot 10^{23} mol^{-1}$

Har bir son Zeyaryadini olib yuradi.  $e$ - elektron zaryadi Faradey sonining bitta ion zaryadiga bo'lish orqali

$$\frac{F}{Z_e} = \frac{N_A}{Z}$$

(6) ni hosil qilamiz

(6) dan  $F = eN_A$  ga teng bo'lib, shunga asosan Faradey sonini yoki elektron zaryadini ( $e$ ) hisoblab topish mumkin.

$$e = \frac{F}{N_A}$$


(7)

Elektrokimyoviy ekvivalent  $k = \frac{m}{It}$  (8) dan hisoblanadi

$m$  - ajralib chiqqan modda massasi

$I$  - tok kuchi

$t$  - tok o'tish vaqtini bo'lib tajribada aniqlanadi



## ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Laboratoriya ishining yuriqnomasini o'qib o'rghaniladi va o'qituvchi savollariga javob berib ishni bajarishga ruxsat olinadi .
2. Katod vazifasini tasdiqlaydigan mis elektrodning  $m_1$  massasining JW-birinchi rusumli elektron tarozida tortib aniqlanadi.

ESLATMA: elektrod tortilishidan oldin ko'rilishi shart.

3. Mis kuporosidan  $m$  massasini tarozida tortib olinadi va uni distillangan suvda eritib eritma (200-250 ml) tayyorlanadi.
4. Mis kuporosi eritmasiga elektrodlarni tushirib, ularni qo'zg'almaydigan qilib mahkamlanadi.
5. Tajriba boshlangan t vaqt belgilanadi va shu zahotiyoy kalit ulanadi hamda reostat yordamida tok kuchi kattaligini 1,5 A qiymatda o'zgartirmay saqlanadi. Ampermetr ko'rsatgan I tokbelgilanadi va uni yozib olinadi.
6. 15-20 minut vaqt davomida elektrolitdan tok o'tgandan keyin kalit uziladi va  $t_2$  vaqt belgilab qo'yiladi. Elektrolitdan tok o'tgan vaqt hisoblanadi.
7. Katod eritmadan chiqariladi va u quritiladi. Katotda ajralib chiqqan mis massasini aniqlash uchun mis o'tirib qolgan elektrodni JW-l elektron tarozida tortiladi va  $\Delta m = m_2 - m_1$  ifodadan, ya'ni jarayonda elektrodda ajralib chiqqan misning  $\Delta m$  massasi hisoblanadi.
8. Tajriba natijalari asosida (8) tenglamadan foydalanib, misning k elektrokimyoviy ekvivalentiso'ngra ularning o'rtacha qiymatlari hisoblab topiladi.
9. Tajriba takrorlanadi va xatoliklari hisoblanadi.
10. (5) formuladan Faradey soni hisoblanib, jadvaldagagi qiymati bilan solishtiriladi.
11. (7) formuladan elektron zaryadni hisoblanib, u ham jadvaldagagi qiymati bilan solishtiriladi.
12. Tajribada aniqlangan natijalar jadvalga kiritiladi:

No	$m_1(g)$	$m_2(g)$	$\Delta m(g)$	$I(A)$	$t(s)$	$k \left( \frac{kg}{C} \right)$	$\bar{k}$	$\Delta \bar{k}$	$\varepsilon_k (\%)$	$F \left( \frac{C}{mol} \right)$	$e(C)$
1											
2											
3											

## SINOV SAVOLLAR

1. Elektr o'tkazuvchanlik xususiyatiga ko'ra suyuqliklar qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Elektrolit nima? Elektrolit dissotsiasiya va rekombinatsiya jarayonlari qanday paydo bo'ladi?
3. Qanday jarayonni elektroliz hodisasi deb ataladi?
4. Faradey qonunlarini aytib bering.
5. Elektrokimyoviy ekvivalentining fizik ma'nomini tushuntiring.

## **16- LABORATORIYA ISHI**

### **YARIM O'TKAZGICHLI DIODNI VOLT-AMPER TASNIFINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** 1. Yarim o'tkazgichli diodning tuzilishini va turlarini o'rganish.

2. Yarim o'tkazgichli dioddan o'tayotgan tokning unga qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligini o'rganish va tekshirish.

**Kerakli asbob va materiallar:**

1. O'zgarmas tok manbai
2. Reostat
3. Voltmetr
4. Ampermetr
5. Yarim o'tkazgichli diod (D7J yoki D226).
6. Elektr kalit va boshqa yordamchi aslahalar.

#### **NAZARIY QISM**

Yarim o'tkazgichlarning o'tkazuvchanligi uncha katta bo'lmaydi, chunki ularda erkin elektronlar soni juda kam. Agar yarimo'tkazgich tarkibiga ozgina boshqa turdag'i yarimo'tkazgich atomlari kiritilsa, yarimo'tkazgichning elektrik qarshiligi keskin o'zgaradi. Kiritilayotgan aralashma atomining xususiyatiga qarab o'tkazuvchanlik turi aniqlanadi. Ikki turdag'i o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan asbobni **yarim o'tkazgichli diod** deb atash qabul qilingan.

Diod -elektr tokini bir tomonlama o'tkazish xususiyatiga ega bo'lgan elektron asbobdir. Diodlar ikki xil: vakuumli va yarim o'tkazgichli (asosi germaniyva kremniy kristallari) bo'ladi. Germaniy monokristali asosida yasalgan diodlardanbiriga D7J (J harfi o'rniga boshqa harflar ham bo'lishi mumkin) misol bo'laoladi. Diod quyidagicha tuzilishga ega


(1-rasm): germaniy monokristalidan yasalgan plastinka (*a*) dan iborat bo'lib, uning bir tomoniga bir tomchi indiy (*b*) payvandlangan. Bir-biridan chegara bilan ajralib turadigan elektron (*n*) va teshikli (*p*) o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikkita soha hosil qilingan. Bu soha elektr tokini bir tomonlama o'tkazish xususiyatiga ega.


**1-rasm.**

Germaniy plastinkasi metall korpus (*g*) asosiga qalay (*q*) bilan kavsharlangan va u manfiy qutb hisoblanadi. Ikkinci kontakt (*d*) indiy tomchisiga ulangan va u musbat qutb hisoblanadi. U shisha (*f*) izolator orqali korpusdan izolatsiyalangan.

Diodning uchlari paneldag'i «musbat» va «manfiy» isho-ralar bilan belgilangan ikkita qisqichga ulangan. Tashqi elektr maydon bo'lмаган hoi uchun elektronli va teshikli yarim o'tkazgichlarning yondosh sohasida elektr maydon hosil bo'lishini qarab chiqamiz. Elektronlarning issiqlik energiyasi eng kichik holatiga mos keluvchi energiyadagi harakati tufayli elektronlar teshikli yarim o'tkazgich bilan chegaradosh qatlama to'planadi, teshiklar esa teshikli yarim o'tkazgichga qo'shni elektronli yarim o'tkazgich qatlama to'planadi. Shuning uchun elektronli yarim o'tkazgich 2 bilan chegaradosh bo'lgan teshikli yarim o'tkazgich 1 qatlama manfiy potensialga ega bo'ladi (2-rasm).

Teshikli yarim o'tkazgich 1 bilan chegaradosh bo'lgan elektronli yarim o'tkazgich 2 esa musbat potensialga ega bo'ladi. Elektron — teshikli o'tishga bevosita yopishib turgan elektronli va teshikli yarim o'tkazgichlar sohalari orasida potensiallar ayirmasi hosil bo'ladi.





**2- rasm.**


Binobarin, elektr maydon paydo bo'ladi. Biror vaqt oralig'ida teshikli yarim o'tkazgichda qancha elektronlar qayta qo'shilsa, shu vaqt oralig'ida elektronli yarim o'tkazgichdan teshikli yarim o'tkazgichga shuncha elektron o'tadi, shu vaqt oralig'ida elektronli yarim o'tkazgichda elektronlar bilan qancha teshiklar qayta qo'shilsa, shu vaqt oralig'ida teshikli yarim o'tkazgichdan elektronli yarim o'tkazgichga shuncha teshiklar o'tadi. Natijada ma'lum kattalikdagi elektr maydon vujudga keladi.

Elektronli va teshikli yarim o'tkazgichlarning yondosh chegara yaqinida hosil bo'lgan qatlam 1 va 2 da tok tashuvchilar (elektronli yarim o'tkazgichlarda va teshiklar teshikli yarim o'tkazgichlarda) kamayganligini osongina tasawur qilish mumkin.

Yupqa qatlamning qarshiligi yarim o'tkazgichning qolgan hajmidagi qarshilikdan ancha katta bo'ladi. Bu qatlam *berkituvchi qatlam* deb ataladi. Shunday qilib, elektronli va teshikli yarim o'tkazgichlar kontaktida ularning yondosh chegarasida kontakt potensiallar ayirmasi, shuningdek berkituvchi qatlam hosil bo'ladi.

Bundan so'ng elektron-teshikli o'tishda o'zgaruvchan elektr tokini to'g'rilashning fizik mohiyatini yuqoridagilar asosida tushuntiriladi.

Faraz qilaylik, bitta monokristallda hosil qilingan elektronli va teshikli yarim o'tkazgichlarning yondoshgan sistemasiga biror potensiallar ayirmasi berilgan bo'lsin. Unda teshikli yarim o'tkazgich musbat potensialga, elektronli yarim o'tkazgich esa manfiy potensialga ega bo'ladi (3- rasm). Bu holda tashqi elektr maydon elektronli va



**3-rasm.4-rasm.**

teshikliyarimo'tkazgichningyondoshsohasidagielektrniaydonnikuchsizlantiradivaelektronliyarimo'tkazgichdanelektronlarni, teshikliyarimo'tkazgichdanesateshiklarnibir-birigaqaramaqarshiharakatlantiradi (elektron) — teshiklio'tish).

Bundaberkituvchiqatlamningqalinligivauningqarshiligikamayadi.

Elektron — teshiklio'tishorqalitokta-shuvchilar ko'po'tadi, binobarin, kattatoko'tadi. Busis-temagaqo'yilganpotensialningishorasialmashtirilsa tashqielektrmaydonelektronlivateshikliyarimo'tkazgichningyondoshsohasidagimaydonnikuchaytiradi. (4-rasm),

Tok tashuvchilar tashqi maydon ta'sirida yarim o'tkazgichlarning bo'linish chegarasida harakatlanadi. Berkituvchi qatlamning qalinligi ortadi va uning qarshiligi ko'payadi. Buning natijasida elektron — teshikli o'tish orqali ancha kam tok o'tadi.


Quyida *D7J*. yarim o'tkazgichli diodni tavsiflovchi eng muhim parametrlarni (muhit temperaturasi 20°C bo'lgan hol uchun) keltiramiz:

teskari kuchlanishning eng katta qiymati 400 V;  
eng katta teskari kuchlanishda teskari tok (o'rtacha qiymati) 0,3mA;  
eng katta to'g'rilangan tok (to'g'ri tokning o'rtacha qiymati) 300 mA;

eng katta to'g'ri tokda diodda kuchlanishning tushishi 0,5 V.


#### **QURILMANING TUZILISHI VA ISHLASHI**

Qurilma o'zgarmas tok manbai, reostat, o'zgarmas tok voltmetri va ampermetri, yarim o'tkazgichli diod, elektr kalit va boshqa yordamchi aslahalardan tashkil topgan. Qurilmani ishgaga tushirish uchun K kalit yordamida zanjir tok manbaiga ulanadi. Shunda zanjirdan o'tayotgan tok va yarim o'tkazgichli diod uchlari oraliq'iga qo'yilgan kuchlanish miqdorini mos ravishda ampermetr va voltmetr ko'rsatadi. Tajriba davomida zanjirdagi tokning yarim o'tkazgichli diodga qo'yilgan



- rasm.

5



**6- rasm.**

kuchlanishga bog'liqligi o'rganiladi. Diodga har xil kattalikdagi kuchlanishlarni berib, undan o'tgan tok qiymatlari yozib oli-nadi. Buning uchun 5- va 6- rasmlarda keltirilgan ishning elektr sxemasi yig'iladi. Tajribada aniqlangan natijalar asosida  $I=f(U)$  grafigi millimetrlı qog'ozga chiziladi.

#### **ISHNI BAJARISH TARTIBI**

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasi o'qib o'rganiladi va sxemalar tahlil qilinadi. O'qituvchining savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat olinadi.

#### **1-TOPSHIRIQ. To'g'ritokkattaligining diodga qo'yilgan kuchlanish qiymatiga bog'liqligini o'rganish.**

2. To'g'ri tok kattaligini aniqlashga mo'ljallangan 5-rasmida keltirilgan ishning elektr sxemasi yig'iladi va uni o'qituvchiga tekshirtiriladi.
3. Kalit A'ni qo'shing va potensiometr  $R$  orqali diodga turli xil kuchlanishlarni berib, unga mos keladigan toklarning qiymatlarini milliampermetr yordamida o'lchab oling va natijalarni 1-jadvalgakiritiladi.

#### **1 –jadval**

O'lhash tartibi	Kuchlanish $U, V$	To'g'ri tok $I, mA$	Teskari tok $I, \mu A$
1			
2			
3			

Eslatma. Zanjrniberkitishdanoldinreostatningsirpanuvchikontaktinishundayholatga keltiribqo'yingki, bundadiodgaberiladiganboshlang'ichkuchlanishqiymatitaxminan 0 ga tengbo'lsin. Tokniquyidagichaberishmaqsadgamuvofiqdir: harsafar 0,5 mAdanoshirib borilibto 30 mAgachabo'lganoraliqdao'lhashnidavomettirishmaqsadgamuvofiq bo'ladi.

## 2- TOPSHIRIQ.Dioddagi teskari tokning kuchlanishga bog'liqligini o'rGANISH.


4. Teskari tok kattaligini aniqlash uchun 6-rasmdagi ishning elektr sxemasini yig'ing va uni o'qituvchiga tekshirtiriladi.
5. Potensiometr  $R$  yordamida diodga turli xil kattalikdagi kuchlanishlarni berib, tok kuchining qiymatlarini yozib olinadi. Tajribada topilgan natijalarini 2-jadvalga kiritiladi.

### 2-jadval

O'lhash tartibi	Kuchlanish $U, V$	To'g'ri tok $I, mA$	Teskari tok $I, \mu A$
1			
2			
3			

Eslatma. Teskari tok kattaligi kichik kuchlanishlardan boshlab o'lchanadi, uning kattaligi reostat  $R$  yordamida rostlanadi. O'lhashlarda mikroampermetrdagi kuchlanishlar tushuvi hisobga olinmaydi, chunki mikroampermetrning qarshiligi diodning teskari qarshiligiga nisbatan juda kichik.

6. Kuchlanishni har safar 1 V dan orttiring va dioddagi teskari tok kattaligi o'lchanadi.
7. Kuchlanish 0,5 V bo'lgandagi holatda tekshirilayotgan dioddagi to'g'ri tok minimal qiymatini o'lchanadi.
8. Laboratoriya ishida olingan natijalar asosida millimetrali qog'ozga 1 - va 2- jadvallarda keltirilgan natijalarga tayanib diodning to'g'ri va teskari tok grafiklari chiziladi.



7- rasm.

Chizilgan grafik, agarda tajriba to'g'ri o'tkazilgan bo'lsa, 7- rasmida keltirilgan grafik ko'rinishida bo'ladi. Grafikni millimetrali qog'ozda chizishda albatta har bir millimetr oraliq aniqligini e'tiborga olish kerak.

## SINOV SAVOLLAR

1.  $p$  va  $n$  turidagi o'tkazgichlar kontaktining xossasini tushuntiring.
2. Yarim o'tkazgichli diodning tuzilishini va uning ishlashini tushuntiring.
3. Yarim o'tkazgichli diodning volt-amper tavsifini grafik shaklda qanday qurish mumkin?
4. Yarim o'tkazgichlarning qo'llanish sohalarini ayting.

## 17- LABORATORIYA ISHI

### FARADEY DOIMIYSINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** 1. Elektroliz yordamida vodorodni hosil qilish va uning V hajmini o'lchash.

2. Elektroliz natijasida ishlatilgan elektr ishni W o'lchash.

3. F Faradey doimiysini aniqlashni o'rganish

**Kerakli asbob va materiallar:**

1. Suv elektrolizi uchun asbob
2. Patnis 6x5,
3. Joulvattmetr
4. Doimiy tok manbai
5. Multimetр
6. Termometr
7. Sulfat kislota aralashtirilgan eritma.

### NAZARIY QISM



Eritmalarda molekulalari ionlarga parchalanadigan moddalarga **elektrolitlardeyiladi**. Elektrolitlarga tuzli, ishqorli va kislotali eritmalar kiradi. Molekulalarning ionlarga parchalanish prosessiga elektrolitlik **dissotsiatsiya deyiladi**. Elektrolitlardagi tok tashqi elektr maydoni ta'sirida ionlarning tartibli harakatidan iboratdir. Elektrolitlardan o'zgarmas tok o'tishi tufayli elktrodlarda modda ajralib chiqish hodisasiiga **elektroliz deyiladi**.

Elektroliz mobaynida elektr toki kimyoviy reaksiyani vujudga keltiradi. Modda miqdori elektrolitda oqib o'tgan  $Q$  zaryadga to'g'ri proporsional. Elektr zaryadning kattaligi  $F$  Faradey doimiysi yordamida topilishi mumkin. Bu universal doimiylik  $e$  elementar zaryad va  $N_A$ -Avagadro soniga bog'liq:

$$F = N_A e \quad (1)$$

Bu Faradey  $F$  soni – 1 mol elektronlarga to'g'ri keladigan elektr zaryadning miqdori ekaniniko'ssatadi. Ajralib chiqqan moddaning ma'lum miqdoriga  $n$  molyar qiymatini qo'shib va  $z$  ionlarining valentligini hisobga olib, zaryad kattaligini aniqlovchi formulaga kelamiz:

$$Q = nFz \quad (2)$$

Bu tajribada elektroliz yo'li bilan vodorodning ma'lum miqdorini olish natijasida Faradey doimiysi aniqlanadi. Elektroliz yordamida hosil bo'lgan vodorod,  $P$  tashqi bosim va  $T$  xonadagi temperaturada olinadi. Keyin uning  $V$  hajmi aniqlanadi. Hosil bo'lgan vodorod molekulalari  $n_1$  mol miqdori ideal gaz holat tenglamasi yordamida hisoblanadi:

$$n_1 = \frac{PV}{RT} \quad (3)$$

Bunda  $R = 8,314 \frac{J}{molK}$  (universal gaz doimiysi)

Har  $H^+$  ioni elektr tokda elektronlar yordamida neytrallanadi, ya'ni vodorod ionlarining  $z$  valentligi 1 ga teng. 1 mol  $H^+$  ionlar uchun, neytrallashuvi mobaynida 1 mol elektronlar kerak, 1 mol  $H_2$  ni hosil qilish uchun esa 2 mol elektron kerak. Hosil bo'lgan vodorod atomlarining  $n_1$  mol miqdori, elektronlarning mol miqdoriga teng.

$$n = 2 \frac{PV}{RT} \quad (4)$$

Shu bilan birga elektrolizda sarf bo'lgan  $W$  elektr ish doimiy  $U_0$  kuchlanishda o'lchanadi.

Aniqlash kerak bo'lgan zaryad miqdori:

$$Q = \frac{W}{U_0} \quad (5)$$

Demak, Faradey doimiysi (2),(4),(5) tenglamalardan topish mumkin:

$$F = \frac{1}{2} \frac{WRT}{U_0 PV} \quad (6)$$

#### FARADEY DOI MIYSINI ANIQLASH ASBOBINI ISHGA TAYYORLASH

1. Suv elektrolizi uchun asbobni patnisiga joylashtiriladi.
2. Gaz kranchalarining balandligigacha shkalali idish ko'tariladi va 2 ta gaz kranchalari ochib qo'yiladi.
3. Shkalali idishni gaz kranchalarigacha aralashtirilgan sulfat kislotasi bilan to'ldiriladi. Gaz kranchalari mahkamlanadi.
4. Doimiy tok manbaining manfiy va musbat qutblarini joulvattmetrning uyalariga qo'shiladiva voltmetr parallel ulanadi.(O'lchov chegarasi 30V)
5. Suv elektrolizi uchun asbobning elektrodlari joulvattmetrning uyalariga ulanadi.

Distillangan suvning o'tkazuvchanligi juda past bo'lganligi uchun 1 mol/l konsentratsiyadagi aralashtirilgan sulfat kislotasi suv elektrolizida ishlatiladi.

#### ISHNING BAJARILASH TARTIBI

*Suv elektrolizi uchun asbobni tayyorlash:*

1. Doimiy tok manbai tok zanjiriga qo'shiladi. U kuchlanish 30V ga yetkaziladi va taxminan 5 daqiqa davomida elektroliz o'tishi kuzatiladi.
2.  $U_0$  kuchlanish o'chiriladi. Asta-sekin 2 ta gaz kuchlanishiochib qo'yiladi keyin kislotaningsathini shkalali idishni ko'tarilayotganda, gaz kranchalarining balandligidan past balandlikka ko'tariladi.Gaz kranchalarini yopib qo'yiladi.

*Joul-vattmetr:*

3. Joulvattmetrni ulab 15 daqiqa qizdiriladi.
4. Vaqtini 1s ga tok o'lchash diapozonini 1A ga, kuchlanish o'lchash diapozonini 30Vga, funksiyalar tanlash kalitini "Ws" ga o'rnatiladi.

*Og'ishni sozlash:*

5. Boshqarish kalitini “Reset”, ya’ni “Qayta o’rnatish” ga, keyin “Run”, ya’ni “Bajarish” ga o’rnatiladi.
6. Asbobni nol korrektori bilan stabillashtiriladi.
7. Yana boshqarish kalitini “Reset” ga o’rnatiladi.

*O’lchash:*

8.  $U_0$  kuchlanishni  $30V$  ga o’rnatiladi.
9. Suv elektrolizi asbobining naychasida (manfiy qutbida)  $H_2$  gazning hosil bo’lishini kuzatiladi. Har vaqt shkalali idishning sathini pastga qarab shunday o’zgartiriladiki, bunda idishdagi suyuqlik sathi doimo bir balandlikda bo’lsin.
10. Suyuqlik sathi  $5ml$  ga qarab kelganda: Joulvattmetning boshqarish kaliti “Run”ga o’rnatiladi.
11. Suyuqlik sathi  $25ml$  ga yetganda:  $U_0$  kuchlanish o’chiriladi. Joulvattmetr  $W$  elektr ishi uchun asbobning ko’rsatishlarini yozib olinadi.
12. Xona  $t$  temperaturasi va atmosfera bosimi  $P$  o’lchanadi.

$$V_1 = 5sm^3, V_2 = 25sm^3, t = 22^0C, P = 101kPa$$

$$U_0 = 30V, W = 4,65 \cdot 10^3 Wts$$

$$V = V_2 - V_1 = 20sm^3, T = t + 273K = 295K.$$

$$F = \frac{1}{2} \frac{WRT}{U_0 PV} \text{ formulaga qo’ysak, } F = 94000 \frac{C}{mol}$$

$$\text{Jadvaldagи qiymat: } F = 96435 \frac{C}{mol}$$

Nº	$U(V)$	$I(A)$	$t(s)$	$P(Pa)$	$V_1(sm^3)$	$V_2(sm^3)$	$W(Ws)$	$F(\frac{C}{mol})$
1								
2								
3								

#### SINOV SAVOLLAR

1. Elektrolitlarning elektr o’tkazuvchanligini tushuntiring.
2. Faradey qonunlari.
3. Moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti nima, uning fizik ma’nosini tushuntiring.
4. Faradey soni, kimyoviy ekvivalentining fizik ma’nosini tushuntiring.

#### 18- LABORATORIYA ISHI

#### TANGENS-BUSSOL YORDAMIDA YER MAGNIT MAYDON KUCHLANISHINING GORIZONTAL TASHKIL ETUVCHISINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** 1. Tangens-Bussol yordamida yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini o’lchash

2. O’lchash xatoliklarini hisoblash

**Kerakli asbob va materiallar:**



1. Tangens-Bussol
2. Aylana shaklidagi tokli g’altak

3. Doimiy tok manbai
4. Kalit
5. Ampermetr
6. Reostat

### NAZARIY OISM

Yer magnetizmi, geomagnetizm – Yerning xususiyatlaridan biri, Yer shari atrofidagi magnit maydoniga bog‘liqdir. Yerning magnit qutblari geografik qutblariga mos kelmaydi va vaqt o‘tishi bilan o‘z o‘rnini o‘zgartirib turadi. Yerning janubiy magnit qutbi shimoliy geografik qutbi yaqinida shimoliy magnit qutbi esa janubiy geografik qutbi yaqinida joylashgandir (1-rasm). Yer magnit maydonini taxminan Yer markazidan bir necha yuz kilometr janubda joylashgan magnit momenti  $P_m = -8,1 \cdot 10^{22} \frac{J}{Tl}$  ga teng bo‘lgan magnit dipoli hosil qilgan maydon deb qarash mumkin.

Yer magnit maydoni kuchlanganligi uncha katta bo‘lmasa ham u juda keng tarqalganligi sababli uning energiyasi juda kattadir. Yerning magnit induksiya oqimiga teng bo‘lgan magnit induksiya oqimi hosil qilishlik uchun, Yer ekvatoriga o‘ralgan simdan 660 mln amper kattalikdagi tokni o‘tkazishi kerak bo‘lar edi.



Yer magnit maydonini kompasning magnit strelkasi yordamida osongina tekshirish mumkin. Agar magnit strelkasi og‘irlik markazidan yengil ipga osib qo‘ylsa, u Yer magnit maydon kuch chiziqlari, ya’ni maydon kuchlanganligi vektori  $\vec{H}$  bo‘ylab oreintatsiyalanadi. Xususiy hollarda, Yerning magnit maydon kuchlanganligi ekvatorda gorizontal yo‘nalgan bo‘lib 0,34 erstedga va qutbda esa vertikal yo‘nalgan bo‘lib 0,66 erstedga tengdir.

$\vec{H}$  vektorining miqdori Yer magnetizmining elementlari, ya’ni magnit og‘ish burchagi ( $\phi$ ), gorizontal tashkil etuvchisi ( $\vec{H}_0$ ), enkayish burchagi ( $\alpha$ ) va vertikal tashkil etuvchisi  $\vec{H}_z$  bilan ifodalanadi.

Yer magnetizmi elementlari to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasida quyidagicha joylashgan (2-rasm):  $y$ -geografik meridian,  $x$ -geografik kenglik va  $z$ -vertikal chiziq bo‘ylab yo‘nalgan koordinata o‘qlari. Yer magnit maydon kuchlanganligi  $\vec{H}$  ning  $x$ ,  $y$ ,  $z$  – o‘qlariga bo‘lgan proyeksiyalari  $\vec{H}_x$ ,  $\vec{H}_y$ ,  $\vec{H}_z$  – larga Yer magnit maydonining shimoliy, sharqiy va vertikal tashkil etuvchilarini deb ataladi.

Yer magnit maydon kuchlanganligi  $\vec{H}$  vektorning gorizontallik tekislikdagi proyeksiya  $\vec{H}_0$  ga Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi deyiladi.


$\vec{H}$  vektor joylashgan H<sub>0</sub>OZ tekislikka *magnit meridian tekisligi* deyiladi. Magnit meridian tekisligi H<sub>0</sub>OZ bilan YOZ tekisligi orasidagi burchak  $\varphi$  ga magnit maydonning og'ish burchagi deyiladi va Yer magnit maydon kuchlanganligi  $\vec{H}$  vektor bilan gorizontal tashkil etuvchisi  $\vec{H}_0$  orasidagi burchak  $\alpha$  ga esa enkayish burchagi deyiladi.

Yer magnetizmini xarakterlovchi kattaliklar, ya'ni elementlar kompas, magnit teodometr, turli magnitometrlar, magnit tarozilar, magnit variometrlar va boshqalar yordamida o'lchanadi. Bundan tashqari, dengizda, havoda o'lchanash uchun kema, samolyot va vertolyotlarga maxsus asboblar o'rnatiladi.

*Yerning magnit maydoni doimiy va o'zgaruvchan magnit maydonlardan tashkil topgandir.* Doimiy magnit maydoni Yer yuzining hamma joyida mavjud bo'lib, juda sekin, "asriy" ravishda o'zgaradi. U Yer magnit maydonining 99% ni tashkil qiladi. Yer doimiy magnit maydonning mavjud bo'lishiga sabab: Yer ichki qatlamlarida kechadigan turli jarayonlar sabab bo'ladi. O'zgaruvchan magnit maydon Yer magnit maydonining 1% ni tashkil etadi va Yer atmosferasining yuqori qatlamlarida hosil bo'lgan elektr toklaridan vujudga keladi. Shu bilan birga, Yer magnit maydonining tasodifiy o'zgarishlari ham mavjuddir. Yer magnit maydonining tasodifiy o'zgarishlari Quyoshda sodir bo'ladigan chaqnash hodisalariga ham bog'liq, ular magnit bo'ronlariga sabab bo'ladi, radiolokatorni buzadi.

#### QURILMANING TUZILISHI VA O'LCHASH USULI

Tangens-galvanometr (tangens-bussol) (n) ta vertikal sim o'ramidan iborat (r) radiusli g'altakdan va g'altak markaziga gorizontal tekislikda joylashtirilgan kompasdan tashkil topgan. G'altakda tok bo'lmaganda magnit strelkasi Yerning (N-S) magnit meridiani bo'ylab joylashadi.



G'altakni vertikal o'q atrofida aylantirib g'altak tekisligini magnit meridian tekisligi bilan ustma-ust tushishga erishish mumkin (3-rasm).

Bunday holatda g'altak orqali tok o'tkazilsa, magnit strelkasi qandaydir ( $\varphi$ ) burchakka buriladi. Bu holat magnit strelkasiga 2 ta maydon ta'siri orqali tushuntiriladi: Yerning magnit maydoni (gorizontal tashkil etuvchisi)  $H_0$  va tok hosil qilgan maydon  $H_i$ . Superpozitsiya prinsipiiga ko'ra, magnit strelkasiga ta'sir etuvchi natijaviy magnit maydon kuchlanganligi  $\vec{H}$ ,  $\vec{H}_0$ ,  $\vec{H}_i$ , vektorlarning geometrik yig'indisiga teng:


$$\vec{H} = \vec{H}_0 + \vec{H}_i$$

Bitta asosga o'ralgan ( $n$ ) ta o'ramdan iborat aylanma o'tkazgichning markazidagi magnit maydon kuchlanganligi

$$H_i = \frac{In}{2r}, \quad (1)$$

bunda  $I$  – o'ramdagi tok kuchi,  $r$  – g'altak radiusi,  $n$  – o'ramlar soni.

(1) ifodani ( $Id\ell$ ) tok elementi uchun Bio-Savar-Laplas qonunidan osongina olish mumkin



Aylanma tok kuchlanganligi  $\vec{H}_i$  o'ram tekisligiga perpendikular bo'lgan tekislikda yotadi (4-rasm). Chunki aylanma tokli o'ramning tekisligi bilan mos tushadi, u holda  $\vec{H}_i$  vektor  $\vec{H}_0$  vektorga perpendikular

$$3\text{-rasmdan ko'rindiki, } \quad tg\varphi = \frac{H_i}{H_0} \quad \text{va} \quad H_0 = \frac{H_i}{tg\varphi}. \quad (2)$$

Shunday qilib, (1) va (2) ifodalardan Yer magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisini hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$H_0 = \frac{In}{2rtg\varphi} = \frac{In}{2r} ctg\varphi \text{ (A/m)}$$


$H_0$  ni tangens-bussol g'altagidagi tokning 3-5 ta qiymatida o'lchab,  $H_{o'r} = \frac{\sum H_{0i}}{n}$  o'rtacha qiymat va og'ishning o'rtacha qiymati topiladi:

$$\Delta H_{0o'r} = \frac{\sum \Delta H_{0i}}{n} \quad \text{bu yerda,} \quad \Delta H_{0i} = |H_{0o'r} - H_{0i}|$$

Strelka uchlaringin o'ram markazi bilan aniq mos tushmasligi sababli shimoliy ( $\varphi_N$ ) va janubiy ( $\varphi_S$ ) uchlari bo'yicha hisoblashlar olish kerak. Xatoliklarni kamaytirish uchun har bir tok qiymati uchun og'ish burchagi ( $\varphi'$  va  $\varphi''$ ) tokning turli yo'nalishlari uchun ikki martadan o'lchanadi va hisoblanadi

$$\varphi_i = \frac{\varphi_{iN} + \varphi_{iS} + \varphi_{iN}'' + \varphi_{iS}''}{4}.$$

6-rasm. Qurilmaning elektr sxemasi:



#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Tangens-galvanometrni shunday o‘rnatalidiki, o‘ram tekisligi magnit meridiani bilan mos tushsin.
2. K (K') kalit va P – o‘tkazuvchilar ulanib, tok manbai yoqiladi. O‘zgaruvchi rezistor (R) yordamida magnit strelkasini  $30^{\circ}$ - $50^{\circ}$  gacha og‘diruvchi tok kuchi beriladi.  $I_i$  – ampermetr ko‘rsatishi va ( $\varphi_{iN}$  va  $\varphi''_{iS}$ ) burchaklarning qiymatlari berilgan tok uchun jadvalga yoziladi.
3. Almashtirgich (P) yordamida tok yo‘nalishi o‘zgartirilib  $I''_i$  va  $\varphi''_{iN}$  va  $\varphi''_{iS}$  qiymatlari yoziladi.
4. Tajriba tokning 3 ta turli xil qiymatlarda takrorlanadi.
5.  $H_{0o'r}$ ,  $\Delta H_{0o'r}$  larning qiymatlari hisoblab topiladi

$$H_0 = H_{0o'r} \pm \Delta H_{0o'r} \delta = \frac{\Delta H_{0o'r}}{H_{0o'r}} \cdot 100\% .$$

Nº	$I_i^I$	$I_i^{II}$	$I_i(A)$	$\varphi_{iN}^I$	$\varphi_{iS}^I$	$\varphi_{iN}^{II}$	$\varphi_{iS}^{II}$	$\varphi_i$	$H_{0i}$	$H_{0o'r}$	$\Delta H_{0i}$	$\Delta H_{0o'r}$	$\delta$
1													
2													
3													

#### SINOV SAVOLLAR

1. Magnit induksiya vektori deb nimaga aytildi va u qanday birliklarda o‘lchanadi?
2.  $\vec{B}$  vektoring yo‘nalishi qanday aniqlanadi?
3. Magnit maydon kuchlangani va induksiyasi qanday bog‘langan?
4. Magnit maydoni grafigi qanday tavsiflanadi. Elektr va magnit maydonlarining tasviri qanday ifodalanadi.

5. Magnit maydoni superpozitsiya prinsipi qayerda qo'llaniladi.
6. Bio-Savar-Laplas qonuni formulasini (vektor va skalyar) ko'rinishlarini yozing. Bu qonunning grafigi talqinini bering.
7. Bio-Savar-Laplas qonunini aylanma tok magnit maydonini hisoblashga tatbiqi.
8. Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini topish usulini tushuntiring va hisoblash formulasini keltirib chiqaring.

## 19- LABORATORIYA ISHI

### **O'ZGARUVCHAN TOK UCHUN OM QONUNINI TEKSHIRISH**

**Ishning maqsadi:** 1.O'zgaruvchan tok zanjiri uchun Om qonunining bajarilishini o'rganish

**Kerakli asbob va materiallar:**

1. 15—20  $\Omega$  li rezistor
2. 6  $\mu\text{F}$  li qog'oz kondensator
3. Biror yig'ma transformatorning elektromagnit g'altagi
4. O'zgaruvchan tok ampermetri
5. O'zgaruvchan tok voltmetrlari
6. Tovush generatori
7. Elektr toki manbai
8. Laboratoriya avtotransformatori
9. Vattmetr va boshqa yordamchi aslahalar

#### NAZARIY QISM

Ma'lumki, zaryadli zarralarning tartibli harakatini *elektr toki* deyiladi. Elektr toki ikki xil: o'zgarmas va o'zgaruvchan bo'ladi. O'zgarmas elektr tokining amplituda qiymati vaqtga bog'liq emas va o'zgarmaydi. O'zgaruvchan elektr tokining amplituda qiymati vaqt davomida o'zgarib turadi. Shu sababdan o'zgaruvchan elektr toki uchun o'zgarmas elektr toki qonunlarini qo'llab bo'lmaydi. Ma'lumki, o'zgarmas elektr tokining zanjiridagi tok kuchini quyidagicha ifodalanadi:


$$I = \frac{U}{R} \quad (1)$$

bunda:  $U$  — zanjir uchlariidagi kuchlanish

$R$  — shu zanjirdagi aktiv qarshilik

Faraz qilaylik, zanjirga  $R$ -aktiv,  $L$ -induktiv va  $C$ -sig'im (reaktiv) qarshiliklar ulangan bo'lsin (4.14.1-rasm). Shu zanjirni o'zgaruvchan elektr toki tarmog'iga qo'shilganida undagi qarshilikni o'zgarmas tok uchun yozilganday, ya'ni  $R_{um}=R_1+R_2+R_3$  shaklida yozib bo'lmaydi. Ammo Om qonunini o'zgaruvchan elektr toki uchun qo'llaganimizda zanjir elementlaridagi kuchlanishlar yig'indisi quyidagiga teng bo'ladi:

$$U = U_R + U_L + U_C \quad (2)$$



1-rasm

O'zgaruvchan tok zanjiriga aktiv qarshilik, induktiv g'altak va kondensatorlarni ularish sxemasi


Chunki, zanjirdagi istalgan oniy vaqtdagi kuchlanishni zanjir elementlarining har biridagi kuchlanishlaryig'indisi bilan ifodalanadi. Lekin ularning har birining qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Shuning uchun zanjirga berilgan kuchlanishning amplitudaviy qiymati elementlardagi kuchlanish tushishlarining vektor yig'indisiga teng deb olinadi va vektor diagramma orqali aniqlanadi. Zanjirdagi tok kuchi ham o'zgaruvchan bo'lib u quyidagicha ifodalanadi:

$$I = I_0 \cos \omega t \quad (3)$$

Shunday bo'sada, aktiv qarshilikda kuchlanish va tok bir fazada bo'lsa, kondensatorda esa kuchlanish faza bo'yicha tokdan  $\varphi=\pi/2$  orqada qolsada, induktiv g'altakda  $\pi/2$  oldinda bo'ladi. Zanjirning har bir elementidagi kuchlanish va tok faza bo'yicha turlicha mos tushishi, orqada qolishi va oldinda bo'lishi mumkin ekan. Shuning uchun ham (2) ni quyidagicha yozish mumkin, ya'ni

$$U = U_{R0} \cos \omega t + U_{C0} \cos(\omega t - \pi/2) + U_{L0} \cos(\omega t + \pi/2) \quad (4)$$

Bunda  $U_{R0}$ ,  $U_{C0}$ ,  $U_{L0}$  -mos ravishda, aktiv va reaktiv qarshiliklardagi kuchlanishlarning amplituda qiymatlari. Qarshiliklardagi kuchlanish va tok amplituda qiymatlarining fazalari farqini diagramma shaklida ifodalash mumkin (2- rasm).



**2-rasm. Vektor diagramma**

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, ixtiyoriy o'qdagi vektorlar proyeksiyalarining yig'indisi shu o'qdagi vektorlar proyeksiyalari yig'indisiga teng.

Unda, kuchlanishning amplituda qiymatini vektorlar modullari yig'indisi shaklida ifodalash mumkin, ya'ni

$$\vec{U}_0 = \vec{U}_{R0} + \vec{U}_{C0} + \vec{U}_{L0} \quad (5)$$

Yuqoridagi 2-rasmdagi diagrammadan elektr zan-jirga o'tkazgichlarni ketma-ket ulashda kuchlanishning qiymatini quyidagicha yozish mumkin:

$$U_0^2 = U_{R0}^2 + (U_{L0} - U_{C0})^2$$

yoki

$$U_0 = \sqrt{(I_0 R)^2 + (I_0 R_L - I_0 R_C)^2} = I_0 \sqrt{R^2 + (R_L - R_C)^2} \quad (6)$$

Ma'lumki, induktiv va sig'im qarshiliklarning g'altak induktivligi va kondensator sig'imi hamda ularidan o'tadigan tok chastotasiga bog'liqligi asosida bunday yozilishini bilamiz:

$$R_L = \omega L; \quad R_C = \frac{1}{\omega C}$$

Unda, (6) quyidagi shaklga keladi, ya'ni

$$U_0 = I_0 \sqrt{R^2 + (\omega L - \frac{1}{\omega C})^2} \quad (7)$$

(7) dan zanjirdagi  $I_0$  tokni topib, uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$I_0 = \frac{U_0}{\sqrt{R^2 + (\omega L - \frac{1}{\omega C})^2}} = \frac{U}{Z} \quad (8)$$

Unda, to'liq kuchlanish fazasining tebranishi  $\omega t + \phi$  ga tengligi asosida kuchlanishning oniy vaqtdagi qiymatini faza o'zgarishi orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$U = U_0 \cos(\omega t + \phi). \quad (9)$$

Tok kuchi va kuchlanish orasidagi fazalar farqi .2-rasmdan foydalanib topiladi, ya'ni

$$\cos \phi = \frac{U_R}{U_0} = \frac{I_0 \cdot R}{I_0 \sqrt{R^2 + (\omega L - \frac{1}{\omega C})^2}} = \frac{R}{Z} \quad (10)$$


#### **QURILMANING TUZILISHI VA ISHLASHI**

Qurilma laboratoriya avtotransformatori, induktivligi rostlanadigan drossel, o'zgarmas qarshilikli o'tkazgich, vattmetr, tarmoqlar kuchlanishini o'lchaydigan voltmetrlar, aktiv va reaktiv qarshiliklardagi umumiy kuchlanishni o'lchaydigan voltmetr, zanjirdagi tok kattaligini o'lchaydigan ampermetr va boshqa yordamchi aslahalardan tuzilgan.

Qurilmani ishga tushirish uchun o'zgaruvchan tok tarmogiga laboratoriya avtotransformatori qo'shiladi. Shunda voltmetr LA TR chiqishidagi kuchlanishni ko'rsatadi. Bu kuchlanish, zarur bo'lganida rostlanadi. Ishning elektr zanjiriga tok berish uchun kalit qo'shiladi. Shunda zanjirdagi ampermetr va voltmetrlar ma'lum kuchlanishlarni ko'rsatadi. Bu o'lchov asboblarining har xil o'lhash holatlariga mos keluvchi qiymatlari yozib olinadi hamda hisoblashlar amalga oshiriladi.

#### **ISHNI BAJARISH TARTIBI**

1. Laboratoriya ishining tavsifnomasini o'qib o'rganing va o'qituvchi savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat oling.
2. 3- rasmda tasvirlan-gan sxema bo'yicha elektr zan-jirni yig'ing va uni o'qituvchiga tekshirtiring.



3-rasm. Ishning elektr sxemasi.

- Sxema elementlarining ulanishi to'g'riliqi aniqlangandan so'ng tovush generatorini ishga tushiring. Generator chiqishidagi kuchlanishtebanishlari chastotasini 1000 Hz qilib oling yoki 50 Hz chastotali o'zgaruvchan elektr tarmog'iga LATR ni qo'shing va uning chiqishidagi 127 V kuchlanishdan foydalaning.
- Berilgan kuchlanishning kattaligini o'zgartirish bilan zanjirda tok kuchini 0,2 A ga keltiring. Umumiy kuchlanish  $U$  ni, zanjirning alohida elementlaridagi  $U_R$ ,  $U_L$  va  $U_{R+L}$  kuchlanishlarni o'lchang. O'lchash va hisoblash natijalarini quyidagi jadvalga kriting.

№	$\nu, \text{Hz}$	$I_R, A$	$U_R, V$	$U_L, V$	$I, A$	$C, \mu\text{kF}$	Kon den sa tor dagi $R_C$	G'al tak dagi $U_L$	To'la qarshilik $Z, \Omega$		To'la tok $I_T, A$	Nisbiy xatolik %
									$R_U$	$L_U$		
1												
2												
3												

- Induktivlik g'altagidagi  $U_L$  kuchlanishni, rezistordagi  $U_R$  kuchlanish va zanjirdagi  $I$  tok kuchini bilgan holda g'altakning  $R_L$  induktiv qarshiligidagi va rezistorning  $R$  elektr qarshiligidagi hisoblang.
- Umumiy  $U_{R+L}$  kuchlanish hamda  $R$ ,  $R_C$  va  $R_L$  qarshiliklarining ma'lum qiymatlariga ko'ra, zanjirdagi to'liq tok kuchi  $I_T$  ni aniqlang.
- Tok kuchini aniqlashda nisbiy xatolikni hisoblang.
- Ishdan xulosa chiqaring va tajribaning xatoliklarini hisoblang.

#### SINOV SAVOLLAR

- Nima uchun  $R$  va  $L$  dan tuzilgan ketma-ket zanjirning uchlaridagi effektiv kuchlanish uning alohida elementlari yig'indisiga teng bo'lmaydi?
- O'zgaruvchan tokning ketma-ket zanjirida kuchlanishlarning oniy qiymatlari uchun  $U = U_R + U_C + U_L$  tenglik bajariladimi?
- Induktiv qarshilik sig'im qarshiligidan nima bilan farq qiladi?
- Ishning elektr sxemasidagi o'zakli induktiv g'altagi o'rniga o'zaksiz induktiv g'altak qo'llanilsa, ishda qanday o'zgarish bo'lishi mumkin?
- G'altakdagi o'zakni undan ko'p yoki ozroq tashqariga chiarilsa, zanjirdagi tok yoki kuch – lanish o'zgaradimi?
- Induktiv qarshilik asbob-uskunalarda yoki alohida elektr sxemalarining zanjirlarida qo'llaniladimi?

#### 20- LABORATORIYA ISHI

#### **BESSEL USULI BILAN QAVARIQ VA BOTIQ LINZALARING FOKUS MASOFASINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Tajriba yo'li bilan qavariq va botiq linzalarning fokus masofasini Bessel usulida aniqlash.

**Kerakli asbob va materiallar:**

1. Optik o'rindiq (skamya)
2. Botiq va qavariqlinzalar

#### NAZARIY QISM

Sferik sirtlar bilan chegaralangan shaffof muhit (havo, suv, shisha va h.k.) *linza deyiladi*. Linzalar, optic asboblar deb ataluvchi, binokl, teleskop, mikroskop, fotoapparatlarda va h.k. larda qo'llaniladi. Linzalar ikki xil bo'ladi:


1. Qavariq linza, yorug'lik nurlarini yig'ib beradi.
2. Botiq linza, yorug'lik nurlarini tarqatib beradi.

Linzalarni bir necha kesik prizmalardan tashkil topgan deb qarash mumkin. Linzani hosil qila-digan sirtlarning egrilik markazlari orqali o'tgan to'g'ri chiziq *linzaning bosh optic o'qi deyiladi*.

1-rasmida ( $OO'$ ) - bosh optic o'q, ( $C_1C_2$ ) - linzani hosil qilgan sirtlarning egrilik markazi.


Bosh optic o'qqa parallel bo'lgan yorug'lik nurlari linzadan sinib o'tib, uning fokusida kesishadilar.

Umuman o'zaro parallel nurlar linzaning fokusidan o'tgan fokal tekislikda uchrashadilar.



1-rasm. Linzaning bosh optik o'qi.

Botiq linzada bosh optik o'qqa parallel nurlar linzadan sinib o'tganda, u tarqalib ketadi va tarqalgan nurlarning mavhum davomi optik o'qining bir nuqtasida kesishadi. Bu nuqta *linzaning mavhum fokusi deyiladi*.



2-rasm. Qavariq, botiq linzalar va ularda nurlarning yo'li.

Linzaning fokus masofasiga teskari bo'lgan kattalik, linzaning optik kuchi (D) deyiladi.

$$D = \frac{1}{F} \quad (1)$$

Bu yerda: D - linzaning optik kuchi

F – linzaning fokus masofasi

Linzaning optik kuchi diopriyalarda o'lchanadi. **1 diopriya deb  $F = 1m$**  bo'lgandagi kattalikka aytildi.

$$D = 1m^{-1} = 1dptr$$

Linzaning fokus masofasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\frac{1}{a} + \frac{1}{b} = \frac{1}{f} \quad (2)$$

yoki

$$f = \frac{ab}{(a+b)} \quad (2')$$

Bu tenglamaga qavariq linza formulasi deyiladi.

Bu yerda: a – buyumdan linzagacha bo’lgan masofa;

b – tasvirdan linzagacha bo’lgan masofa;

f – qavariq linzaning fokus masofasi.

Tarqatuvchi linza (botiq linza) bosh fokusi mavhum bo’lganidan, uning optik kuchi ham botiq bo’ladi. U holda botiq linza formulasi quyidagicha bo’ladi:

$$-\frac{1}{f} = \frac{1}{a} - \frac{1}{b} \quad (3)$$


yoki

$$f = \frac{ab}{(a-b)} \quad (3')$$

#### LINZADA TASVIR YASASH

Buyumning tasvirini yasashda bu buyumning bir necha nuqtalarining tasvirlarini topish va so’ngra ulardan buyumning tasvirini hosil qilish kerak. Nuqtaning tasvirini yasashda uchta nurdan foydalanish qulay:

- a) optik o’qqa parallel nur, linzada sinib uning fokusini kesib o’tadi.
- b) linzaning optik markazidan o’tuvchi nur sinmasdan o’tadi.




3-rasm. Linzada tasvir yasash.

Nuqtaning tasvirini yasashda nurlarning ikkitasidan foydalanilsa kifoya. Buyumning linzagaga nisbatan joylashish masofasiga bog’liq ravishda tasvir kattalashgan yoki kichiklashgan, haqiqiy yoki mavhum, to’g’ri yoki teskari bo’lishi mumkin.

Qavariq linzada tasvir yasaylik:


1. AB buyumning linzadan uzoqligi ( $a$ ) fokus masofasining ikkilanganidan ko'ra katta masofada turibdi, ya'ni hosil bo'lgan tasvir haqiqiy kichiklashgan va teskari bo'ladi.  $a > 2f$



4-rasm.Qavariq linzada tasvir yasash.

2.Buyum linzaning fokusi bilan ikkilangan fokus orasida joylashgan bo'lzin (5-rasm)  $F < a < 2F$


$$A'B'/AB = H/h = b/a = \Gamma \quad (4)$$



5-rasm

Hosil bo'lgan tasvir haqiqiy, kattalashgan va teskari bo'ladi.Tasvir kattaligining buyum kattaligiga nisbatli linza kattalashtirishi ( $\Gamma$ ) deyiladi va (4) tenglama yordamida aniqlanadi.


3.Buyum fokus va linza orasida turibdi, ya'ni  $a < f$  (6-rasm).



6-rasm

Hosil bo'lgan tasvir mavhum, kattalashgan va to'g'ridir.


4.Tarqatuvchi linzaga nisbatan buyumning har qanday joylashganda ham hamma vaqt mavhum kichiklashgan va to'g'ri tasviri hosil bo'ladi (7-rasm).



7-rasm. Sochuvchi linzada tasvir yasash.

#### **QURILMANING TUZILISHI**

Ekran (1), linza (2) va maxsus qutiga joylashtirilgan elektr lampochkasi (3) gorizontal qo'yilgan optik taglik (4) ustiga o'rnatiladi. Ularni taglik bo'ylab siljitim mumkin. Lampochka o'rnatilgan qutining old tomoniga qog'oz yopishtirilib, uning ustiga strelka chizib qo'yilgan. Bu strelka buyum rolini o'ynaydi (8-rasm).



8-rasm.Qavariq linzaning ekran va buyum oralig'idagi ikki xil joylashgan vaziyati.

Qurilmadagi asboblarni (ekran, linza, quti) ularning markazlari bir xil balandlikda turadigan qilib o'rnatiladi. Qurilmadagi asboblar orasidagi masofa taglikdagi santimetrlarga bo'lingan shkaladan o'lchanadi. Bu tajribada botiq va qavariq linzalarning focus masofasini aniqlash uchun Bessel usulidan foydalaniлади.

#### **BESSEL USULI**

Linzaning o'rindiqda siljish kattaligiga qarab focus masofasini aniqlash metodiga *Bessel usuli deyiladi*. Bu usulda ekran bilan buyum orasidagi masofa linza focus masofasidan kamida (4) marta katta bo'lishi kerak:

$$L = 4f \quad (4')$$

Optik taglikka ekran, buyum (yoritgich bilan yoritilgan qutichalardagi strelka) va linza o'rnatilgan (suriuvchi ramka linzasi bilan birgalikda). Ekran va buyum (strelka) orasidagi masofa o'qituvchi tomonidan belgilanib tajriba davomida o'zgarmas qoladi.

Birinchi tajriba qavariq linza bilan bajariladi. Linzani ekrandan buyum tomon surib borilsa, ekranda buyumni aniq kattalashgan teskari tasviri hosil bo'ladi.

Linzaning vaziyati shkala yordamida belgilanadi.

Linzani ekran tomon surib borilsa, ekranda buyumning aniq kichiklashgan teskari tasviri hosil bo'ladi. Shu tasvir hosil bo'lishi uchun linzani birinchi holatdan ikkinchi holatga keltirishda ( $r$ ) masofadagi siljishi shkaladan aniqlanadi (9-rasm).

1-holda  $NN'$ -qabariq linza;  $AB$ -buyum;  $A'B'$ -buyumni kattalashgan tasviri;  $EE$ -ekran;  $C$ -linzaning optik markazi;  $F$ -fokusi;  $BC = a$ -buyumdan linzagacha bo'lgan masofa;  $CB' = b$ -linzadan tasvirgacha bo'lgan masofa;  $CF = f$ -linzani focus masofasi;  $BB' = L$ -buyum bilan ekran orasidagi masofa;  $NN'$ -linzaning siljish masofasi;

Linzaning bu ikki holati (vaziyati) ham buyum bilan tasvir orasidagi masofaning o'rtasiga nisbatan simmetrik ekanligi ravshan. (2') formulaga asosan

$$f = \frac{(L - r - x)(x + r)}{L} \quad (5)$$

$$\text{Ikkinci vaziyat uchun } f = \frac{(L - x)r}{L} \quad (6)$$

Bu tenglamalarni o'ng tomonlari tengligidan ( $x$ ) ni topamiz:

$$x = (L - r)/2 \quad (7)$$

(7) ni  $(L - r - x)$  ga qo'yilsa,

$$L - r - x = (L - r)/2 \quad \text{bo'ladi.}$$

Demak,

$$a = (L - r)/2 \quad \text{va} \quad b = (L + r)/2 \quad \text{ga ega bo'lamic.}$$

Bu qiymatlarni (2') formulaga qo'yib, qavariq linzaning fokus masofasi topiladi:

$$f_1 = (L^2 - r^2)/4R \quad (8)$$

Xuddi shu tariqada qavariq va botiq linzalar sistemasining ( $f_{1,2}$ ) -fokus masofasi aniqlanadi. Demak, ( $f_{1,2}$ ) qavariq va botiq linzalar tegishib turgandagi sistemani fokus masofasi bo'ladi.

$$\text{Bu sistemaning optik kuchi} \quad D_{1,2} = D_1 + D_2 \quad (9)$$

Bu yerda:  $D_1$ -qavariq linzaning optik kuchi;

$D_2$ -boyiq linzaning optik kuchi;

$$\text{Shularga asosan} \quad \frac{1}{f_{1,2}} = \frac{1}{f_1} + \frac{1}{f_2} \quad (10)$$

Bu yerdan botiq linzani fokus masofasi uchun quyidagi formulaga ega bo'lamic:

$$f_2 = \frac{f_1 f_{1,2}}{f_1 + f_{1,2}} \quad (11)$$

Bu yerda:  $f_1$ -qavariq linzaning fokus masofasi;

$f_2$ -botiq linzaning fokus masofasi;

$f_{1,2}$ -sistemani fokus masofasi;

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Surilgichni ramkaga qavariq linzani qo'yib, strelka lampochka bilan yoritiladi.
2. Surilgichni strelka(buyum) tomon surib, ekranga strelkani (buyumni) kattalashgan teskari va aniq tasviri hosil bo'lishiga erishiladi.
3. Skameykadagi shkaladan linzadan strelka (buyumgacha) bo'lган masofa  $n_1 = x = a$  shuningdek, ekrandan strelka (buyum) gacha bo'lган ( $L$ ) masofalar o'lchanadi.O'lchash natijalari jadvalga kiritiladi.
4. Linzani ekran tomon surib strelkani kichik, aniq teskari tasviri hosil bo'lishiga erishiladi va shkaladan linzalar uchun  $n_2 = a_1$  hisob olinadi.
5. Har ikkala olingan nisoblar ayirmasi, ya'ni  $n_2 - n_1 = r$  hisoblanadi.
6. Olingan natijalardan foydalanib (8) formulaga asosan qavariq linzani fokus masofasi aniqlanadi va jadvalga yoziladi.
7. Xuddi shu tariqa qavariq linzaning strelka (buyum) tomoniga botiq linzani qo'yib, har ikkala sistema uchun focus masofa aniqlanadi:

$$f_{1,2} = \frac{L^2 - r^2}{4R} \quad (8')$$

- 8.Qavariq va sistemali focus masofalari aniq bo'lgandan so'ng formula (11) yordamida botiq linzani fokus masofasi ( $f_2$ ) aniqlanadi.

#### 1-qavariq linza uchun jadval

Tajriba tartibi №	$n_1$	$n_2$	$r$	$L$	$f_1$	$f_{1o'rt}$
1.						
2.						
3.						

#### 2-ikki linza sistemasi uchun jadval

Tajriba tartibi №	$n_1$	$n_2$	$r$	$L$	$f_{1,2}$	$f_{1,2o'rt}$
1.						

2.						
3.						
4.						
5.						

#### SINOV SAVOLLAR

- 1.Linza deb nimaga aytildi?
- 2.Linzaning optik markazi, bosh optik o'qi va bosh fokusi deb nimaga aytildi?
- 3.Linzaning optic kuchi nima?
- 4.Yig'uvchi linza deb qanday linzaga aytildi?
- 5.Sochuvchi linza deb qanday linzaga aytildi?
- 6.Linzada qay vaqtida nuqta yoki buyum tasviri hosil bo'ladi?
- 7.Linzada buyum tasvirini olinishini chizib ko'rsating.

#### 21- LABORATORIYA ISHI

#### **DIFRAKSION PANJARA YORDAMIDA YORUG'LIK TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH**

- Ishning maqsadi:** 1. Oq yorug'lik 7 xil rangdagi va to'lqin uzunligidagi nurlardan tashkil topganligi haqida tushuncha berish  
 2. Yorug'likning bar xil rangiga turli xil to'lqin uzunliklari mos kelishini tajribada aniqlashni o'rganish  
 3.Difraksion panjara haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.

**Kerakli asbob va materiallar:**


1. *S* - yorug'lik manbai
2. TL- tirqishli chizg'ich
3. DP- difraksionpanjara
4. ML –metrli chizg'ich
5. *K*-kuzatuvchi
6. *b*)1-difraksion panjara,2-tirqishli chizg'ich,3-chizg'ich,4- tayanch.

#### NAZARIY QISM

Yorug'lik nuri elektromagnit to'lqin bo'lib, uning zarrasi *foton* deyiladi. Yorug'lik oqimining zarralari ham to'lqin tabiatiga egaligidan u elektromagnit to'lqin qonunlariga bo'y sunadi. Yorug'lik nurining elektromagnit to'lqinlardek sinishi, qaytishi, moddalardan o'tishi, ularda yutilishi, difraksiyasi va interferensiyasini kuzatish mumkin.

Nur dastasi yetti xil ko'zga ko'rindigan va ko'zga ko'rind-maydigan infraqizil hamda ultrabinafsha nurlardan tashkil topgan. Oq yorug'lik oqimi faqat ko'zga ko'rindigan yetti xil rangda tovlanuvchi nurlardan iborat bo'lib, uning to'lqin uzunligi  $\lambda = (4 \div 8) \cdot 10^{-7} m$  oralig'ida yotadi.

Yorug'lik nurida kuzatiladigan har qanday hodisani to'lqin nazariyasi asosida tushuntiriladi. Yorug'likning kvant xossalariiga tayangan holda har bir yorug'lik hodisalari tahlil qilinsa, to'g'ri va aniq javoblar topiladi.



1-rasm. Interferensiya hosil qilishning sxemalik tasviri

$S$  — yorug'lik manbai,  $T$  — tor teshikli to'siq,  $L$  va  $L'$  — linzalar,  $D$  — difraksiyon panjara,  $E$  — ekran,  $M$  — birinchi maksimumo'mni,  $h$  — ikki difraksiyon (interferensiyon) maksimumlarorasidagi masofa.

Guyygens—Frenel tamoyiliga muvofiq, *har bir to'lqinning oldingifronti undan keyingi fazo uchun ikkilamchi to'lqin manbai bo'la oladi*. Shuning uchun yorug'lik yo'lliga o'ta kichik (ko'zga ko'rindmaydigan) tirkishchalarni joylashtirganimizda uning ortida vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan fazalar farqi-ga ega bo'lgan ikkilamchi to'lqinlarni hosil qilish mumkin. Bunday vazifani bajaruvchi asbobni *difraksiyon panjara* deyiladi. Difraksiyon panjara yordamida yorug'lik nurining to'lqin uzunliklarini aniqlash mumkin.

Faraz qilaylik, yorug'lik nuri oqimi yo'lliga uchta tirkish qo'yilgan bo'lsin. Bu tirkishlar o'ta tor bo'lganligidan, ular ikkilamchi to'lqin manbai bo'la oladi (1-rasm). Bir xil fazadagi to'lqinlarning o'tgan yo'llari uzunligida farq bo'lsa, juft yoki toq yarim to'lqin uzunligidagi to'lqinlarning qo'shilishidan ekranda oq va qora yo'llar paydo bo'ladi. Bunday tasvir yorug'lik to'lqinining interferensiysi hisobiga paydo bo'ladi. Masalan, birinchi tirkishdan chiqqan nur linzadan o'tish jarayonida, unda sinib  $O$  nuqtaga tushadi. Yorug'likning o'tgan yo'li uzunligi  $d$  bo'lsin. Xuddi shunday ikkinchi va uchinchi tirkishlardan o'tgan nurlar ham to'g'ri(linzaning optik o'qidan o'tib) va linzada sinib o'tib, so'ngra  $O$  nuqtaga tushadi. Ularning o'tgan yo'llari uzunligi  $d_2$  va  $d_3$  bo'lsin. U holda nurlarning o'tgan yo'llari uzunliklari ayirmasi  $d_2 - d_1 = d$  yoki  $d_3 - d_1 = d$  ga teng bo'ladi. Demak, yorug'likning o'tgan yo'llari uzunliklari farqi  $d$  toq yoki juft yarim to'lqin uzunligiga teng bo'lganida ekranda qora va oq rangdagi polosalar, ya'ni yo'1-yo'l chiziq-lar hosil bo'ladi.

$$d_2 - d_1 = 2k \frac{\lambda}{2} = k\lambda \text{ juft yarim to'lqin uzunligi.}$$

$$d_2 - d_1 = (2k + 1) \frac{\lambda}{2} \text{ toq yarim to'lqin uzunligi.}$$

O'zaro qo'shilgan to'lqinlarning yo'llar farqi yarim to'lqin uzunligidan juft son marta katta, ya'ni

$$2 \frac{\lambda}{2}, 4 \frac{\lambda}{2}, \dots \text{va } k\lambda \text{ bo'lganida ekranda oq rangli yo'llar (interferensiyon manzaraning maksimumlari)}$$

hosil bo'ladi.

Xuddi shunday, yo'llar farqi yarim to'lqin uzunligidantoq son marta katta, ya'ni  $1 \frac{\lambda}{2}, 3 \frac{\lambda}{2}, 5 \frac{\lambda}{2}, \dots \text{va sh.k.}$   $(2k + 1) \frac{\lambda}{2}$  bo'lganida to'lqinlarning qo'shilishidan ekranda qora rangli yo'llar (interferensiyon minimum) kuzatiladi. Agar yorug'lik to'lqini  $N$  ta tirkishdan o'tib, ekranga tushsa  $\Delta d = N\lambda$  bo'ladi (2-rasm).


2- rasmdagi ABCuchburchagidan BC va AB topiladi:

$$BC = N\lambda = \Delta d \text{ yoki } BC = AB \sin \alpha \quad (1)$$

Agar difraksion panjara kengligi  $AB$ , panjara doimiysi  $d$  bo'lsa, unda  $BC$  quyidagicha ifodalanadi:  $BC = Nd \sin \alpha$  (2)

Demak, (1) ifodaga (2) ni qo'yib, undan yorug'lik to'lqin uzunligi topiladi, ya'ni

$$N\lambda = Nd \sin \alpha$$



2-rasm. Difraksion panjaradan yorug'lik nuri o'tishining sxematik tasviri

$$\lambda = \frac{Nd}{N} \sin \alpha = d \sin \alpha \quad (3)$$

sin a burchagi juda kichik bo'lganligidan, uni taqriban tga ga tenglashtirish mumkin. U holda difraksion panjaradan ekrangacha bo'lgan masofani o'lchab, ekrandagi oq va qora polosalar oralig'ini aniqlab yoki 1- rasmdagi geometrik usuldan foydalanib, uni quyidagicha yozish mumkin:

$$\sin \alpha \approx \tan \alpha = \frac{h}{l}$$

Demak,  $\lambda$  ni geometrik o'lchamlarini aniqlash orqali hisoblash formulasini quyidagicha yozish mumkin bo'ladi, ya'ni

$$\lambda = d \frac{h}{l} \quad (4)$$


*Eslatma.* Har bir difraksion panjarani tayyorlagan zavod undagi tirkishlar sonini, panjara doimiysini ko'rsatadi.

#### QURILMANING TUZILISHI VA ISHLASHI

Laboratoriya ishini bajarishga mo'ljallangan qurilma difraksion panjara (DP), tirkishli chizg'ich (TL), metrli chizg'ich (ML), yorug'lik manbai (S) va shtativdan tuzilgan (3-rasm).

Yorug'lik nurining oqimini elektr lampa hosil qiladi. Bu yorug'lik oqimi elektr lampa oldidagi teshikchadan chiqib, tirkishli chizg'ich (TL) tirkishidan o'tadi va difraksion panjaraga tushadi.

Difraksion panjara orqali yorug'lik manbaiga qaralganda turli rangdagi spektr ko'rindadi.



5.11.3- rasrn. Ishning sxematik tasviri (a) va lining qurilmasi (b).

a)  $S$  — yorug'lik manbai

TL — tirkishli chizg'ich

DP — difraksionpanjara

ML—chizg'ich

K—kuzatuvchi

b)1—difraksion panjara

2—tirqishli chizg'ich

3—chizg'ich

4—tayanch.

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasi o'qib o'rganiladi, o'qituvchining savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat olinadi.

2. Laboratoriya qurilmasi ko'zdan kechiriladi va undagi asboblarning to'laligi tekshiriladi.

3. Metrli chizg'ich ustiga mahkamlangan asboblami yorug'lik manbaiga to'g'ri yo'naltiriladi.

4. Yorug'lik oqimini hosil qiluvchi elektr lampani tok manbaiga K kalit yordamida ulanadi.

5. Lampa shu'lalangandan so'ng, shu lampaga tirqishli chizg'ich tirqishi orqali qarab, lampa-ning cho'g'lanuvchi tolasi aniq ko'rindigan qilib tirqishli chizg'ich (TL) joylashtiriladi.

6. Difraksion panjarani metrli chizg'ich oxiridagi maxsus joyga o'rnating.

7. Difraksion panjara orqali yorug'lik manbaiga qarab chiziqli spektrlar ko'ringaniga ishonch hosil qilinadi.

8. Difraksion panjara orqali tirqishli chizg'ichning o'rtasidagi «0» nuqtadan avval o'ng tomonga qarab biroraniq spektr chizig'ini, so'ogra chap tomonga qarab ikkinchi spektr chizig'ini shu chizg'ichning qoraga bo'yagan qismi ustida ko'rib, ularning noldan chiziqli spektrgacha bo'lgan masofalari aniqlanadi. Bunda noldan o'ng va chap tomonlardagi chiziqlargacha bo'lgan masofalar  $h_{o'ng}$  va  $h_{chap}$  deb olinadi.

9. Har bir rangdagi chiziqli spektrlargacha bo'lgan masofalarni kamida uch martadan aniqlangandan so'ng ularning o'rtachasi jadvalga kiritiladi.

10. Difraksion panjaradan tirqishli chizg'ichgacha bo'lgan masofani har safar o'zgartirib, spektr chiziqlari orasidagi  $h$  masofani aniqlang.

11. Aniqlangan  $l$  va  $h$  asosida  $\lambda$  hisoblanadi.

Rangli chiziqlar nomlari	$h_t$	$h$ ,	$l$ ,	$l$ ,	$d$	X	AX
Binafsha							
Ko'k							
Havorang							
Yashil							
Sariq							
Zarg'aldoq							
Qizil							

Eslatma. $h_1$  va  $h_2$  hamda  $l_1$  va  $l_2$  tirqishdan o'ng va chap tomonda ko'ringan spektr holatlariga mos keladi.

12. O'tkazilgan tajribadan xulosa chiqariladi.

#### SINOV SAVOLLAR

1. Spektr necha xilda bo'ladi va ular qanday nomланади?

2. Yorug'lik to'lqinmi yoki fotonlar oqimi?
3. Oq yorug'lik oqimi spektrida necha xil rangli chiziqlar bor?
4. Difraksion panjara deb qanday asbobga aytildi va u qayerlarda ishlatiladi?
5. Difraksion panjara doimiysi deb nimaga aytildi?
6. Oq yorug'lik oqimining to'lqin uzunligi nimaga teng?

## **22-LABORATORIYA ISHI**

### **MIKROSKOP YORDAMI BILAN SHISHANING SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Shishanining sindirish ko'rsatkichinitajriba yo'li bilananiqlash.

**Kerakli asbob va materiallar:**

1. Mikroskop.
2. Ikki tomoni bir-biriga tik qilib ko'rilib (chizilgan) shisha plastinka.
3. Mikrometr yoki shtangensirkul.

#### **NAZARIY QISM**

Yorug'lik jism sirtiga tushgandaqaytish va sinish hodisalarini geometric optikaning quyidagi qonunlari ifodalaydi.

#### **I. Qaytish qonuni**

1. Tushgan va qaytgan nurlar hamda nurlarning ikki muhit chegarasiga tushish nuqtasiga o'tkazilgan normal bir tekislikda yotadi.
2. Qaytish burchagi  $i_1'$  tushish burchagi  $i_1$  ga teng (1-rasm).

#### **II. Sinish qonuni**

1. Tushgan va singan nur, nurning tushish nuqtasiga o'tkazilgan normal  $n_1 n_1'$  bilan bir tekislikda yotadi.
2. Tushish burchagi sinusining ( $i_1$ ) sinish burchagi ( $i_2$ ) sinusiga nisbatli berilgan ikki muhit uchun o'zgarmas kattalik bo'lib, ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan sindirish ko'rsatkichi ( $n_{21}$ ) deb ataladi (1-rasm).

$$\frac{\sin i_1}{\sin i_2} = n_{21} \quad (1)$$

Agar birinchi muhit o'mida vakuum bo'lsa, u holda ikkinchi muhitning vakuumga nisbatan sindirish ko'rsatkichini shu *muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi deyiladi*. Yorug'lik bir muhitudan ikkinchi muhitga o'tganda uning tezligi o'zgaradi.

$$\frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad (2)$$

Bu yerda:  $\vartheta_1$ -yorug'likning birinchi muhitdagi tarqalish tezligi;

$\vartheta_2$ -yorug'likning ikkinchi muhitdagi tezligi;

$i_1$ -yorug'likning birinchi muhitdagi normalga nisbatan tushish burchagi;


$i_2$ -normalga nisbatan ikkinchi muhitdagi sinish burchagi;

Agar yorug'lik vakuumdan zichligi katta bo'lган muhitga sinib o'tsa, u holda  $\vartheta_1 = c$  yorug'likni vakuumdagi tezligi bo'lib,  $\vartheta_2 = \vartheta_2$  desak (2) formula quyidagicha yoziladi:

$$\frac{c}{\vartheta_2} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad (3)$$

Yuqoridagi ta'rifga ko'ra absolyut sindirish ko'rsatkichi

$$n = \frac{c}{\vartheta} \quad n = \frac{\sin i_1}{\sin i_2}$$




1-rasm

Bu yerda:  $\vartheta$  -yorug'likning optik zichligi katta bo'lган muhitdagi tezligi;

$c$  - yorug'likning vakuumdagi tezligi;

Havo uchun  $n = 1,0000292$  bo'lib, taqriban 1 deb olinadi. Shuning uchun yorug'lik nuri havodan shisha plastinkasiga tushsa, bir qismi yorug'lik shisha sirtidan qaytadi va shishadan sinib o'tadi. U vaqtda havo-shisha va shisha-havo uchun quyidagi tenglamalar o'rini bo'ladi:

$$\frac{n_2}{n_1} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad \text{va} \quad \frac{n_1}{n_2} = \frac{\sin i_2'}{\sin i_1} \quad (4)$$



2-rasm. Yassi parallel yoqli shisha plastinkadagi nur yo'li.


Demak, nur optik zichligi kichik bo'lган muhitdan optik zichligi katta bo'lган muhitga sinib o'tishda,

a)  $n_1 < n_2$  bo'ladi;      b)  $i_1 > i_2$  bo'ladi;

Aksincha, optik zichligi katta bo'lgan muhitdan optik zichligi kichik bo'lgan muhitga sinib o'tishda

$$a) \quad n_1 > n_2 \quad b) \quad i_1' < i_2' \quad \text{bo'ladi.}$$

Quyida yassi, parallel yoqli plastinkada yorug'lik nurini tushishi va undan sinib qaytishlari (3-rasmida) ko'rsatilgan:



3-rasm. Yassi plastinkada yorug'lik nurini tushishi va undan sinib qaytishi.

Yorug'lik nuri CB yo'nalishda yassi shisha (shaffof jism) plastinkaga tushganda ikki muhit chegarasida sinib va qaytib ( $CB$ ), ( $BA$ ), ( $AB_1$ ) va nihoyat ( $B_1C_1$ ) yo'nalishda bo'ladi.  $n_1$ -muhit havo,  $n_2$ -muhit esa shisha plastina. Lekin kuzatuvchi yuqorida pastga qarab kuzatayotgan bo'lsa, shisha qalinligi o'zgargandek bo'ladi. Haqiqatan ham kuzatuvchiga nisbatan yorug'lik nurini ( $A$ ) nuqtasi, o'z o'mrida ko'rinxmay ( $A_1$ ) nuqtada, ya'ni ( $A$ ) nuqtadan yuqoriroqda ko'rinxadi. Bu faraziy ( $A_1$ ) nuqta, ( $A$ ) nuqtaning *mavhum tasviri deyiladi*.

3-rasmida  $AO = H$  -shisha plastinkani haqiqiy qalinligi,  $A_1O = h$  -shisha plastinkaning mavhum qalinligi. Tushish va sinish burchaklari juda kichik bo'lganida ularning sinusini tangenslarga almashtirish mumkin. Shuning uchun (3) formula o'mrida (3-rasmida uchburchak  $A_1OB$  dan):


$$\operatorname{tg}i_1 = \frac{OB}{OA_1} = \frac{OB}{h}, \quad n = \frac{\operatorname{tg}i_1}{\operatorname{tg}i_2} \quad (5)$$

Shunga o'xshash:  $\Delta AOB$  dan  $\operatorname{tg}i_2 = \frac{OB}{OA} = \frac{OB}{H}$  bo'ladi. Bularni (5) formulaga qo'yilsa,

$$n = \frac{\operatorname{tg}i_1}{\operatorname{tg}i_2} = \frac{OA}{OA_1} = \frac{H}{h} \quad \text{yoki} \quad n = \frac{H}{h} \quad (6)$$

Demak, (6) formulaga ko'ra plastinkaning haqiqiy qalinligini uning mavhum qalinligiga nisbatli shisha plastinkani sindirish ko'rsatkichini beradi.

#### **ASBOBNI TUZILISHI VA UNDA O'LCHASH METODI**




4-rasm. Mikroskopdagi yorug'lik nurlari yo'lining optik sxemasi ko'rsatilgan.

Rasmda ( $L_1$ ) -ob'yektiv, ( $L_2$ ) -okulyar,  $AB$  -buyum kattaligi,  $A'B'$  -buyum tasviri,  $f_1$  -ob'yektivning fokus oralig'i,  $f_2$  -okulyarning fokus oralig'i,  $A''B''$  -buyumning kattalashgan mavhum tasviri.

#### ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Shisha plastinkaning haqiqiy qalinligi  $H$  ni mikrometr bilan har yeridan (kamida 5 yeridan) qalinligi o'lchanadi va jadvalga yoziladi.
2. Shisha plastinkadagi qirilgan chiziqlarini, ya'ni shishani mavhum qalinligini mikroskop yordamida aniqlanadi.
3. Mikroskopni quyidagicha ishga tushiriladi.



5-rasmda mikroskopning tashqi ko'rinishi berilgan.

Yoritgich lampochkani manbaga ulab mikroskopni pastki qismidagi qo'zg'aluvchi ko'zgu (1) ga to'g'rilanadi. Bu vaqtida okulyar (5) dan qaralganda yoritilganlik maksimal holatga erishgan bo'lishi kerak. Agar mikroskopda kondensator (2) bo'lsa, u vaqtida alohida burash vinti bilan yoritilganlikni to'g'rilash kerak.

4. Ikki tomoni qirilgan shisha plastinkani mikroskopni (3) taxtachasi ustiga qo'yiladi.

5. Tubus vinti (4) yordami bilan ob'yektiv (6) ni shisha plastinka ustiga tekkuncha pastga tushiriladi. Shishani ustki qirilgan chizig'i okulyar (5) orqali aniq va ravshan ko'ringunga qadar tubus vinti (4) buraladi. Mikrometr (7) ni soat strelkasiga teskari yo'nalihsida burab undagi darajani ( $O_1O$ ) holatga keltirib qo'yiladi. So'ngra mikrometrdan ( $n'$ ) hisoblab olinadi.
  6. Endi shisha plastinkani ostki chizilgan chizig'ini aniq va ravshan ko'ringuncha mikrometr vintini soat strelkasi yo'nalihsida burab boriladi. Chiziq aniq va ravshan ko'ringuncha buralgandagi buralishlar soni ( $m$ ) hisoblanadi va mikrometr darajasidan ( $n''$ ) hisoblab olinadi. Bu yerda ( $m$ ) vintni to'liq buralishlar soni; ( $n''$ ) esa vintni qisman buralgan darajasi.
  7. Mikrometr bir marta to'liq aylangandagi bo'linma soni  $Q = 50$ . Demak,  $Q, m, n' \quad va \quad n''$  larni bilgan holda, umumiy bo'limlalar soni ( $N$ ) quyidagicha
- $$N = (Q - n') + mQ = n'' \quad \text{hisoblanadi.}$$
8. Shisha plastinkaning mavhum qalinligi  $h = \alpha N$  ga teng.

Bu yerda:  $\alpha = 0,002 \text{ mm}$  teng bo'lib, mikrometr boshchasi bitta bo'limiga buralganda tubus qancha ( $mm$ ) balandlikka ko'tarilishini ko'rsatadi. Olingan natijalar jadvalga kiritiladi. Nihoyat shishani sindirish ko'rsatkichini aniqlash uchun (6) formulani o'rtacha hisobidan foydalanamiz.

$$n_{o'rt} = \frac{H_{o'rt}}{h_{o'rt}} \quad (7)$$

Absolyut va nisbiy xatoliklarni aniqlab, shishaning haqiqiy sindirish ko'rsatkichi  $n = (n_{o'rt} \pm \Delta n)$  topiladi.

#### KUZATISH JADVALI

Tartib №	Shisha plastinka qalinligi			Tubusni siljishi ostki, ustki chiziq				Mavhum qalinligi		
	$H$	$H_{o'rt}$	$\Delta H$	$Q - n'$	$m$	$n''$	$N$	$h$	$h_{o'rt}$	$\Delta h$
1.										
2.										
3.										
4.										
5.										

#### SINOV SAVOLLAR

1. Muhitni sindirish ko'rsatkichi deb nimaga aytildi?
2. Absolyut va nisbiy sindirish ko'rsatkichlari orasida qanday farq bor?
3. Mikroskopni optik sxemasini chizing.

**ILOVA**  
**ASOSIY FIZIK KATTALIKLAR**

**1-jadval**

Kattalikning nomi	Belgisi	Son qiymati
Erkin tushish tezlanishi	G	$9,81 \text{ m/s}^2$
Tortishish doimiysi	$\gamma$	$6,67 \cdot 10^{-11} \text{ m}^3/\text{kg}\cdot\text{s}^2$
Avogadro soni	$N_A$	$6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$
Universal gaz doimiysi	R	$8,31 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$
Bolsman doimiysi	K	$1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$
Elektronning zaryadi	E	$1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$
Elektronning massasi	$m_e$	$9,11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$
Faradey soni	F	$9,65 \cdot 10^7 \text{ Kl/kg}\cdot\text{ekv}$
Elektr doimiysi	$\epsilon_0$	$8,85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$
Magnit doimiysi	$\mu_0$	$4\pi \cdot 10^{-7} \text{ Gn/m}$
Yorug'likning vakumdag'i tarqalish tezligi	S	$3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$
Stefan- Bolsman doimiysi	$\sigma$	$5,67 \cdot 10^{-8} \text{ Vt/m}^2\cdot\text{grad}^4$
Plank doimiysi	H	$6,625 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$
Vodorod atomi uchun Ridberg doimiysi	R	$1,097 \cdot 10^7 \text{ m}^{-1}$
Birinchi Bor ortibitasining doimiysi	$r_1$	$0,529 \cdot 10^{-10} \text{ m}$
Bor magenitoni	$\mu_B$	$0,927 \cdot 10^{-24} \text{ J/Tn}$
Vodorod atomining ionizasiya energiyasi	$E_i$	13,6 eV
Massaning atom birligi	M.a.b.	$1,666 \cdot 10^{-23} \text{ kg}$
Neytroning massasi	$m_n$	$1,675 \cdot 10^{-23} \text{ kg}$
$\alpha$ - zaraning massasi	$m_\alpha$	$6,64 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$
Massa va energiya orasidagi bog'-lanishning proporsionallik koeffisenti	$c^2$	$9 \cdot 10^{12} \text{ j/kg}$ yoki 931 MeV/m.a.b.

**2-jadval**

**BA'ZI ASTRONOMIK KATTALIKLAR**

Nomlanishi	Son qiymati
Yerning o'rtacha radiusi	$6,37 \cdot 10^6 \text{ m}$
Yerning massasi	$6,96 \cdot 10^{24} \text{ kg}$
Quyoshning radiusi	$6,95 \cdot 10^8 \text{ m}$

Quyoshning massasi	$1,97 \cdot 10^{30}$ kg
Oyning radiusi	$1,74 \cdot 10^6$ m
Oyning massasi	$7,3 \cdot 10^{22}$ kg
Yerning markazidan Quyoshning markazigacha bo'lgan o'rtacha masofa	$1,5 \cdot 10^{11}$ m
Yerning markazidan Oyning markazigacha bulgan o'rtacha masofa	$3,84 \cdot 10^8$ m

### 3-jadval

GAZ MOLEKULALARINING EFFEKTIV DIAMETRI

Gaz	Diametri, nm
Azot	0,3
Argon	0,36
Vodorot	0,23
Geliy	0,2
Kripton	0,32
Karbonat angidrid	0,45
Kislorot	0,3
Neon	0,35
Simob	0,30
Xlor	0,54

### 4-jadval

BA'ZI GAZLARNING NORMAL SHAROITDA ZICHLIGI VA QOVUSHQOQLIGI

Gaz	Zichligi kg/m <sup>3</sup>	Qovushqoqligi MKPa/s
Azot	1,25	17,0
Ammiak	0,77	9,35
Argon	1,78	21,20
Vodorod	0,09	8,52
Geliy	0,18	18,80
Karbonad angidrid	1,97	14,30
Kislorod	1,43	19,80
Havo	1,29	17,10

### 5-jadval

T<sub>K</sub> VA R<sub>K</sub> KRITIK QIYMATLARI

<b>Modda</b>	$T_k, {}^\circ K$	$R_k, atm$	$R_k \cdot 10^6, N/m^2$
Suv bug'i	647	217	22,0
Karbonat angidrid	304	73	7,4
Kislород	154	50	5,07
Argon	151	48	4,87
Azot	126	33,6	3,4
Vodorod	33	12,8	1,3
Geliy	5,2	2,25	0,23

### 6-jadval

**TURLI TEMPERATURALARDA FAZONI TO'YINTIRUVCHI  
SUV BUG'LARINING ELASTIKLIGI**

$T, {}^\circ C$	$P_H, mm.sm.ust.$	$T, {}^\circ C$	$P_H, mm.sm.ust.$
-5	3,01	16	13,6
0	4,58	18	15,5
1	4,93	20	17,5
2	5,29	25	23,8
3	5,69	30	31,8
4	6,1	40	55,3
5	6,54	50	92,5
6	7,01	60	149
7	7,71	70	234
8	8,05	80	355
9	8,61	90	526
10	9,21	100	760
12	10,5	150	4,8 atm
14	12	200	15,3 atm

### 7-jadval

**TURLI TEMPERATURALARDA SUVNING BUG'LANISH  
SOLISHTIRMA ISSIQLIGI**

$t, {}^\circ C$	0	50	100	200
$R, kkal/g$	595	568	539	464
$r \cdot 10^{-5}, j/kg$	24,9	23,8	22,6	19,4

### 8-jadval

**BA'ZI BIR SUYUQLIKLARNING XOS SALARI**

Suyuqlik	Zichlik kg/m <sup>3</sup>	20 <sup>0</sup> S dagi solishtirma issiqlik sig'imi	20 <sup>0</sup> S dagi sirt taranglik koeffisienti, N/m
		j/kg·grad	Kal/g·grad
Benzol	880	1720	0,41
Suv	1000	4190	1
Gliserin	1200	2430	0,58
Kanakunjut moyi	900	1800	0,43
Kerosin	800	2140	0,051
Simob	13600	138	0,033
Spirt	790	2510	0,6

**9-jadval**

**BA'ZI SUYUQLIKLARNING XOS SALARI**

Suyuqlik	Qovushqoqlik (20 <sup>0</sup> S da) 10 <sup>-4</sup> N·s/m
Benzol	6,3
Gliserin	14990
Kerosin	1800
Suv	10
Simob	1554
Spirt	11,9

**10-jadval**

**BA'ZI BIR QATTIQ JISMLARNING XOS SALARI**

Modda	Zichlik kg/m <sup>3</sup>	Erish temperaturasi , °S	Solishtirma issiqlik si- g'imi		Erish so- lishtirma issiqligi, j/kg	Chiziqli issiqlik kengayish koeffi-sienti, grad <sup>-1</sup>
			j/kg·grad	kkal/kg·gra d		
Alyuminiy	2600	659	896	0,214	$3,22 \cdot 10^5$	$2,3 \cdot 10^{-5}$
<b>Temir</b>	7900	1530	500	0,119	$2,72 \cdot 10^5$	$1,2 \cdot 10^{-5}$
Jez	8400	900	386	0,092	-	$1,9 \cdot 10^{-5}$
Muz	900	0	2100	0,5	$3,35 \cdot 10^5$	-
Mis	8600	1100	395	0,094	$1,76 \cdot 10^5$	$1,6 \cdot 10^{-5}$
Qalay	7200	232	230	0,055	$5,86 \cdot 10^4$	$2,7 \cdot 10^{-5}$
Platina	21400	1770	117	0,028	$1,13 \cdot 10^5$	$0,89 \cdot 10^{-5}$
Po'kak	200		2050	0,49	-	
Qo'rgoshin	11300	327	126	0,03	$2,26 \cdot 10^4$	$2,9 \cdot 10^{-5}$
Kumush	10500	960	234	0,056	$8,8 \cdot 10^4$	$1,9 \cdot 10^{-5}$
Po'lat	7700	1300	460	0,11	-	$1,06 \cdot 10^{-5}$
Rux	7000	420	391	0,093	$1,17 \cdot 10^5$	$2,9 \cdot 10^{-5}$

**11-jadval**

BA'ZI BIR QATTIQ JISMLARNING ELASTIKLIK XOSSALARI

Modda	Mustahkamlik chegarasi N/m	Yung moduli N/m <sup>2</sup>
<b>Alyuminiy</b>	$1,1 \cdot 10^8$	$6,9 \cdot 10^{10}$
Temir	$2,94 \cdot 10^8$	$19,6 \cdot 10^{10}$
Mis	$2,45 \cdot 10^8$	$11,8 \cdot 10^{10}$
Qo'rgoshin	$0,2 \cdot 10^8$	$1,57 \cdot 10^{10}$
Kumush	$2,9 \cdot 10^8$	$7,4 \cdot 10^{10}$
Po'lat	$7,85 \cdot 10^8$	$21,6 \cdot 10^{10}$

**12-jadval**

BA'ZI BIR QATTIQ JISMLARNING ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIGI

( $\lambda$ , Vt/m·grad)

<b>Alyuminiy</b>	210
Namat	0,046
Temir	58,7
Eritilgan kvars	1,37
Mis	390
Quruq qum	0,325
Po'kak	0,050
Kumush	460
Ebonit	0,174

**13-jadval**

TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARING QIYMATLARI

Burchak	sin	Tg	stg	cos	Burchak
0	0	0		1	90
1	0,0175	0,0175	57,29	0,9998	89
2	0,0349	0,0349	28,64	0,9994	88
3	0,0524	0,0524	19,08	0,9986	87
4	0,0698	0,0699	14,3	0,9976	86
5	0,0872	0,0875	11,43	0,9962	85
6	0,1045	0,1051	9,514	0,9945	84
7	0,1219	0,1228	8,144	0,9925	83
8	0,1392	0,1405	7,115	0,9908	82
9	0,1564	0,1584	6,314	0,9877	81
10	0,1736	0,1763	5,671	0,9848	80
11	0,1908	0,1944	5,145	0,9816	79
12	0,2079	0,2126	4,705	0,9781	78
13	0,225	0,3209	4,331	0,9744	77

14	0,2419	0,2498	4,011	0,9703	76
15	0,2588	0,2679	3,732	0,9659	75
16	0,2756	0,2867	3,487	0,9613	74
17	0,2924	0,3057	3,271	0,9563	73
18	0,309	0,3249	3,078	0,9511	72
19	0,3256	0,3443	2,904	0,9455	71
20	0,342	0,364	2,747	0,9397	70
21	0,3584	0,3839	2,805	0,9336	69
22	0,3746	0,404	2,475	0,9272	68
23	0,3997	0,4245	2,356	0,9205	67
24	0,4067	0,4452	2,246	0,9135	66
25	0,4226	0,4463	2,145	0,9063	65
26	0,4384	0,4877	2,05	0,8988	64
27	0,454	0,5065	1,163	0,891	63
28	0,4695	0,5317	1,881	0,8829	62
29	0,4848	0,5648	1,804	0,8746	61
30	0,5	0,5774	1,132	0,866	60
31	0,515	0,6009	1,664	0,8572	59
32	5290	0,6249	1,6	0,848	58
33	0,5446	0,6494	1,546	0,8387	57
34	0,5592	0,6745	1,483	0,829	56
35	0,5736	0,7002	1,428	0,8192	55
36	0,5878	0,7265	1,376	0,809	54
37	0,6018	0,7536	1,327	0,7986	53
38	0,6157	0,7813	1,28	0,788	52
39	0,6293	0,8998	1,235	0,7771	51
40	0,6428	0,8391	1,192	0,766	50
41	0,6561	0,8693	1,15	0,7547	49
42	0,6691	0,9004	1,111	0,7314	48
43	0,682	0,9325	1,072	0,7314	47
44	0,6947	0,9857	1,036	0,7193	46
45	0,7071	1	1	0,7071	45
	<b>cos</b>	<b>Ctg</b>	<b>tg</b>	<b>Sin</b>	

#### ADABIYOTLAR

1. Saveliyev I.V. "Umumiy fizika kursi", I-II tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1983 .
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi ,1-2- qism, Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Trofimova T. Kurs fiziki. Moskva. «Vyssshaya shkola» 1990.
5. Detlaf A.A., YAvorskiy B.M. Kurs fiziki. Moskva. «Vyssshaya shkola», 1989
6. KalashnikovS.G.. Elektr. Toshkent, "O'qituvchi", 1979.
7. Zisman G.A.va Todes O.M. Umumiy fizika kursi, I-tom.
8. Iveronova V.I. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulayar fizika. T., «O'qituvchi», 1973

## MUNDARIJA

<b>Fizika o'quv laboratoriyasida ishlashda texnika xavfsizligi</b>	3	
<b>Laboratoriya mashg`ulotlari va ularni tashkil qilish usullari</b>	4	
<b>O`lchash xatoliklari haqida tushuncha</b>	5	
1- laboratoriya ishi.	<b>Matematik mayatnikning tebranish qonunlarini o'rganish va og'irlilik kuchi tezlanishini aniqlash</b>	6
2- laboratoriya ishi	<b>Suyuqlik va qattiq jismlarning zichligini gidrostatik tortish usuli bilan aniqlash</b>	10
3- laboratoriya ishi	<b>Modda zichligini piknometr vositasida aniqlash</b>	13
4- laboratoriya ishi	<b>Aylanayotgan jism uchun dinamikaning asosiy qonunini tekshirish (oberbek mayatnigi)</b>	19
5- laboratoriya ishi	<b>Ag'darma mayatnik yordamida og'irlilik kuchi tezlanishini aniqlash</b>	22
6- laboratoriya ishi	<b>Suyuqliklarning sirt taranglik koeffisientini tomchi usuli yordamida aniqlash.</b>	26
7- laboratoriya ishi	<b>Havoning nisbiy namligini avgust psixometri bilan aniqlash.</b>	29
8- laboratoriya ishi	<b>Egilish bo'yicha yung modulini aniqlash</b>	33
9- laboratoriya ishi	<b>Sharchaning erkin tushishi usulida suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash (stoks usulida)</b>	37
10- laboratoriya ishi	<b>Puazeyl usuli bilan ichki ishqalanish (yopishqoqlik) koeffitsiyentini suvni kapillyar naychadan oqizish yordamida aniqlash</b>	40
11- laboratoriya ishi	<b>Havoning issiqlik sig'imi mlari nisbati <math>s_p / s_v</math> ni topish.</b>	43
12- laboratoriya ishi	<b>O'zgarmas tok ko'prigi yordamida qarshiliklarni o'lchash</b>	45
13- laboratoriya ishi	<b>O'tkazgichning solishtirma qarshiligini hisoblash.</b>	49
14- laboratoriya ishi	<b>O'zgaruvchan tok ko'prigi yordamida kondensator sig'imini aniqlash.</b>	52

15- laboratoriya ishi	<b>Moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti, faradey soni va Elektron zaryadi miqdorini aniqlash</b>	60
16- laboratoriya ishi	<b>Yarim o'tkazgichli diodni volt-amper tasnifini aniqlash</b>	64
17- laboratoriya ishi	<b>Faradey doimiysini aniqlash</b>	68
18- laboratoriya ishi	<b>Tangens-bussol yordamida yer magnit maydon kuchlanishining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash</b>	71
19- laboratoriya ishi	<b>O'zgaruvchan tok uchun om qonunini tekshirish</b>	75
20- laboratoriya ishi	<b>Bessel usuli bilan qavariq va botiq linzalarning fokus masofasini aniqlash</b>	79
21- laboratoriya ishi	<b>Difraksion panjara yordamida yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlash</b>	86
22- laboratoriya ishi	<b>Mikroskop yordami bilan shishaning sindirish ko'rsatkichini aniqlash</b>	89
<b>Illova</b>		95

Ushbu uslubiy qo'llanma biologiya ta'lif yonalishi uchun tayorlangan fizika fani ishchi fan dasturiga asosan quyidagicha taqsimlanadi.

<b>Nº</b>	<b>Laboratoriya mashg'ulotlar</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1	Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash.	4
2	Qattiq jism zichligini gidrostatik tortish usulida aniqlash.	4
3	Suyuqlilikning zichligini piknometr yordamida aniqlash	4
4	Qattiq jismning inersiya momentini dinamik usulda aniqlash.	4
5	Havoning issiqlik sig‘imlari nisbati $S_p / S_v$ ni topish.	4
6	Bug‘lanishning yashirin issiqligini aniqlash.	4
7	Havoning nisbiy namligini avgut psixrometri yordamida aniqlash.	4
8	Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffitsientini Stoks usuli bilan topish.	4
9	O‘zgarmas tok ko‘prigi yordamida qarshiliklarni o‘lchash.	4
10	O‘tkazgichlarning solishtirma qarshiliginini aniqlash.	4
11	Er magnit maydoni kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini Tangens-bussol yordamida aniqlash.	4
12	O‘zgaruvchan tok ko‘prigi yordamida kondensator sig‘imini aniqlash.	4
13	Termoparani o‘rganish.	4
14	O‘zgaruvchan tok uchun Om qonunini tekshirish.	4
15	Misning elektrokimyoviy ekvivalentini aniqlash	4
16	Linzalarning fokus masofasini aniqlash.	4
17	Difraksion panjarani o‘rganish va yorug‘likning to‘lqin uzunligini topish.	2



